

**N.X.HAKIMOV,
A.B.ABDULQOSIMOV,
SH.R.HAMDAMOV**

IJTIMOIIY EKOLOGIYA

TOSHKENT – 2007

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Hakimov Nazar, Abdulqosimov Abdurashid, Hamdamov Shokir

IJTIMOIIY EKOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus, kasb-qunar ta'limi
o'quv metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi
Kengash tomonidan "Iqtisodiyot" (ekologiya) ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2007

N.H.Hakimov, A.Abdulqosimov, Sh.R.Hamdamiy Ijtimoiy ekologiya.
(O'quv qo'llanma). –T., 2007 y, - 134 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Ijtimoiy ekologiya" fanining nazariy asoslarini
O'zbekistondagi inson ekologiyasi muammolarining ijtimoiy-ekologik jihatlarini
yoritilgan.

Qo'llanma tabiat va jamiyat, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, tabiiy-
ilmiy anglash mohiyati, ijtimoiy ekologiya maqsad va vazifalari bayon etish
bilan birga tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy ekologik muammolarni bartaraf
etish masalalarini ilmiy o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Mazkur
kitobda mamlakatimizda ijtimoiy-ekologik muammolarni hal etish borasida olib
borilayotgan iqtisodiy ekologik siyosatning o'rniga alohida ahamiyat berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining
talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: i.f.n., dotsent A.B.Hayitov

Taqrizchilar: i.f.d., prof. K.A.Xasanjanov

g.f.d., prof. T.J.Jumaev

b.f.n. A.A. Jurayeva

Н.Х. Хакимов, А. Абдулкасимов, Ш.Р. Хамдамов. Социальная экология.
Учебное пособие. - Т., 2007, - 134 стр.

В учебном пособии определен предмет социальной экологии раскрыт понятий аппарат, дан анализ ключевых социально-экологических проблем, приводятся практические примеры возникновения экологических кризисов и пути предупреждения с целью обеспечения охраны окружающей среды. Рассматриваются проблемы экологической безопасности в странах мира и в Узбекистане.

Учебное пособие рассчитано для студентов экономического направления высших учебных заведений.

Ответственный редактор: к.э.н., доцент А.Б.Хайитов
Рецензенты: д.э.н., проф. К.А.Хасанжанов
д.г.н., проф. Д.Т.Джумаев
к.б.н. А.А.Жураева

Khakimov N.Kh., Abdulkasimov A., Khamdamov Sh.R. Social ecology. (Manual)
– T., 2007, – pages.

The manual is about theoretical basis of the course of social ecology. It covers the reasons and results of human ecology problems and social ecology in the Republic of Uzbekistan.

The manual also explains philosophical and natural scientific relations between society and human, social goals of ecology and tasks. Social ecology problems and role of economic politics are covered while solving social ecology problems.

The manual is designed for the students studying in the sphere of economy.

Responsible editor: Candidate of economic sciences, assoc. prof. A.B.Hayitov

References: Doctor of economic sciences, prof. K.A.Xasanjanov,
Doctor of geographic sciences, prof. T.J.Jumaev,
Candidate of biological sciences, ass. A.A.Juraeva

MUNDARIJA

KIRISH.....	8
1-bob. Ijtimoiy ekologiya fanining predmeti va mazmuni	9
2-bob. Ijtimoiy ekologiyaning muammolari va qonunlari	19
3-bob. Insonning rivojlanishiga ijtimoiy ekologik omillarning ta'siri..	27
4-bob. Insonning ijtimoiy-biologik va ekologik imkoniyatlarini muvofiqlashtirish muammolari.....	37
5-bob. Ijtimoiy-ekologik muammolarning turlari va ularning umumiy tasnifi.	54
6-bob. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-ekologik holatiga iqtisodiyotning ta'siri.....	66
7-bob. Orol va orol bo'yida ijtimoiy-ekologik vaziyatning keskinlashuvi.....	84
8-bob. Ijtimoiy ekologiyaning siyosiy jabhalari.....	92
9-bob. Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik.....	105
10-bob. Ekologik qayta qurish konseptsiyasi.....	112
11-bob. Ekologiyaning ijtimoiy-iqtisodiy aspekti.....	117
12-bob. Ijtimoiy ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikaning o'rni.	123
Fanga doir bilimlarni qaytarish uchun savollar.....	130
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	132
Test savollari.....	137
Yozma ish savollari.....	139
Adabiyotlar sharhi.....	142
Adabiyotlar ro'yxati.....	146
Mustaqil ish bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	150
Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.	158
Glossariy.....	164

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	8
1-глава. Предмет, метод, содержание и задачи социальной экологии...	9
2-глава. Теоретические основы, проблемы, законы социальной экологии	19
3-глава. Влияние социально-экологических факторов на развития человека	27
4-глава. Проблемы уравнивании социально-биологических и экологических возможностей человека.....	37
5-глава. Виды и классификации социально-экологических проблем региона.....	54
6-глава. Влияние сельского хозяйства на природно-экологическую биосферы региона и возникновение антропогенных проблем.....	66
7-глава. Обострение социально-экологических ситуаций Арала...	84
8-глава. Политический аспект социальной экологии.....	92
9-глава. Социально-экологическая направленность.....	105
10-глава. Концепция экологической перестройки.....	112
11-глава. Социально-экологический аспект экологии.....	117
12-глава. Место науки и техники при решении социально-экологических проблем.....	123
Вопросы для повторения предмета.....	130
Вопросы для контроля и обсуждений.....	132
Вопросы для тестов.....	137
Вопросы для письменных работ.....	139
Обзор литератур.....	142
Список литератур.....	146
Методические указания по выполнению самостоятельных работ.....	150
Методические указания по применению новой педагогической технологии.....	158
Глоссарий.....	164

CONTENTS

Introduction.....	8
Part-1. Subject and essence of the course of “Social ecology”.....	9
Part-2. Main problems and laws of “Social ecology”.....	19
Part-3. Social-ecologic factors effecting to the development.....	27
Part-4. Normalization problems of social-biologic and ecologic conditions of human.....	37
Part-5. Types of regional social-ecologic problems and their general essence.....	54
Part-6. Anthropogen effect to general asian biosphere and the appearance of social-ecologic problems.....	66
Part-7. Aral and sharpening of social-ecologic conditions of aral sea area... ..	84
Part-8. Political aspect of “Social ecology”.....	92
Part-9. Social-ecologic movement.....	105
Part-10. Conception of ecologic re – building.....	112
Part-11. Social-economic aspect of the ecology.....	117
Part-12. The role of science and technology in solving social-ecologic problems.....	123
Main.....	130
Literature.....	146
List of bibliography.....	164

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rejalashtirilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish uchun keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bois Oliy maktabni zamon talabiga mos darsliklar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ham dolzarb ahamiyatga ega. Zotan, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amaliyotga izchil tatbiq qilish ko'p jihatdan iqtisodiyot tarmoqlarini har tomonlama yetuk mutaxassislar bilan ta'minlashga bog'liq. Iqtisodchi-ekologlar tayyorlashda "Ijtimoiy ekologiya" fani o'ziga xos o'rin tutadi. Ushbu o'quv qo'llanma mamlakatimiz iqtisodiyotida tabiiy resurslardan unimli foydalanish mexanizmlarini qamrab olgan.

"Ijtimoiy ekologiya" tabiiy, ijtimoiy va texnikaviy fanlar bilan uyg'un holda jadal shakllanib, takomillashib bormoqda. Ushbu predmet jamiyat va tabiatning o'zaro muvozanatini sifat jihatidan yangi tizim darajasida o'rganadi, resurslardan va tabiatdan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur fan inson dunyoqarashi, tabiatga munosabatini, o'zi yashayotgan dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganishda ilmiy tavsiyalar beradi.

Ushbu o'quv qo'llanma ijtimoiy-ekologik muammolarni hal etishda iqtisodiy-ijtimoiy omillarning rolini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, kitobda ekologiyaning ijtimoiy-demografik, iqtisodiy jihatlari, ekologik ta'lim-tarbiya muammolari atroflicha bayon etilgan.

Mualliflar O'zbekistondagi ijtimoiy-ekologik muammolar va ularni yaxshilash yo'llari va uslubiyatlarini ham nazariy ham amaliy jihatdan yoritishga alohida e'tibor berishgan.

Mualliflar qimmatli mulohazalari va maslahatlari uchun iqtisod fanlari doktori professor Q.N.Abirqulov va iqtisod fanlari nomzodi dotcent A.B.Hayitov - larga chuqur minnatdorchilik bildiradilar.

1-bob. “Ijtimoiy ekologiya” fanining predmeti va mazmuni

1.1. “Ijtimoiy ekologiya” fanining predmeti

Jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy anglash, insonni ijtimoiy fenomen sifatida ko'rsatish unga o'z ijtimoiy taraqqiyotini to'g'ri belgilash imkoniyatini beradi. Jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlar jarayonida yaratgan ijtimoiy va ruhiy muhitlar ta'siri ijtimoiy-ekologik tizim deyiladi. Ushbu ilm tarmog'i qaysi ob'yektiv borliqni va uning qaysi jabhasini o'rganishni, bundan maqsadi nima ekanligini hamda shu sohada doimo hukm suruvchi qonuniyatlar jamiyat manfaatlariga qanday xizmat qilishini anglashga ko'maklashadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligi tufayli uning biologik mohiyati bilan bir qatorda ijtimoiy va ruhiy holatini ham o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki biosferaning tarkibiy qismi bo'lgan, tirik mavjudotlarning oliy shakli hisoblangan inson bir paytning o'zida tabiiy-ijtimoiy va ruhiy muhitlarda yashaydi. Shu boisdan inson biologik, ijtimoiy va ruhshunoslik qonuniyatlari bo'yicha rivojlanib boradi hamda ularning doimiy o'zaro ta'siri ostida bo'ladi.

Har bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosati natijasida yuzaga kelayotgan muhit, insonlar hayoti ijtimoiy muhiti “makroiijtimoiy muhit” deyiladi.

“Ijtimoiy ekologiya” tabiiy, ijtimoiy va texnika fanlarining eng muhim xulosalarini umumlashtiruvchi va yaxlit holda uyg'unlashtirgan fandır.

“Ijtimoiy ekologiya” nisbatan yangi fan bo'lib, ijtimoiy fanlar tizimida bu fanning o'rni to'g'risida olimlar orasida turli munozaralar, turfa fikrlilik mavjud. “Ijtimoiy ekologiya” ijtimoiy fanlar bilan birga o'rganiladi. Jamiyatda atrof-muhit muammolari, inson ekologiyasiga ijtimoiyot nuqtai-nazardan yondashishga qiziqish ortib borayotganligi “Ijtimoiy ekologiya”ning fan sifatida paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

“Ijtimoiy ekologiya” turli izohlarga asoslanganligi bois uzoq vaqt shahar sotsiologiyasi, urbanizatsiyasi sifatida shakllandi. “Ijtimoiy ekologiya” haqidagi tushuncha uning nazariyasi makon va ijtimoiy tuzulmani, ayniqsa, aholisi

ko'payib ketgan katta shaharlar doirasida, umumiy tushuncha berish hamda izohlash vazifasini bajarib kelmoqda.

Aholining ekologik ongi tabiat muhofazasini ta'minlash asosiy ijrochi omil hisoblanadi. Shu bois barcha ijtimoiy qatlamlarning atrof-muhitga ongli munosabatini, ekologik madaniyatini shakllantirish lozim. Mamlakatimiz ziyolilari tarbiyachi, o'qituvchi, ommaviy axborot vositalari xodimlarining bu yo'nalishdagi asosiy vazifasi – jamiyatimiz ijtimoiy va ruhiy muhit tozaligini saqlash uchun aholiga ekologiya madaniyati asoslarini o'rgatib borishdan iborat. Pirovardida, inson yashab turgan muhitni barqaror asrash, uning bioijtimoiy tadrijiy rivojlanish jarayonini me'yoriy holatda saqlab qolish imkoniyati tug'iladi. Bu borada respublikamizda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda «Ekologik ta'lim konsepsiyasi asosida olib borilayotgan hamkorlik ishlarini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq.

1.2. Ijtimoiy ekologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi

“Ijtimoiy ekologiya” bioekologiya, ijtimoiy geografiya va iqtisodiyot ta'sirida rivojlanib borayapti. Shu bois bu fan to'g'risidagi tushunchalarning katta qismi o'simliklar va hayvonlar ekologiyasidan olingan.

“Ijtimoiy ekologiya” XX asrda faol taraqqiyot pallasiga kirdi. Jahon sotsiologlarining 1966 yilda bo'lib o'tgan butun jahon kongressi “Ijtimoiy ekologiya” ning shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy turtki berdi. Bu fanning jadal rivojlanishi pirovardida sotsiologlarning 1970 yili Varnada o'tkazilgan navbatdagi kongressida “Ijtimoiy ekologiya” muammolari bo'yicha Sotsiologlarning butunjahon birlashmasi – Tadqiqot qo'mitasi tuzildi. Bu bilan “Ijtimoiy ekologiya”, mustaqil soha sifatida tan olinib yanada takomillashdi. Bu jarayon esa ushbu predmet funksiyalarining yanada aniqroq belgilanishiga asos bo'ldi.

XX asrning 20-yillarida “Sotsiologiya”ning yangi yo'nalishi “Shahar sotsiologiyasi” nomi bilan paydo bo'lgan “Ijtimoiy ekologiya” ko'proq g'arb

mamlakatlarida shaharlarda odamlarning o'rnashishini eng muvofiq ravishda tashkil etish bo'yicha amaliy vazifalarni hal eta borish jarayonida izchil rivojlandi.

Mashhur Amerika olimi, "Inson ekologiyasi" fanining ko'zga ko'ringan klassik vakili Raderik Makkenzi birinchilardan bo'lib "Ijtimoiy ekologiya" ga ta'rif berdi. U "Ijtimoiy ekologiya" faqat mavjud ekotizim bilan aloqador emasligini ta'kidlagan. Ya'ni, inson va jonzodlar o'zaro ta'siri oqibatida paydo bo'ladigan fazoga oid hayotni saqlab qolish borasida munosabatlar, ekologiya va madaniy omillar majmuiga o'zgarishlar kiritadi. "Ijtimoiy ekologiya"ning vazifasiga tabiiy va qo'zg'atuvchi kuchlar faoliyati qonun-qoidalarini anglab yetish uchun ana shu jarayonlarni o'rganish kiradi.

Keyingi davrda "Ijtimoiy ekologiya" xususida olimlar o'rtasida yana bir qarash paydo bo'ldi. Olimlar bu qarashning bunyodkorlari ekologiya majmui to'g'risidagi qarash, deb atadilar. To'rt omil: populyatsiya, muhit, texnologiya va tashkilot ekologiya majmuini tashkil etadi. Ular sabab va faoliyat jihatidan o'zaro bog'langandirlar. Bu omillarning istalgan biridagi o'zgarish, eng avvalo, mikrodarajaga qaratilgan klassik ekologiyadan odamlarni uzoqlashtirmoqda. Yangi "Ijtimoiy ekologiya" tadqiqotlarda o'zaro bog'langan bir qancha darajalari, jumladan, makro darajasi bilan bog'liq bo'ladi, degan fikr olg'a surilmoqda.

Mutaxassislarning uzoq yillar davomida olib borgan tadqiqotlarida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tabiiy-ijtimoiy to'planning vujudga kelishi va rivojlanishi ijtimoiy hayot va tabiatning o'zaro ta'sirini tadqiq etish jarayonida fanlarning bir-biriga kirib borish jarayoni kuchayadi.

1.3. "Ijtimoiy ekologiya" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

"Ijtimoiy ekologiya" faqatgina amaliy muammolarni tadqiq etadigan soha bo'lmay, balki u ijtimoiy, tabiat munosabatlarini soddalashtirish, insoniyat va atrof-muhitning o'zaro ta'sirini avval qulaylashtirish, keyin esa muvofiqlashtirish qonun-qoidalari va usullari to'g'risidagi uyg'unlashgan fandır.

Ushbu fan rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy-ekologik muammolarni tizimli tahlil etishning markaziy vazifasi bo'lib qoldi. Natijada "Ijtimoiy ekologiya"ning fan sifatida mantiqiy tuzilishi kashf etildi. Tabiiy-ijtimoiy jarayonlardagi harakatini kuchaytirish va muvofiqlashtirish bo'yicha amaliy ishlar qilindi. "Ijtimoiy ekologiya"ning shakllanishi, xususiyati va qonun-qoidalarining o'ziga xosligi tadqiq etildi.

"Ijtimoiy ekologiya" - uyg'unlashgan fan bo'lib, inson, jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini tadqiq etadi. ya'ni ijtimoiy-tabiiy munosabatlarni qulaylashtirish va muvofiqlashtirish to'g'risidagi fandir.

"Ijtimoiy ekologiya" tirik mavjudotlar va Yer sayyorasi ekologiyasidan tubdan farqlanadi. Faqat inson (jamiyat) modda va tabiat kuchlari shaklini o'zgartirib, mehnatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida axborot oqimlarini kuchaytirish va o'zgartirish orqali o'z hayotini dunyoga keltiradi.

"Ijtimoiy ekologiya"ning mikrotuzilishi alohida fanlar yutuqlarini uyg'unlashtiruvchi uchta bo'lakni, ya'ni ishlab chiqarish ekologiyasi (tabiatdan foydalanish tarixi va nazariyasi to'g'risidagi ta'limot), inson ekologiyasi (markaziy bo'lak) va fazo (global) ekologiyasini o'z ichiga oladi. Alohida fanlar (tabiat, ijtimoiy, texnikaviy) bir xil obyekt (jamiyat, inson, texnika, tabiiy muhit tizimi)ning turli tomonlari va holatlari to'g'risidagi bilimlarni o'rgatadi.

1.4. "Ijtimoiy ekologiya" ning tadqiqot doirasi.

"Ijtimoiy ekologiya" o'zining tadqiqot obyektiga egadir. Ijtimoiy ekologiya tizimi aynan "Ijtimoiy ekologiya" fani o'rganadigan obyektidir.

"Ijtimoiy ekologiya" tizimi, bu – birgalikda yashaydigan, o'zaro dialektik birlik va aloqada bo'ladigan turli ijtimoiy guruh, birlik va populyatsiyalar hamda ular atrofidagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar majmuidir.

"Ijtimoiy ekologiya" tizimi er sharini qamrab olgan; sayyoraviy, xududiy va mahalliy tizimlarga bo'linadi.

Yer sharini qamrab olgan “Ijtimoiy ekologiya” tizimida sayyoramiz tabiati va butun insoniyat, ya’ni jamiyati o’zaro ta’sirda bo’ladi. Regional va mahalliy “Ijtimoiy ekologiya” tizimida insoniyat atrof-muhit bilan turli darajadagi ko’proq yoki avtonom boshqariladigan ma’muriy xo’jalik birligi: davlatlar, ma’muriy viloyatlar va tumanlar, shaharlar, qishloq xo’jaligi korxonalari doirasida o’zaro ta’sirda bo’ladi.

Shu asnoda, ijtimoiy ekologiya tizimining darajama-daraja tuzilmasi paydo bo’ladi: davlatlardan iborat global tuzilma, undan keyin viloyatlardan, yoxud tumanlardan iborat tuzilma, ular shahar va qishloq xo’jaligi tuzilmalarini o’z ichiga oladi. O’z navbatida, har bir “Ijtimoiy ekologiya” tizimi ikki asosiy kichik tizim – tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning qo’shilishidir. Ular quyi darajadagi tizimlardan tashkil topadi, tabiiysi jonli va jonsiz, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va xo’jalik tizimlari qo’shilishidan iboratdir.

Bundan tashqari, har bir kichik tizim tarkibiy qismlardan iborat bo’ladi: tabiiy tizim-yer qobig’ining yuza qismi, tuproq, o’simlik, hayvonat dunyosini, yer yuzasi ostidagi suvlarni, atmosfera havosini; ijtimoiy-iqtisodiy tizim esa - aholi, uy-joy, korxonalar, muhandislik inshootlari, kommunikatsiyalar, transport va inson xo’jalik faoliyatining boshqa obyektlarini o’z ichiga oladi.

Ijtimoiy ekologiya yirik tizimdir. Uning kichik tizimlari va tarkibiy qismlari uzluksiz o’zgaradi va o’zaro ta’sirda bo’ladi. Normal rivojlanadigan ijtimoiy ekologiya tizimlarida kichik tizimlar muvozanat holatida bo’ladi. Agar antropogen tarkibiy qismlarining gepertroflangan rivoji bu muvozanatni buzsa, ijtimoiy ekologiya tizimida kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bilan birga tanazzulga yuz tutadi. Markaziy Osiyo ijtimoiy ekologiya tizimi buning klassik misolidir. Bu mintaqaning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarida salbiy holatlar paydo bo’lgan.

Ijtimoiy ekologiya tizimining har bir tarkibiy qismi shu qismning vaqt va makondagi o’zgaruvchanligini ifodalovchi bir qator ko’rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Bu ko’rsatkichlar ijtimoiy ekologiya tizimi jo’shqin muvozanatiga

ta'sir etuvchi omillar va ayni vaqtda ijtimoiy ekologiya tizimi umumiy holatini aks ettiradigan indikatorlar hisoblanadi. Bu bilan jamiyatga muayyan bir maqsadga yo'naltirilgan xo'jalik faoliyati vositasida o'zining muvofiqlashtiruvchilik vazifasini bajarish imkoni beriladi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy ekologiya tizimi o'z-o'zini tartibga soladigan kibernetika tizimlaridan iboratdir. Ularning jo'shqin muvozanati, tabiiy ekologiya tizimlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy ong, jamiyat va tabiatning koevolyutsiyasi tomonidan ta'minlanishi kerak.

Har bir ijtimoiy ekologiya tizimining jo'shqin muvozanatini uning eng qulay faoliyat tuzilmasi ta'minlaydi. Bu tuzilma eng qulay funksional zonalashtirish va tabiatdan foydalanishning eng qulay tartibini o'z ichiga oladi. Eng qulay funksional zonalashtirish xo'jalik yo'sinida foydalanish ko'rinishlari – dehqonchilik, yaylovchilik, o'rmonchilik, sanoat, dam olish joylari, qo'riqxonalar va boshqalar o'rtasida ijtimoiy ekologiya tizimi hududiy boyluklarini ijtimoiy ekologiya jihatidan eng oqilona, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy muhofazalash talablarini hisobga olgan holda taqsimlashdan iboratdir. Tabiatdan foydalanishning eng qulay tartibi esa, ijtimoiy ekologiya tizimi turli tuman ko'rinishdagi tabiiy boyluklardan iqtisodiy jihatdan eng ko'p foyda olishni ko'zlab foydalanishdan iboratdir. Bunda geokotizimni tashkil etuvchi tarkibiy chegaradan ortiq yuk tushmasligi kerak.

1.5. "Ijtimoiy ekologiya" ning vazifalari

"Ijtimoiy ekologiya" predmetining tahlili bu fan maxsus fanlarga xos xususiyatga ega bo'lmasligini ko'rsatadi, zero u voqelikning asosiy omillari – inson, jamiyat, tabiat o'rtasidagi chuqur aloqalarni ochib beradi. Ya'ni "Ijtimoiy ekologiya" - "Jamiyat-inson-texnika-tabiiy muhit" tizimlari bir butunligi va bir-birini taqozo qilishini tadqiq etadigan, uyg'unlashgan fan ekanligidan dalolat beradi. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bu fan – materiyaning majmui va tizim sifatida olingan ijtimoiy va boshqa barcha harakat shakllari o'rtasidagi

qonuniy aloqalarni o'rganadi. Bu fan tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlarni uyg'unlashtiruvchi "Falsafiy materializm"ning umumiy metodologiyasi negizida shakllanadi va rivojlanadi.

G.A.Bachinskiy haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Ijtimoiy ekologiya" uyg'unlashgan fanlararo xususiyat mavjud bo'lgani uchun tizimli bir butunlikka ega. Nazariy asosi "Materialistik dialektika" bo'lgan bu fan "Geografiya", "Iqtisodiyot", "Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti", "Bioekologiya", "Muhandislik ekologiyasi" va hokazolarning ijtimoiy-tabiiy yo'nalishlarini uyg'unlashtiradi.

"Ijtimoiy ekologiya" nazariy va amaliy yo'nalishlarga ega. Insoniyatning atrof tabiat muhiti bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganish, jamiyat va tabiatning o'zaro muvofiqlashgan ta'siri to'g'risidagi umumiy nazariyani ishlab chiqish "Ijtimoiy ekologiya"ning predmetidir. Shuningdek hududiy va mahalliy ijtimoiy ekologiya tizimlarini majmuali o'rganish va komplekslashtirish (modellashirish)ni "Ijtimoiy ekologiya" predmeti deyish mumkin. Ya'ni, bu fanda shu tizimlarning qulay faoliyat-tuzilmasini aniqlash maqsad qilib qo'yiladi.

"Ijtimoiy ekologiya" ning asosiy vazifalarini aniqlayotgan jamiyat va atrof-muhitning o'zaro ta'sirini aks ettiradigan "Ekologiya"ga nafaqat tushuncha sifatida, balki ekologiyaning ijtimoiyligi sifatida ham e'tibor berish lozim. Buning ma'nosi shuki, "Ijtimoiy ekologiya" tadqiqotlari ma'lum bir me'yorda ijtimoiy tuzilmalarga, ijtimoiy tuzilmalar naqadar boshqaruvchi jamoat-ishlab chiqarish texnologiyasiga mos kelishini aniqlashga, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirishga, insoniyatning butun yer shariga taalluqli ijtimoiy ekologik muammolarini bartaraf etishga yo'naltirilmog'i lozim. Shunday qilib, ijtimoiy tuzilmalarga muvofiq keladigan qoliplar (modellar)ni ishlab chiqish "Ijtimoiy ekologiya" ning eng muhim vazifasidir.

Ijtimoiy tuzilmalarning o'zi ham jamoat-ishlab chiqarish texnologiyasi mazmuni, jamiyatning butun hayot faoliyati shu jamiyatning ijtimoiy ustuvor ehtiyojlari bilan hal qiluvchi darajada bog'liqdir.

Inson sivilizatsiyasining butun tarixiy davri, o'zgartiruvchi texnologiyaning hukmronligi moddiy ehtiyojlar ustun turishi bilan tavsiflangan. Moddiy boylik yaratish taraqqiyotni harakatga keltiruvchi asosiy mazmun (motiv) sifatida maydonga chiqdi. Ammo bunday taraqqiyot o'zining tabiiy chegarasiga ega bo'lib, aks holda sayyora va uning biosferasi bilan yer sharini ekologik bo'hronga yetaklaydi.

Inson tabiatiga eng munosib va unga aynan o'xshaydigan ehtiyojlarni insoniyat va jamiyat mohiyatidan chiqara bilish hamda uni ijtimoiy ahamiyatli darajaga ko'tarish "Ijtimoiy ekologiya"ning eng muhim vazifasidir. Bu ehtiyojlar insonning rag'batlantiruvchi va o'zgartiruvchi omil bo'lishiga qodirdir. Aftidan, bunday ehtiyojlarni ma'naviy va aqliy faoliyatdan keltirib chiqarish lozim bo'ladi.

Ma'naviy rivojlanish moddiy rivojlanishdan farqli o'laroq, cheksizdir. Uning ustunligi shundaki, u boshqa birovning hisobiga amalga oshirilishi mumkin emas, unga boshqalarga zarar yetkazmagan holda har bir kishi erishishi mumkin. Binobarin, shuni ham nazarda tutish lozimki, aqliy rivojlanishdan ayri holda, lazzatlanish va kayf-safoni ko'zlaydigan muayyan ehtiyojlarni qondirish tabiat va jamiyatga zarar yetkazadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, "Ijtimoiy ekologiya" tizimlarida tabiiy va antropogen tarkibiy qismlarni muvofiq ravishda uyg'unlashtiradigan hamda odamlarning sanitariya-gigiyena, nafasat va moddiy ehtiyojlarini qondiradigan, tabiiy madaniylashgan hayot muhitini yaratish hamda qo'llab-quvvatlash "Ijtimoiy ekologiya" ning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifa regional va mahalliy ijtimoiy ekologiya tizimlarining eng qulay faoliyatini ta'minlaydigan tuzilmalar yaratish vositasida shakllanishi mumkin.

Bobning qisqacha mazmuni

“Ijtimoiy ekologiya” tabiat, ijtimoiy va texnika fanlarining eng muhim qarashlarini umumlashtiradigan va bir butun qilib birlashtiradigan uyg'unlashgan fandır.

Tabiat inson uchun yagona makon, u odamni turli oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zaruriy buyumlar bilan ta'minlaydi.

“Ijtimoiy ekologiya” bioekologik ta'sirda shakllangan.

“Ijtimoiy ekologiya”ning mikrotuzilishi alohida fanlar yutuqlarini uyg'unlashtiruvchi uchta bo'lakni, ya'ni ishlab chiqarish ekologiyasi, inson ekologiyasi va fazo ekologiyasini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ekologiya fani yer sharini qamrab olgan sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy tizimlarga bo'linadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. “Ijtimoiy ekologiya” fani nimani o'rganadi?
2. “Ijtimoiy ekologiya” fanining rivojlanish bosqichlari.
3. “Ijtimoiy ekologiya” fani qaysi fanlar bilan aloqador?
4. Fanning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. “Ijtimoiy ekologiya” fani qachon vujudga kelgan?
6. Bu fan qaysi fanlar ta'sirida shakllana boshladi?
7. “Ijtimoiy ekologiya” fanining predmeti va obyektiga ta'rif bering.
8. “Ijtimoiy ekologiya” fanining asosiy-ilmiy tadqiqot metodlari.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar, 2005 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T. O'zbekiston, 1997.
3. Abirqulov Q. N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Ekologiya. - T., 2004.
4. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. - T., 2004.
5. Банников А.Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. - М., 2000.
6. Гирусов Е. В. Экология и экономика природопользования. - М., 2002.
7. Макара С.В. Основы экономики природопользования. - М.: "ИМРЕ", 2002.
8. Рыночные методы управления окружающей среды. Учеб. пособие - М., 2002.
9. Степановских А.С. Прикладная экология. – М.: YUNITI, 2003.
10. Экономика и экология (под.ред. Н.Н. Агапова). – М.: Российская Экономическая академия, 2001.
11. Смелянова А.Г. Основы природопользования. Академия, 2004
12. Голицын А.Н. Основы промышленной экологии. Академия, 2004

2 - bob Ijtimoiy ekologiyaning muammolari va qonunlari

2.1. Ijtimoiy-ekologik muammolar va ularning oqibatlari

Ekologik halokatlar oqibatlari yil sayin dahshatli tus olmoqda. Insoniyat bulardan saqlanish emas, balki ularning tarqalishini kamaytirish, sayyoramizni hozirgi ahvolga olib kelgan zamonaviy sivilizatsiyaning texnogen va ijtimoiy-madaniy oqibatlari shiddatini to'xtatish ustida bosh qotirishi kerak. Bu esa sodir bo'layotgan ekologik inqirozlarning sabablarini anglab olishga, chuqurroq tadqiq qilishga va salbiy oqibatlardan qutilish yo'llarini izlashga e'tibor qaratmog'imizni taqozo etadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, tabiatdan foydalanishda ekologiya qonun-qoidalari hali yetarli darajada rioya qilinmayapti. Ekotizimlarni boshqarishni o'rganiish, ularning tuzilishini, turli ekotizimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir butunligini ta'minlaydigan o'zaro ta'sir etish majmui va boshqa jihatlarini yanada mukammal o'rganish zarurati vujudga keldi.

Moddalarning biologik aylanishiga madad berish ekotizimning bosh vazifasidir. Bu ekotizimni tashkil etuvchi populyatsiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosida amalga oshadi. Zotlar bilan alohida populyatsiyalarning o'zaro ta'siri turli usullarda ro'y beradi. Ammo ular orasida biologik aylanish, moddalar va energiyalarning bir shakldan boshqasiga aylanishini ta'minlaydigan oraliq aloqalar katta ahamiyatga ega. Har bir populyatsiyaning vazifasi tabiiy muhitdagi aniq sharoitlarda turning yashash vazifasini saqlash va qayta ishlab chiqarishdir. Inson tabiat xazinasidan zarur boyliklarni olar ekan, aniq populyatsiya ekotizimida qanday aloqalarni buzayotganiga ko'pincha befarq qaraydi.

Hayvonlar va o'simliklar populyatsiyalaridan ko'p hollarda ularning jinsi va yosh tuzilmasi o'rganilmay, zichligi, tug'ilishi va o'lishi, yangilanish imkoniyatlari hisob-kitob qilinmay foydalaniladi. Bu biologik boyliklarning tanazzuligina emas, balki shu hududda turlarning yo'qolib yoki butunlay qirilib ketishiga olib keladi.

2.2. Tabiiy resurslardan intensiv foydalanish orqali jamiyatning ekotizimga ta'siri.

Tabiiy resurslardan intensiv foydalanish va boshqa usullar orqali jamiyatning ekotizimga ta'siri oqibatida antropogen yukning o'sishi tabiiy boyliklarning zararlanishiga olib keladi. Inson populyatsiyasi miqdori va ehtiyojining ortib borishi, hamda modda va energiyaning inson populyatsiyasi orqali harakat qilishi tabiiy ekologiya tizimlarining almashinuvi yoki butunlay yo'q bo'lib ketishini keltirib chiqaradi. Insoniyatga xos bo'lgan moddiy qayta ishlab chiqarish tufayli, yohud yangi texnikani qo'llash natijasida hozirning o'zidayoq inson populyatsiyasi yer sharining katta qismida barcha darajadagi biogeotsenozni o'zgartiruvchi bosh kuchga aylangan.

Ekotizimlarni tahlil qilayotganda "inson" uning ichki tuzilmalaridan ajratib olinadi va tizim ustiga qurilgan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi. Lekin bu insonning ekologiya tizimi bilan bevosita va bilvosita aloqalarini hamda bu aloqalarning ekotizimda modda almashinuviga ta'sirini istisno etmaydi.

Madaniy hayoti davrigacha inson populyatsiya sifatida tabiiy ekotizimning va ekotizimlar ustiga qurilgan birliklarning bir qismi bo'lgan. Endi esa vaziyat shundayki, insonning texnikaviy faoliyati ta'siri natijasida tabiiy ekotizim inqirozga uchramoqda.

Hozirgi paytda ekologlar tabiatning tabiiy holati qanday o'zgarayotgani, organizmlar o'zgarayotgan muhitga qanday moslashayotgani kabi masalalarni tadqiq etishlari, ekotizimlarda antropogen jarayonlarning bo'lgan me'yorlarini aniqlashlari, mahsulotlarda moddalarning biologik aylanishini ta'minlaydigan texnologiya loyihalari va mexanizmlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish, sanoat va aholi zich hududlarda ekotizimlarni tiklash va barpo etish uslublarini ishlab chiqishlari lozim. Tabiiy ekotizimlarni, ularning o'zgarishiga olib keladigan antropogen faoliyat o'rtasidagi to'g'ri va takroriy aloqalar hamda turli ta'sirlarni yuzaga keltirayotgan omillarni o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Inchunin ham

insonning ekotizimga ta'sirini o'rganish va turkumlash birinchi o'rindagi dolzarb vazifadir.

2.3. Tabiatda ekotizimga ta'sir qiluvchi antropogen omillarning turlari va oqibatlari

Ekolog olimlar quyidagi asosiy antropogen ta'sirlarni ajratib ko'rsatadi:

a) Abiotik muhitni o'zgartiruvchi ta'sirlar. Ular texnika vositalari bilan muayyan maqsadni ko'zlab ta'sir ko'rsatish yoki qo'shimcha xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu holat biotik tizimlarning tabiiy muhitga mavjud moslashuv holatini buzadi. Agar ko'rsatiladigan ta'sir o'z jadalligi bo'yicha ekotizimning buzilgan muvozanatlarini tiklash chegaralaridan o'tib ketsa, ularni qayta qurish lozim. Bunday chegaradan chiqib ketish hollari geologik, gidrologiya va meteorologiya sharoitlarining buzilishi; mavjudotlar yoki boshqa birikmalar hayotini chegarolovchi biogenlarni qalastirib tashlash; suv, havo, tuproqning tarkibiy qismlari o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishi va boshqa o'zboshimchaliklar oqibatida ro'y beradi. Ular ekotizimni odat bo'lib qolgan dasturdan chiqaradi. Bunday keskin o'zgarishlar sanoat, melioratsiya, qishloq xo'jaligi, urbanizatsiya sababli amalga oshadi. Bu ta'sirlar abiotik elementlar, qadriyatlar o'zgarishiga va shu paytgacha mazkur sharoitlarda mavjud bo'lmagan yangi elementlarni joriy qilishga olib keladi.

b) Muhitning antropogen o'zgarishlari biotik tarkibiy qismlar, hayot faoliyatiga ta'siri. Sharoitning o'zgarishi mavjudotlar hayot faoliyatini kuchaytiradi yoki susaytiradi, ularning tabiiy sharoitiga ta'sirini oshiradi. Bunday holatlar tuproq hosil qiladigan jinslar, tuproq buzilishida, yer osti suvlari darajasi, hududning suv ta'minoti beqaror o'zgarganda kuzatiladi. Muhit sharoitlarining texnika vositalari yordamida o'zgarishi tirik organizmlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

v) Tirik mavjudotlarga texnikaning bevosita ta'siri. Dalalarga ishlov berishda; hosilni mexanizmlar yordamida yig'ishtirishda; poezd, avtomobil,

transport harakati natijasida; elektr tarmoqlarini qurishda; suv bostirishda; hudud kechasi yoritilganda texnika vositalarini tirik mavjudotlarga ta'siri ro'y beradi. Bu jarayondagi yo'qotish oddiy mexanika yordamida sodir bo'ladi. Bevosita mexanik ta'sirning boshqa ko'rinishlari, bu – populyatsiya yoki biogeotsenozni avtomobil, temir yo'llari, dambalar qurayotganda turli texnikaviy to'siqlar bilan mayda qismlarga bo'lib tashlashdir. Qurilish vaqtida paydo bo'ladigan vaziyatlarda an'anaviy vazifalarni bajarish uchun populyatsiyalar kamlik qilib qolishi mumkin. Bunday to'siqlar zotlarning ko'chib yurishiga qarshilik qiladi, genofond va evolyutsiya jarayonining o'zgarishini keltirib chiqaradi.

g) Tirik organizmlarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ular foydali o'simliklarni yig'ish, hayvonlarni to'g'ridan-to'g'ri ovlash yoki otib olish, mavjudotlarni yoki alohida turlar himoyasini yo'qotib yuborish kabi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson va texnika muayyan ma'noda ekologiyaga oid ilmiy tadqiqot dasturlarining bir qismiga aylanadi. Bunday sharoitlarda tabiiy ekotizimlarda inson va texnika munosabatlarini o'rganish ijtimoiy ekologiya uchun asosiy vazifa hisoblanadi. Ekologiyaning bu qismi nafaqat nazariy, balki amaliy yo'nalishga ham ega bo'lishi ekotizimni qulaylashtiradigan xo'jalik tadbirlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

2.4. Ijtimoiy ekologiyaning asosiy qonunlari

Ushbu fan predmetini tavsiflaydigan qonun-qoidalar uning muhim ko'rsatkichidir. Fan kashf etgan qonuniyatlar uning ginesalogik takomillashganligidan va amaliyotdagi zaruriyati, unga javob berish imkoniyatidan darak beradi. Jamiyat va tabiiy muhit o'zaro ta'sirining muhim yo'nalishlarini aks ettiradigan qonunlar, "Ijtimoiy ekologiya" dagi fikrlarni asoslashi mumkin.

Ekolog olimlarning fikriga ko'ra, jamiyat xarakteri tabiiy muhit va hayot faoliyatining tabiiy boyluklaridan foydalanish xarakterini belgilashi mumkin. Shu boisdan biz tabiiy-ijtimoiy kontinuum ichida tarixan barqaror va umumiy boshliq

sifatida tabiatdan foydalanish xarakteriga nisbatan ijtimoiy tuzumning boshqaruvchilik roli qonunini qayd etamiz. Uning mazmuni mazkur jamiyatning tabiatdan foydalanishga shu asnoda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy ta'sir ko'rsatishini o'z ichiga oladi. Bu esa moddiy ishlab chiqarishni ishlab chiqarish kuchlari rivojini tezlashtiradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonuniyatlar harakatining obyektivligi materiya harakatining ijtimoiy shakli, shu materiya rivojining qonuniyatli mahsuli bo'lib, sifat jihatidan o'ziga xosdir. Shundan kelib chiqib, boyligni mehnat vositalari bilan qo'lga kiritish tabiiy boyligidan ustunligi qonunini vujudga keltirdi.

d) Tabiiy muhit holati va jamiyat rivoji xarakterining eng muvofiqligi qonuni. Ekolog olim E.V. Girusov tabiiy muhit holati va jamiyat rivoji xarakterining muvofiqligi qonunini ta'riflab bergan. Bu qonunning mazmuni shundan iboratki, tabiiy muhit holati ijtimoiy ishlab chiqarish usuli va rivojlanishining aniq chegarasidadir. Agar jamiyat o'sha muhitda qola turib, inson o'zining tabiatga munosabatini o'zgartirmay, ishlab chiqarishni jadal rivojlantiraverar ekan, muayyan bosqichda ekologiya bo'hroni holatiga uchratadi. Bo'hronning rivojlanishi esa, mazkur sivilizatsiyaning halokati bilan tugaydi yohud jamiyat ishlab chiqarish kuchlari xarakteri o'zgarishiga sababchi bo'ladi.

Jamiyat o'z faoliyatining tabiatdagi uzoq, tabiiy-tarixiy natijalarini hisobga olmay, ishlab chiqarishni tartibsiz olib borishdan to'xtamas ekan, ko'rsatib o'tilgan qonun majburiy harakatda bo'ladi. Hozirgi davrga kelib insoniyat qudratli geologik kuchga aylangan bo'lib, tabiat tiklanishini ta'minlash vazifasini o'z zimmasiga olishi kerak. Bunda o'z-o'zidan ravshanki, sayyoramizdagi mazkur vazifani bajarish uchun barcha davlatlarning hamkorligi zarur. Iqtisodiy va ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti mavjud bo'lgani holda bunday hamkorlikning sustlashuvi global ijtimoiy-ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

e) Oykumenaning tabiiy-tarixiy kengayish qonuni. Oykumenaning tarixiy-tabiiy kengayish qonuni ta'sirining turli jihatlarini hozirgi sharoitlarda falsafa,

tarix, biologiya, geologiya, geografiya va boshqa bir qator fanlar o'rganmoqda. Shu bilan birga, bu yo'nalishdagi ilmiy ma'lumotlar faqat ijtimoiy ekologiya doirasida uyg'unlashadi. Insoniyat rivojining tarixiy tajribasi ko'rsatishicha, Oykumena uzluksiz kengayib boradi. Jamiyat taraqqiyoti bilan uning ishlab chiqarish, amaliy faoliyati chegaralari o'rtasidagi takrorlanib turadigan aloqalar yanada rivojlanadi. Oykumena kengayishining geografik-fazoviy miqyoslari yuqorida aytilgan uyg'unlashishda texnika fanlari, kosmonavtikaning ham qatnashishini talab qiladi.

Noosferaning to'liqsimon rivojlanishi tamoyili "Ijtimoiy ekologiya" ning asosiy qonunidir. Mehnat va fan noosferani rivojlantira borib, biosfera va yerning qatlamlariga ta'sirini muttasil kengaytirgan. Olimning fikricha, biosferada so'nggi o'n minginchi yillikda o'z ahamiyati bo'yicha "Erkin energiya"ning yangi shakli yangidan bunyod etiladi; insoniyat madaniyati energiyasi yoki madaniy biogeokimyo energiya deb atash mumkin bo'lgan biogeokimyoviy energiyaning bu yangi shakli hozirgi vaqtda noosfera bunyod etayotgan biogeokimyoviy energiyadir... U organizmlarning aqliy faoliyati bilan hayotning oliy ko'rinishida miya rivoji bilan bog'liqdir va faqat aqlning paydo bo'lishidan e'tiboran biosferaning noosferaga o'tishini tayyorlovchi shaklda bo'lar ekan. Ilmiy izlanishlar umumlashtirilib, insoniyatning madaniy biogeokimyoviy energiyasi oldinga qarab o'sishi xususida xulosa qilish mumkin. Bu belgilar noosfera rivojining tanaffuslari izchil qisqarishi, orqaga qaytmasligidan dalolat beradi. Bir vaqtning o'zida Oykumenaning kengayish jarayoni davom etayotgani va ijtimoiy hayot olg'a tomon rivojlanayotgani, yer kurrasining turli qismlarida sivilizatsiyaning taraqqiyot sur'ati o'zgarayotgani hisobga olinadigan bo'lsa, noosferaning to'liqsimon harakati oydinlashadi. Oykumenaning kengayishi tamoyilidan farqli o'laroq, noosfera taraqqiyoti kengayishi tamom bo'lib, mazkur hudud tabiiy muhitini chuqur o'zlashtirish boshlanganida jadallashadi.

Bobning qisqacha mazmuni

Moddalarning biologik aylanishiga madad berish ekotizimning bosh vazifasidir. Bu vazifa ekotizimni tashkil etuvchi populyatsiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosida amalga oshadi.

Ekotizimlarning tahlilida inson ularning ichki tuzilmalaridan ajratib olinadi va uni tizim ustiga qurilgan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi.

Hozirgi paytda ekologlar tabiatning mavjud holati qanday o'zgarayotgani, mavjudotlar tabiiy muhitning o'zgarayotgan sharoitlariga qanday moslashayotgani kabi masalalarni hal etishlari, aniq bir ekotizimlarda antropogen jarayonlarning me'yorlarini aniqlashlari lozim.

Ekolog olimlarning fikriga ko'ra, jamiyatning xarakteri inson hayoti faoliyatining tabiiy boylıklardan foydalanish imkoniyatini oldindan belgilash mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy ekologiyaning qaysi muammolarini bilasiz?
2. Tabiiy resurslarning kamayib ketish sabablari nimada?
3. Ekotizimga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?
4. Antropogen omil turlarini aytib bering.
5. Boshqaruvchilik roli qonuni va mazmuni nimadan iborat?
6. Jamiyat rivoji harakatining eng muvofiqligi qonuni nima?
7. Noosferaning to'liqinsimon rivojlanishi tamoyili.
8. Oykumenaning kengayishi qonunning mohiyati nimada?
9. Biotik omillarni ekologik muhitga qanday ta'siri bor?
10. Abiotik omillarni ekologik muhitga ta'siri qanday?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T. O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar 2005 y.
3. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. - T. 2004.
4. Abirqulov Q. N., Xojimatov A., Rajabov N. Atrof-muhit muhofazasi - T. 2004.
5. Xolmuminov J. Ekologiya va qonun. –T. : Adolat 2000.
6. Olamni tozalaylik. O'qituvchilar uchun qo'llanma. – T. Chinor ENK, 2004.
7. Банников А.Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. - М., 2000.
8. Гирусов Е. В. Экология и экономика природопользования. - М., 2002.
9. Макар С.В. Основы экономики природопользования. - М.: "ИМПЕ", 2002.
10. Степановских А.С. Прикладная экология. – М.: YUNITI, 2003.
11. Смелянова А.Г. Основы природопользования. Академия, 2004

3-bob. Insonning rivojlanishida ijtimoiy-ekologik omillarning ta'siri

3.1. Jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosablari rivojlanishi va ijtimoiy-ekologik muammolarning paydo bo'lishi

Insoniyat turmush tarziga fan-texnika taraqqiyoti jiddiy ta'sir o'tkazib, jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatini faollashtirmoqda. Bu ijtimoiy rivojlanishning eng asosiy omillaridan biridir. Insonning biosferaga ta'sir o'tkazishi ham miqyosi, ham jadalligi bo'yicha keskin o'sganligi butun dunyoda ekologiyaga, uning uslubiy va amaliy ko'rinishlariga qiziqishni kuchaytirmoqda. Ekologlarning ta'kidlashicha, insoniyat qudrati g'oyatda oshib borayotgan texnika vositalari yordamida tabiat boyliklarini jadal iste'mol eta borib, o'z sivilizatsiyasi va biologiya turi sifatida o'zining o'sishi sharoitlari behad yaxshilanayotir. Biroq tabiatni bo'ysindira borib, inson o'z hayot faoliyatining tabiiy negizlariga ancha putur yetkazib, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni buzganligi ham rad etib bo'lmaydigan ayni haqiqatdir. Bu insoniyat taqdiri uchun ahamiyatli bo'lgan ekologiya muammosining mohiyatini tashkil etadi. Bunday sharoitda "Ijtimoiy ekologiya" fanini rivojlantirish, uning uslubiy va ijtimoiy-gigiyena jihatlarini tadqiq etish zarurati tobora ortib boradi. Mazkur fan insonlar va tabiat, inson va biosferaning o'zaro munosabatini hayotning aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganishi zarur.

"Ijtimoiy ekologiya" ga dunyoviy yondashish bir tomondan, uning ham majmui, ham global xarakterini, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy ishlab chiqarish, fan-texnika, madaniyat taraqqiyoti o'sishining yanada umumiy jarayonlari bilan bog'liq holda aniq ijtimoiy kontekstda kelib chiqishi va mohiyatini ko'rish imkonini beradi. Ilmiy texnika inqilobi davrida fan va amaliyotning aksariyat yo'nalishlari o'z tadqiqotlari markazida tobora ko'proq insonni, uning ijtimoiy biologik tabiatini, farovonligini ko'rmoqdalar.

Inson salomatligi bugungi kunda jamiyatning murakkab tarixi va hozirgi taraqqiyoti oqibati ekanligi aniqlangan. Shu boisdan tibbiy sanitariya-gigiyena

tadbirlarining birontasi ham, ular qanchalik ilmiy asoslangan va texnikaviy rivojlangan bo'lsin, o'z-o'zicha jamiyat a'zolarining sog'lig'ini saqlash va muhofaza qilishni ta'minlay olmaydi. Buning uchun butun jamiyatning ijtimoiy ishlab chiqarish – iqtisodiyot tuzilmasini ilmiy tashkil qilish, mehnat, dam olish ma'naviy va jismoniy tarbiya sharoitlarini vujudga keltirish, sog'lom turmush tarzini madaniyatini rivojlantirishni taqozo etadi.

Ushbu muammolar jamiyatning tabiiy sharoitlar bilan o'zaro ta'sirini to'g'ri va bu ta'sir takomillashtirishga yo'naltirilgandagina hal etilishi mumkin. Bunda barcha geografik mintaqalar, jonli va jonsiz tabiatdagi barcha jarayonlar, planetamizning barcha sohalari qamrab olinadi. Hozirgi davrda tabiatni shunchaki muhofaza qilish emas, balki inson, tabiat va ular o'rtasidagi muvofiqlikni yanada takomillashtirish talab etiladi.

3.2. Tabiatni muhofaza qilishning inson salomatligiga ijobiy ta'siri

Tabiatni muhofaza qilish eng oliy maqsad – har tomonlama rivojlangan inson va jamiyat majmuiga erishishning eng muhim vositalaridan biridir. Tabiatgina ekotizimning barcha elementlari uchun faqat hayotiy zarur moddiy shart-sharoitlar va biogeotsenozning boshqa elementlari bilan bog'liq ravishda hayot kechirish mumkin bo'lgan tabiiy muhitdir. Bioijtimoiy (jonzod) sharoitda faqat insongina o'z ekologik vaziyatini o'zgartirish va bir ekotizimdan ikkinchisiga erkin ravishda o'tish qobiliyatiga ega. Insoniyatning tarixiy rivojlanishi uning tabiatga ta'sir darajasi o'sib borishi va o'zi yashashi uchun sun'iy ijtimoiy sharoitlar yaratishi bilan tutashib ketgan.

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy hayotning barcha hodisalariga (ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiyot-biologiya, ekologiya va boshqa) kompleks yondashish zarurati paydo bo'ldi. Bu o'tgan davrlarga nisbatan insonning tabiatga tajovuz qilishi yanada faol tus olayotgani bilan bog'liqdir. Bunday tajovuz tabiatga ham, insonning o'ziga ham, uning hayot faoliyati sharoitlariga ham jiddiy ta'sir

ko'rsatayotir. Urbanizatsiyaning inson salomatligi yomonlashuviga o'ta ta'sirli omillardan biri shovqin-surondir. Shovqin kuchining ruxsat etilgan me'yor (REM) 80 db, eng yuqori chegarasi 110 db deb qabul qilingan.

3. 3. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida tabiatning o'zgarishi va ijtimoiy muammolar

Insoniyat uchun fan-texnika taraqqiyoti yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, ijtimoiy tizim xarakteridan qat'i nazar, bu imkoniyatlardan foydalanishda ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Mehnat mahsulotini, moddiy boyliklarni taqsimlash bu ziddiyatlar nafaqat madaniyat va san'atning qonun-qoidalarida, balki insonning tabiat va sun'iy ekotizimlar bilan, shuningdek, o'zining ruhiy fiziologik va ijtimoiy-biologik tabiati bilan o'zaro ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Bu ziddiyatlar hozirgi zamon ekologik vaziyatida inson hayot kechirish darajasi pasayishi va kamayishi hamda uyg'unsizlik paydo bo'lishining asosini tashkil etadi. Bunday ziddiyatlar odamlarning obyektiv jihatdan tobora ortib boradigan ehtiyojlari uchun ko'pincha tabiat boyliklaridan foydalanish jarayonining kelajakdagi ekologik oqibatlarini inobatga olishini taqozo etadi.

3.4. Inson ekologiyasida ijtimoiy va hayotiylikning mohiyati

Fan va texnikaning rivojlanishi inson hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy-biologik muammolarni va hayot ehtiyojlarini tadqiq etishdagi muvaffaqiyatlar "Ijtimoiy ekologiya" muammolarini nazariy tahlil qilishdan amaliy ravishda ko'rib chiqishga o'tish vazifasini qo'ydi. Inson ekologiyasida ijtimoiylik bilan biologiyaviylikning o'zaro bog'liqligi mehnatning barcha ko'rinishlari, predmetlari va vositalarida, alohida ishchi kuchida, mehnat faoliyatining o'zida va uning barcha xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Mehnatning ana shu shakllardan har biri inson organizmining ijtimoiy-biologik rivojlanishi asosida ro'y berishiga

ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iste'mol qiymatlarini yaratish insonning ijtimoiy biologik va ijtimoiy hayot kechirishini birlashtirish va ta'minlashning zarur shartidir. Mehnatning yagona jarayonini mavhum va aniq mehnatga ajratishda insondagi va uning mehnat faoliyatidagi ijtimoiylik va biologiyaviylik aloqasining eng muhim ko'rinishidir. Barcha omillar birgalikda yoki alohida-alohida ishlab chiqarish usuli, bazis, ustqurtmaning o'zaro munosabatlari va ularning iqtisodiy, g'oyaviy va ijtimoiy-biologik, odamlar hayoti faoliyatining muayyan aloqalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. "Inson-jamiyat-tabiat" tizimi doirasida inson ekologiyasida ijtimoiylik va biologiyaviylik o'zaro ta'sirining quyidagi darajalari ajratib ko'rsatiladi: mintaqa, tarmoq, korxonalar yoki mehnat jamoasi tarkibi, ish joyi, mehnat faoliyati va uning turli ko'rinishlari barcha darajalar uchun hal qiluvchi ijtimoiy omil hisoblanadi. Inson organizmi "mehnat me'yori"ni belgilab borib, mehnat sifati va miqdoriga, uning yo'nalishi va davomiyligiga, ish vaqti va bo'sh vaqtdan foydalanishga uzluksiz o'z munosabatini bildirib turadi. "Mehnat me'yori" ni belgilashdan o'tish esa, insonning ham ijtimoiy, ham biologik rivojlanishida o'z izini qoldiradi," – deb ta'kidlashadi ekolog olimlar.

Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari faol qo'llaniladigan barcha ijtimoiy tizimlarda inson ekologiyasidagi ijtimoiylik va biologiyaviylik o'rtasida ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Bu ziddiyatlar fan-texnika yutuqlarini qo'llash, mehnatni takomillashtirish hamda ijtimoiylashuviga qarab bartaraf etilishi yoki ta'sir doirasini kamaytirishi mumkin.

3.5. Inson ekologiyasida mintaqaviy ko'rsatkichlar va ularning asosiy yo'nalishlari

Jamiyatning texnologik rivojlanishi mehnat va aholi salomatligi muammolariga, uning ijtimoiy-gigienik, ruhiy fiziologik va ekologik ko'rinishlariga sifat jihatidan yangicha yondashishni talab qiladi. Mintaqaviy

ma'noda bu muammolar O'zbekiston Respublikasi misolida ayniqsa yaqqol ko'zga tushlanadi.

Ilmiy texnika jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab turli-tuman omillar odamlarga tobora o'sib boruvchi me'yorlarda ta'sir ko'rsatadi. Bular sanoat rivoji yuzaga keltirgan zararli sabablar, abiotik va biotik vaziyatni o'zgartiruvchi sanoat chiqindilari, sanoatning, odamlarning shaharlarda to'planishi, demografik va boshqa omillar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bunday sharoitlarda mehnat va salomatlik dialektikasi muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatga nisbatan aniq tahlilni talab etadi. Ko'p hududlarda ekologik vaziyat kishilar salomatligining sifat va miqdor ko'rsatkichlari muayyan darajada yomonlashgani bilan tavsiflanadi, bu esa mamlakat mehnat kuchlari imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu o'tmishda sobiq ittifoq chegaralarida mamlakatda inson ekologiyasida ro'y bergan salbiy hodisalar oqibatidir. Ijtimoiy soha muammolariga bir yoqlama texnokratik yondashuv iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlarida band bo'lgan kishilarning salomatligiga, mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada bir necha o'n yillar mobaynida o'limning tez kamayishi va uzoq umr ko'rishning o'sishidan keyin "Bir joyda debsinish" ning uzoq cho'zilgan davri boshlandi. O'limning yuqoriligi saqlanib qoldi, ba'zi hollarda nisbatan yuqori o'lim darajasi, ayniqsa, ishchi yoshidagi erkaklarda o'sdi, o'lim va o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatning dunyodagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan ko'pchilik mamlakatlardan orqada qolishiga olib keldi. Sivilizatsiyaning yutuqlarini ta'minlay olishni hisobga olib taqqoslanganda erkaklar o'rtacha 10 yil, ayollar esa 7 yil kam yashaydigan bo'ldilar.

Ishchi yoshidagi aholi o'sishining tez sur'atlari bilan uning anchagina qismi sog'lig'ining past darajasi o'rtasida muayyan ziddiyatlar paydo bo'ladiki, bu mintaqa taraqqiyoti va aholisining imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sobiq SSSRda mehnat yoshidagi aholining qon aylanishi kasalliklaridan o'lishi 1970 yildagi 88 (100 ming kishiga hisoblaganda) foizdan 2002 yilda 120 foizga yetgan.

Ayni vaqtda AQShda xuddi shu davr mobaynida yurak kasalliklari oqibatida o'lingan hollari soni 30 foizga kamaygan, insultdan olamdan o'tish 40 foizga qisqargan.

Mamlakatimizning ba'zi hududlarida vujudga kelgan ekologiya bo'limi vaziyatining oldi olinmas ekan, maqbul mehnat sharoitini yaratish va aholi sog'ligini muhofaza qilish muammosini muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi. Bu hudud biosferasiga ekologik, antropogen ta'sir ko'rsatish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keyingi o'n besh yillikda inson hayot kechiradigan sharoitlarga sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va demografiya ko'rsatgan ta'sir yuklari (nagruzkasi) bir necha marta ko'paygan. Ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi tabiat boyliklarining barcha asosiy turlarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish jadalligi va atrof-muhitga chiqarib tashlanayotgan chiqindilar hajmining keskin ortayotgani inson salomatligi uchun katta muammolarning kelib chiqishiga sababchi bo'lmoqda.

Ma'lum hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari hal etilayotganda atrof-muhitni muhofaza qilish ta'minlanmagani ijtimoiy-ekologiya muvozanatining jiddiy ravishda buzulishiga va antropogeokimyoviy favqulodda holatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo havzasida noqulay ekologik holatlar vujudga keldi. Ya'ni bir qator nodir suv havzalarida suv sathi pasayishi avj oldi. Natijada ayni paytda Orol dengizi akvatoriyasi ikki marta qisqargan.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, malakasiz mehnat jabhalarida sanoat robotlarini qo'llash, moddiy ishlab chiqarishda fan-texnikaning roli oshib ketganligi mazkur omillar negizini tashkil etadi. Aholi hayot faoliyatining yanada qulayroq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va ijtimoiy-gigienik sharoitlarini ta'minlashda umuman mintaqa va mamlakat hududi bo'yicha odamlarni joylashtirish tizimini rejali shakllantirish O'zbekiston Respublikasi uchun, ayniqsa, dolzarbdir. Bu maqsadlarga erishish uchun inson ekologiyasida iqtisodiy, demografik va ijtimoiy-biologik jihatlar birligini nafaqat mintaqaviy, balki tarmoq darajasida ham takomillashtirish talab etiladi.

3.6. Inson ekologiyasida tarmoqlar darajasining xususiyatlari

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sanoat tarmoqlarini qayta qurish va texnika bilan qayta qurollantirishga ahamiyat berildi. Bu jarayon mintaqa uchun juda muhimdir. Zero, ko'pgina korxonalar Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'chirib keltirilgan zavodlar bazasida qurilgan. Harakatdagi ishlab chiqarishni yangilash ishlab chiqarish fondlari o'sishining yetakchi yo'nalishiga aylanmoqda. Chet el texnologiyalari kirib kelmoqda.

Mustaqillikkacha sanoat tarmoqlarining kattagina qismi texnika va texnologiya darajasi, sanitariya-gigiyena me'yorlari bo'yicha zamonaviy talablarga muvofiq kelmas edi. Qo'l mehnati, ishlab chiqarishni ekologik me'yorlarga muvofiqlashtirishning g'oyat past darajadaliği mintaqa xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga xos bo'lgan.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistonning ko'pgina yirik korxonalarida ishlab chiqarishni texnika jihatdan tubdan yangilash va o'zgartirishga erishilmoqda. Xalq xo'jaligini ilmiy-texnikaviy jihatdan isloh qilish mehnat jarayonining ijtimoiy-gigiyena, ekologiya va ergonomika ko'rinishlari majmuida uyg'un ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunda inson faoliyatini faollashtirishning muhim omili sifatida insondagi iqtisodiy va ijtimoiy biologik jihatlar uyg'unligini asos qilib olish maqsadga muvofiq.

Istiqbol rejalarga muvofiq Tojikiston hududida joylashgan alyumin zavodidan keladigan zaharli moddalarning oldini olish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 18.02.05 y., 09/116 – 24-sonli va 02.03.05 y. dagi 03/116 – 29-sonli qarorlarini bajarish yuzasidan chora va tadbirlar ishlab chiqilgan hamda u Vazirlar Mahkamasiga, Tashqi ishlar, Sog'liqni saqlash vazirliklari va gidrometeorologiya markaziga, shuningdek Surxondaryo viloyati hokimligiga yuborilgan. Mavjud ahvolni yaxshilash borasida qo'mita tomonidan bir qator ishlar olib borilmoqda.

3.7. Inson ekologiyasi, korxonalar, mehnat jamoasi darajalarining xususiyatlari

Inson hayot faoliyatidagi iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va ijtimoiy-biologik jihatlarning o'zaro munosabati har bir ishlab chiqarish jamoasi darajasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy korxonalar, bu – texnika va texnologiya, fan-texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlari – kompyuterlar va mikroprotsessorlar, robotlar va qayishqoq texnologiya tizimlari bilan jihozlangan qudratli ishlab chiqarish majmuidir.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish jarayonida inson ekologiyasi muammolariga oid keng ko'lamli tadbirlarni hisobga olib yondashish kerak: ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilash mintaqaning iqlim-geografik xususiyatlarini nazarda tutib, tabaqalashgan sanitariya-gigiyena normalarini qo'llash, mehnatni ilmiy tashkil etishni joriy qilish, mexanizatsiyalashgan oqimli va avtomat tizimlarini o'rnatish ana shunday tadbirlar qatoriga kiradi. Bunga Toshkent traktor zavodi, Toshkent aviatsiya zavodi ishlab chiqarish birlashmasi kabi yirik sanoat misol bo'la oladi.

Mehnat va inson salomatligining uyg'unligi o'zaro mehnat faoliyatida, inson ekologiyasi sanitariya-gigiyena ko'rinishlarini takomillashtirishda ham namoyon bo'ladi. "Mehnat muhofazasi" da tibbiyot vazifalarini tadbir qo'llash nazariy talqin qilish tadbirlarining ikki asosiy guruhini ajratib ko'rsatish lozim: "Mehnat sharoitlaridan insonlarga" va "Insondan mehnat sharoitlariga". Birinchi holatda insonning morfologiya-jismoniy va ruhiy-tuyg'u tavsiflari boshlang'ich o'zaro ta'sirning nisbatan doimiy elementlari deb qabul qilindi. Bu jarayon esa muayyan tashqi sharoitlarni talab qiladi. Bu uslubda yondashganda mehnat faoliyatini inson imkoniyatlariga muvofiqlashtirish vazifasi qo'yiladi. Ikkinchi holatda o'sha tavsiflar mehnat xarakterining o'zgarish darajasi, deb qabul qilinadi. Inson va muhitning o'zaro munosabatlariga bunday ikki tomonlama yondashuv

insonning hayot faoliyatida mehnat, iqtisodiy-ekologiya va ijtimoiy-biologik jihatlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtiradi.

Bobning qisqacha mazmuni

Insonning biosferaga ta'sir o'tkazishining keskin o'sganligi butun dunyoda ekologiyaga, uslubiy va amaliy ko'rinishlariga qiziqishni kuchaytirmoqda.

Inson ekologiyasiga ilmiy yondashish bir tomondan uning ham majmuiy, ham global xarakterini, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy ishlab chiqarish, fan-texnika, madaniyat taraqqiyoti o'sishining yanada umumiy jarayonlari bilan bog'liq.

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga (ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiyot-biologiya, ekologiya va h. k.) kompleks yondashish zarurati paydo bo'ldi.

Nazorat uchun savollar

1. Jamiyat bilan tabiatning o'zaro munosabatlari.
2. Hozirgi taraqqiyot va tabiatning o'zgarishi to'g'risidagi ilmiy qarashlar.
3. Inson ekologiyasida ijtimoiylik va hayotiylik deganda nimani tushunasiz?
4. Inson ekologiyasida mintaqaviy tarmoq nima?
5. Inson ekologiyasida ishlab chiqarish subyektlarining o'rni haqida nimalarni bilasiz?
6. Inson ekologiyasida hayotiylik deganda nimani tushunasiz?
7. Inson ekologiyasida ishchi o'rni darajasi haqida nimalarni bilasiz?
8. Inson ekologiyasida mehnat jamoasining darajasi deganda nimani tushunasiz?
9. Sanoat korxonalarining texnik-texnologiya darajasini gapirib bering.
10. O'zaro munosabatlar keskinlashuvi nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar, 2005 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T. O'zbekiston, 1997.
3. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Ekologiya. – T., 2004.
4. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. - T., 2004.
5. Abirqulov Q. N., Hojimatov A., Rajabov N. Atrof-muhit muhofazasi - T., 2004.
6. Банников А.Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. - М., 2000.
7. Гирусов Е. В. Экология и экономика природопользования. - М., 2002.
8. Макар С.В. Основы экономики природопользования. - М.: "ИМПЕ", 2002.

4-bob. Insonning ijtimoiy-biologik va ekologik imkoniyatlarini maqbul holatga keltirish muammolari

4.1. Fan-texnika rivojining inson sog'ligi va ongiga, ruhiy-jismoniy holatiga ta'siri

Ma'lumki, fan-texnika taraqqiyoti mehnat sharoitlarining mazmuni va shakllarida o'zgarishlarga olib keladi. Tor ixtisosli kasblar o'rnini boshqaruv, sozlash va mexanizatciyalashgan tizimlarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini o'zida uyg'unlashtiruvchi "keng tarmoqli" kasblar egallaydi. Yangi ishlab chiqarish turli xildagi mehnat faoliyatlarining birlashishiga olib keladi. Bu jarayon har bir ishchidan bugungi kun talablariga moslashishni, zamonaviy fizik-kimyoviy ishlab chiqarish, elektronika va informatika kabi fanlar asoslarini bilishni taqozo etadi.

Zamonaviy kadr yangi texnologik qurilmalar majmuining ishlash mexanizmlari ularning ishdan chiqishi mehnat jamoasi va jamiyat uchun katta iqtisodiy zarar ekanini tushunishi lozim. Ayni paytda uskunalar, kasblarning yangi turlarini o'zlashtirib olishga tayyor bo'lishi kerak. Bu omillarning barchasi kishi tanasi va ongining ruhiy-jismoniy holatiga jiddiy ta'sir qiladi. Fan va texnika taraqqiyoti tufayli sodir bo'ladigan ijtimoiy o'zgarishlar faqat avtomatlashtirish oqibatida emas, ishlab chiqarish operatsiyalarini kompleks mexanizatsiyalash, ularni maqbul tarzda tashkil etish va boshqa ko'plab jarayonlar natijasida yuzaga keladi. Demak, ko'rinib turibdiki, ilmiy-texnikadagi o'zgarishlar ishlab chiqarish kuchlari tizimiga tadbiiq qilinar ekan, bu jarayon asosiy ishlab chiqarish kuchi hisoblangan insonga, uning ruhiy, jismoniy imkoniyatlariga, mehnat layoqatiga ham bog'liq.

Bunday ta'sirchan insoniy omil ko'pincha ijtimoiy-ekologik va tibbiyot yo'nalishlarida o'rganilmog'i zarur. Hozirgi sharoitda mehnatda texnologik va ruhiy-jismoniy jarayonlarning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayoni ishchilar salomatligini shakllantirishda yangi muammolar keltirib chiqaradi: ishlab chiqarishdagi tez o'zgarayotgan sharoitlar insonning ijtimoiy-kasb mavqei o'zgarishga moyilligini yuzaga keltirishini hisobga olib texnologik jarayonning ruhiy-jismoniy, psixologik, ijtimoiy, gigienik o'lchovlarni tubdan o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bosqichida aholi salomatligi tushunchasi yangi mazmun kasb etayapti. Inson faoliyatning makon, davr o'lchovlari jiddiy kengayishi, hozirgi yuzaga kelgan ekologik vaziyat salomatlik saviyasini belgilab olish, inson tanasining ruhiy-jismoniy maqbul holatlari me'yorini oydinlashtirish vazifasini ilgari suradi.

Insonlarning salomatligi insonparvarlik va halq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Salomatlik imkoniyatlarini aniqlash hududlarning iqlimiy-geografik sharoitlari, mintaqaviy rivojlanishdagi o'ziga xosliklar, aholi turmush tarzi, ustuvor sohalardagi texnologik salohiyat, ishlab chiqarish imkoniyatlarining texnik o'lchovlari insonning antropometrik va ruhiy-jismoniy imkoniyatlariga muvofiqligini hisobga olgan holda hayotga tatbiq etilishini taqozo qiladi.

Jamiyatdagi turli ijtimoiy va demografik guruhlarning salomatligini aniq nazorat qilish kerak. Bu aholi turmush tarzining yaxshilanishi, mehnat qilish, aholining turli qatlamlari ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim vazifaga aylanmog'i joiz. Aholining turli toifalarining salomatligini muhofaza qilish masalalarini samarali hal etish salomatlikka doir ko'rsatkichlarga baho berishda hududiy o'lchovlar va mezonlar ishlab chiqish zaruratini tug'dirmoqda.

Jamiyatda "sog'lom kishi" tushunchasini toifalarga bo'lgan holda, u aholi mamlakatning turli hududlarida istiqomat qilishlari bilan ham belgilanishi zarurligi ta'kidlanadi. Tog' hududlarida yashaydigan sog'lom kishi va cho'l yoki boshqa hududlardagi sog'lom kishini bir xil tushunchalarda izohlab bo'lmaydi. Har bir mintaqada ularning faoliyat yo'nalishi va turmush tarzi bir-biriga o'xshamaydi.

Mamlakatimiz hududi demografik xususiyatining o'ziga xosligi fan-texnika taraqqiyoti sharoitlarida jamiyatni modernizatsiyalash, mehnat va aholi salomatligining ijtimoiy-gigienik, ruhiy-ijtimoiy jihatlarini har tomonlama o'rganish asosida mehnat jarayonini maqbul holatga keltirish muammosiga kompleks yondashishni taqozo etadi.

Fan-texnika taraqqiyotini ishlab chiqarishga keng joriy qilishda mehnat jarayonini gigienik va ijtimoiy-ekologik maqbullashtirish bo'yicha asosiy omillar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

I. Obyektiv omillar:

- ijtimoiy-texnologik;
- texnikaviy-texnologik;
- ekologik;
- morfofiziologik.

II. Subyektiv omillar:

- tashkiliy-boshqaruv;
- sog'liqni muhofaza qilishga oid;
- aksiologik (shaxsiy mayl);
- ruhiy.

Ushbu omillar yanada takomillashgan va rivojlangan sari, mehnat jarayonini maqbul holatga keltirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Inson salomatligi ko'p jihatdan uning turmush faoliyatiga, mehnat jarayoniga bog'liq. Bu vazifalarni hal etishda fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishida yuzaga keladigan salbiy-ijtimoiy, ekologik, texnikaviy-texnologik omillarni aniqlab, asta-sekin bartaraf etish muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy xodimning ruhiy-jismoniy mavqeiga, mehnati sifatiga ta'sir ko'rsatadigan subyektiv omillar ichida ishlab chiqarishga mehnatni muhofaza qilish, mexanizmlar, uskunalar, asboblarning holati ham ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda muhofaza-sog'lomlashtirish tadbirlari uchun ishlatilayotgan mablag'lar

hajmi yetarli emas. Shu bois ishlab chiqarishda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lar hajmini oshirish zarur.

4.2. Iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat jarayoni va ularning inson salomatligi va mehnat unumdorligiga ta'siri

Ma'lumki, og'ir mehnat sharoiti turli kasalliklarni vujudga keltiradi, ish vaqtini boy berish hollarini ko'paytiradi va kadrlar qo'nimsizligiga asosiy sabab bo'ladi. Mehnat sharoitlarini har tomonlama yaxshilash vazifasi tobora ijtimoiy-iqtisodiy tus olib, uni hal etish uchun bu sohada boshqaruv mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. Shu o'rinda mehnat jarayonini, uning tashkiliy-boshqaruv jihatlarini optimallashtirish bilan bog'liq obyektiv omillar birinchi o'ringa chiqadi. Mehnat sharoitlarini tartibga solish, xavfsizlik o'lchovlarini ishlab chiqish bo'yicha yaxlit tizim yaratilishini taqozo etadi.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallashishi inson mehnat faoliyati jarayonida barqarorlikni ta'minlaydigan maqbul biologik-ijtimoiy chegaralami aniqlash vazifasini ilgari suradi. Bu vazifani hal etish mehnat sharoitining ijtimoiy maqbul jihatlarini ilmiy ravishda oldindan aniqlash yo'llari va obyektiv mezonlari bo'lishini talab qiladi. Bu mezonlar asosan mehnat jarayonini maqbullashtirishning yuqoridagi, toifalarga bo'lingan omillaridan kelib chiqadi.

Respublikamiz sog'liqni saqlash tashkilotlarining ma'lumotlariga qaraganda, aksariyat korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilinmaydi. Shovqin-suron, titrash, chang darajasi belgilangan me'yordan ham 5-10 marta ortiqdir.

Baxtsiz hodisa, zaharlanish yoki jarohat olish ehtimoli mamlakatimiz ishlab chiqarish jarayonida rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ko'p. Aziyat chekkanlarning ko'pchiligini qutqarib qolishadi, lekin bunday vaziyatlar sonini kamaytirish eng samarali yo'ldir. Bu vazifani hal qilishda tibbiyot ham qatnashishi mumkin va zarur. Bu yo'nalishda rivojlangan mamlakatlarda samarali tajribalar

to'plangan. Masalan, AQSh mashinasozlik firmalari texnika xavfsizligi qoidalarini kuchaytirib, mehnatni muhofaza qilish maqsadlariga salmoqli mablag'lar ajratishmoqda. Bu mablag'lar manbai asosan baxtsiz hodisalar aybdorlari va ularni keltirib chiqarish mumkin bo'lgan shaxslar, texnika xavfsizligiga rioya qilmaydiganlardan olinadigan jarimadir.

Ishlab chiqarishni yuksak darajada avtomatlashtirish va texnologik asbob-uskunalarining puxtaligi ham jarohatlar sonini qisqartirishda muhim omildir. Mashinasozlik tarmoqlarida texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishdagi jarohatlanish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. O'tgan asrning oxirida O'zbekistonda sanoat korxonalarining 50%dan ko'prog'ida yangi texnika joriy qilinmagan. Aniq bir dalil: 96 ta robotlashtirilgan komplekslardan beshtadan biri ishlamas edi. Ayni chog'da esa xo'jalik hisobi va o'zini mablag' bilan ta'minlash mehnat jarayonini optimallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan qator korxonalar ham bor. Masalan, yangi tashkil etilgan qo'shma korxonalarda, Toshkent traktor zavodida mehnat va salomatlik samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy omillari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan mehnat sharoitlarini yaxshilash, qo'l mehnati va og'ir yumushlarni mexanizatsiyalash bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi natijasida ishlab chiqarishda kasallanish 22% ga kamaydi. Ko'rinib turibdiki, mehnat jarayonini maqbullashtirishning obyektiv va subyektiv omillarini kompleks ta'minlash jamoaga xodimlarining salomatligini muhofaza qilish, mehnat potensialini saqlab qolishda ijobiy natijalar keltirishi muqarrardir.

Mehnat jarayonida insonning biologik-ijtimoiy imkoniyatlarini muvaffaqiyatli tarzda optimallashtirishni ta'minlagan bunday misollar ko'p. Bu, ayniqsa, mintaqaning agrosanoat majmui uchun xarakterlidir. O'zbekiston aholisining uchdan ikki qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Mehnatga layoqatli aholining katta qismi, ya'ni 40% aholi paxtachilik bilan band. Mehnat sharoitlari, ekologik ahvol, qo'llaniladigan mashina va mexanizmlar mintaqalarda mehnat

sharoitlari imkoniyatlari biologik-ijtimoiy imkoniyatlariga doimo mos kelavermaydi.

O'zbekiston Respublikasi aholi morfologik tavsifini o'rganish shundan dalolat beradiki, o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar va turkmanlar jismoniy tipga ko'ra yevropoid irqining shaxobchalaridan biriga mansubdir. Tadqiq qilinayotgan guruhlar qiyosiga ko'ra rus aholisi katta yevropoid irqi sanaluvchi o'rta yevropa irqiga mansubdir. Sobiq Sovetlar ittifoqida mintaqalarning agrosanoat majmuasida qo'llaniladigan qishloq xo'jalik texnikasi qishloq mehnatkashlarining antropometrik jihatlariga mos kelmas edi. Mehnat unumdorligining pastligi, ko'plab xastaliklarning yuzaga kelish sabablari ham shunga bog'liq.

Ergonomik talablar hisobga olingan holda ish joyi jihozlanadigan bo'lsa, mehnat unumdorligi 60% ortadi. Shuningdek, ish paytida qomatni to'g'ri tutish, ish harakatlarini to'g'ri bajarish unumdorlikni 25% gacha oshiradi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mexanizatorlar organizmining funksional holati ish kuni davomida gemodinamik ko'rsatkichlarni jiddiy yomonlashtiradi, markaziy asab tizimi ishini ancha zo'riqtiradi, qo'rquv analizatori, asab-mushak apparatini zo'riqtiradi.

Ilmiy tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligida traktorchilarning 74,9% u yoki bu surunkali xastaliklardan aziyat chekarkan. Bu xastaliklar orasida nafas olish, oshqozon-ichak yo'llari kasalliklari, bod yetakchi o'rinni egallaydi. Xo'jalik rahbarlarida u yoki bu surunkali kasalliklar borligi aniqlangan. Mehnat xarakteri va sharoitlarini belgilovchi ko'rsatkichlar tahlili g'o'zaga ishlov berish va yig'im-terim bilan mashg'ul mexanizator mehnatining og'irligi va zo'riqish jihatdan IV toifaga mansub. Bu toifaga xos belgilar havoning chang to'zondan ifloslanganligi va shovqinning ko'pligi, shuningdek, mexanik ishning qudratini o'z ichiga oladi. Inson sa'y-harakatining yuqori nuqtasi, ish holati, zo'riqish omillari, yurak-qon tomir va asab, mushak tizimlari holati ko'rsatkichlari, shuningdek, sarflanadigan quvvatga ko'ra, mexanizatorlar mehnatini III toifaga bo'lish mumkin. IV toifadagi

mehnat, ya'ni juda og'ir va zo'riqtiradigan mehnat tananing moslashish-qoplash imkoniyatlarini izdan chiqarishi bilan tavsiflanadi.

Yaqin o'tmishda paxtachilik texnikalarida ishlash sharoitining noqulayligi tufayli xotin-qizlar mehnatidan foydalanish jarayonida barcha ishlab chiqarish omillari ayollar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Jismoniy-morfologik o'ziga xosliklar tufayli ayollarning tanasi ekologik salbiy omillarga ta'sirchan ekanligini hisobga olsak, ko'plab ishlab chiqarilgan traktorlar va paxta terish mashinalarida ishlash ayol salomatligiga salbiy ta'sir qildi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari orasida g'o'zaga ishlov berish bilan band bo'lgan erkak mexanizator salomatligi ahvolini o'rganish natijalari shuni ham ko'rsatadiki, salomatlik ko'p jihatdan bajarilayotgan ishning xarakteriga bog'liq ekan. Traktor haydovchilarning ish staji oshgan sari ularning nafas olish a'zolari xastaliklari bilan og'rishi kuchaya borishi aniqlangan. Asab tizimi, titrash kasalliklari har xil turtkilash, noqulay yasalgan o'rindiq, qomatni tegishlicha tutish zarurati, boshqaruv dastklariga katta kuch ishlatish natijasida rivojlanadi. Radikulit bilan og'rish o'n yil ishlagandan keyin ko'zga tashlanar ekan.

Ekologik ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, traktor haydovchilarining xastalanishlari mavsumiy xarakterga ega bo'lib, yilning ish qizg'in paytlarida orta boradi. Yoshi ulg'aygan sari traktorchilar o'rtasida xastalanish ko'rsatkichi ham ortib borar ekan. Har yuz traktorchiga hisoblaganda bir yilda 214 soatdan 1469 soatgacha ish kuni boy berilishi aniqlangan.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi uchun ishlatiladigan mashina va mexanizmlarining texnik o'lchovlarini ergonomik va sanitariya-giygiyena talablari asosida o'rganish orqali ishlab chiqarishga joriy etish zarur. O'zbekiston iqlim sharoitining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda mashinalarni takomillashtirish mehnatkashlar salomatligini muhofaza qilish uchun ham, mehnat unumdorligini oshirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-ekologik tizimi sharoitlarida inson ekologiyasini kompleks tadqiq qilishni taqozo etadi.

Inson manfaatlarini ko'zda tutgan holda mehnat jarayonini maqbul holatga keltirish, inson-mashina tizimini takomillashtirishni taqozo etib, bu tizim ikkita shaxobcha – inson va mashinalarni o'z ichiga oladi.

4.3. Insonning biologik va ijtimoiy moslashishi to'g'risida umumiy tushunchalar

Fan-texnika rivoji kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishida qonuniy jarayon bo'lgan inson va tabiat munosabatlarida sifat jihatidan yangi bosqichdir. Ayni chog'da u bir qator yangi muammolarni yuzaga keltiradiki, ular orasida insonning ijtimoiy va biologik moslashuvi, ya'ni adaptatsiyasi muhim o'rin tutadi.

Yangi iqtisodiy sharoitda yashayotgan insoniyatning bugungi turmush tarzi fan-texnika yangiliklari endigina ildiz ota boshlagan sanoat to'ntarishlari davridagi sharoitdan jiddiy farqlanadi. Kishilarga fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq ko'plab omillar katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Inson jonivorlardan farqli ravishda faqat tabiiy muhitdan foydalanib qolmasdan, o'zining yashashi uchun uni ma'lum darajada o'zgartirishga qodir. Ijtimoiy kuzatishlar natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi yangi muhit insonning biologik-ijtimoiy tabiatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning biologik potentsiali va moslashish qobiliyatlari saviyasiga sezilarli ta'sir etadi.

Biologik-ijtimoiy evolyutsiya jarayonida biologik moslashuv mexanizmlaridan tashqari insonda yangi adaptatsiya vositalari yuzaga keldi. Ular faqat morfofiziologik jihatlar va fe'l-atvor orqaligina emas, avvalo kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik va boshqa munosabatlarni qayta qurish asosida tashkil topadi. Bunday moslashishni "ijtimoiy adaptatsiya" deyiladi. Inson tabiatining va ijtimoiy mohiyatining dialektik birligi uning ham ijtimoiy, ham biologik jihatdan moslashish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lgan organizmlarning mavjud shart-sharoitlarga moslashuvi tirik mavjudotning atrof-muhitdagi o'zgarishlariga mos

ravishda ko'nikish jarayonidan iboratdir. Moslashish-ko'nikish jarayonlari inson turmush tarzida, tafakkurida barqarorlashgan va biologik birligi o'zaro aloqalari asosida sodir bo'ladi. Inson moslashishning umumbiologik qonuniyatlari bilan birga o'zining ijtimoiy mohiyatini ko'rsatuvchi ko'nikish imkoniyatlariga ham egadir.

Fan-texnika inqilobi yutuqlarida koinotni, dengiz tublarini, qutb hududlarini, cho'llarni, o'zlashtirish bilan birga, boshqa bir qator omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday moslashish muammolarini tadqiq qilish ayni paytda muhim va zarurdir. Bu masalalar Xalqaro ilmiy jamoatchilik e'tiborini jalb qilgani bois Xalqaro biologik dasturda ham o'z aksini topdi.

Olimlar ijtimoiy ko'nikishning fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy omillarini, shuningdek ko'nikish mexanizmi bo'yicha ijtimoiy moslashish zarurligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar ijtimoiy moslashish tushunchasini quyidagicha ta'riflashni taklif qilishgan: "Ijtimoiy moslashish shaxs yoki ijtimoiy guruhning o'zgarishidagi shunday jarayonki, bu jarayon ularning mavjud ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy me'yorlar, qadr-qimmat tushunchalarini aks ettirgani holda, tabiiy muhitga mos kelib qolmasdan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarishning rivojlanish saviyasiga mos ravishda muayyan tarzda qayta qurishni taqozo etadi". Ijtimoiy moslashishning bunday ta'rifi inson faoliyatining ikki jihatini aks ettiradi. Ushbu faoliyat moslashish xossalarini inkor etmagan holda bunyodkorlik xususiyatiga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish ehtiyojlarining jamiyat oldiga ham ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish saviyasiga mos kelishi muammosini har tomonlama tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqaruvchi subyekt va ishlab chiqarish munosabatlari birligi ijtimoiy moslashish tushunchasini yanada kengroq belgilab olishni talab qiladi.

Keng miqyosdagi ijtimoiy moslashish jamiyatdagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch-inson, ijtimoiy guruh bilan ishlab chiqarish munosabatlari va

tegishli ustqurma ko'rinishlarining dialektik birligini ta'minlash va bu boradagi ziddiyatlarni hal etishdan iborat. Ustqurma shaxsning moddiy, ma'naviy ehtiyojlari rivojlanishi va uning biologik-ijtimoiy tabiatiga ko'ra o'zgarib boradi.

Ijtimoiy va biologik jihatdan insonning ko'nikish imkoniyatlaridagi keskin o'zgarishlar ko'plab kasalliklarning yuzaga kelishi va ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bunga dunyo miqyosida parranda grippi kasalligining tarqalishi misol bo'ladi. Fan-texnika rivoji keng quloch yozayotgan pallada mehnat va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ijtimoiy-ekologik va texnologik yo'nalishlarda yangi-yangi muammolar tug'dirmoqdaki, bu insoning ijtimoiy va biologik faoliyatida turli ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

4.4. Ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarishining inson moslashishiga ta'siri

Jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlangan sari ishlab chiqarish munosabatlari ham o'zgaradi. Bunday sharoitda inson omilining roli ortib, uning moslashish-bunyodkorlik imkoniyatlari kuchayadi. Inson omilini faollashtirishning muhim shartlaridan biri bo'lgan ijtimoiy moslashish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmlari ustunliklari bilan uyg'unlashadigan sharoitlarda muvaffaqiyatli amalga oshadi. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish insonning biologik-ijtimoiy tabiati atrof-muhitga moslashishi uchun tamoman yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib, uning jismoniy va intellektual imkoniyatlariga ta'sir etadi.

Insonning moslashish muammosini uning ijtimoiy va biologik jihatlarini yaxlitligi asosida o'rganish lozim. Ijtimoiy va ruhiy-jismoniy moslashishlar o'zaro bog'liq jarayondir. Ular orasidagi o'zaro ta'sir tufayli bu jarayonlar inson turmush tarzining barcha ijtimoiy va tabiiy-biologik tomonlarini qamrab oladi va ayni paytda, atrof-muhitga bog'liq bo'ladi.

Barcha tirik mavjudotning atrof-muhit bilan munosbatalarida tashqi muhitning organizmga salbiy ta'siri organizm faoliyati uchun zarur resurslarni olish, atrof-muhitni o'zgartirish xususida sirdan olinayotgan ma'lumotlarga munosabat asosiy unsur hisoblanadi. Noorganik muhit barcha organizmlarga yaxlit tarzda ta'sir ko'rsatadi. Ayni chog'da har bir toifadagi mavjudot va alohida organizm ham noorganik, ham organik tabiiy muhitning ta'sirida bo'ladi.

Insonlar tomonidan muayyan tajribalarning o'zlashtirilishi ularning atrof-muhitga munosabatida o'ziga xoslikni shakllantirgan. Genotipda o'ziga xos instinktiv shakllarda bu muhitni o'zlashtirish va idrok qilishning yo'qligi insonning muhitga munosabatini, uning tabiiy o'ziga xosligini keltirib chiqaradi. Insonning fe'l-atvori azaldan muhitga moslashmagan, harakatlari muhit tomonidan uzil-kesil belgilab qo'yilgan emas, balki shaxsiy tajriba orttirish mobaynida muhitga moslashadi. Shunga muvofiq insoniyatning genetik jamg'armasi ijtimoiy faoliyat davomida o'zini namoyon etadi, tabiiy layoqotlarning ongli faoliyatga aylanishi davomida insoniy madaniyat shakllanadi va tabiatni yanada o'zgartirish uchun asos yaratadi. Ushbu jarayon insonning biologik rang-barangligini kengaytirishga olib kelsada, u ijtimoiy omillar, ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari ta'siri bilan belgilanadi. Shuni aytish lozimki, u faqat biologik ko'rinishda emas, balki mazmunga ko'ra, fan-texnika va jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti bilan belgilanadigan ijtimoiy jarayon hisoblanadi.

Tabiatda biologik moslashish o'rniga, insoniyat taraqqiyoti yetakchi o'rinni egallagan ijtimoiy ko'nikish insonning tabiiy va ijtimoiy muhitga faol munosbatidir. Lekin inson faoliyati ijtimoiy va biologik jihatlarning yaxlit holda biologik moslashishi ham alohida o'ringa ega.

Barcha tirik mavjudotlar hayotiga asos bo'luvchi biologik jarayonlarni inkor qilib bo'lmaydi. Inson tanasi bu jarayonlarga bo'ysunar ekan, biologik moslashishni boshdan kechiradi. Insonning zot sifatidagi biologiyasi ijtimoiy munosabatlar rivojlangan va atrof-muhitdagi sharoitlar o'zgargan sari takomillashib, organizmning sharoitlarga moslashishida o'z aksini topadi.

4.5. Inson xastalanishining tabiiy-ijtimoiy sharoitga moslashish bilan bog'liqligi va ularning xususiyatlari

Inson o'zining ijtimoiy-tarixiy faol faoliyati bilan farqlanuvchi tirik jonzotdir. Ijtimoiy jihatdan yalpi ustuvorlik inson anatomiyasi va fiziologiyasining barcha jihatlariga tegishli hisoblanadi. Insonlarning moslashishini tabiiy holda va nuqsonli holatda "ijtimoiy biologik" jarayon deb qaraydigan bo'lsak, u holda "biologik-ijtimoiy" tushunchasini ma'no jihatdan bir-biriga so'zsiz, qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Inson tanasida biologik xususiyatlar ijtimoiy jihatlarni belgilamay, balki ijtimoiy jihat biologik tomonlarni belgilaydi. Ana shunday yondashish kasallikning yuzaga kelishini atrof-muhit va ijtimoiy sharoitdagi yetakchi omillar belgilaydigan hodisa sifatida idrok qilish imkonini beradi.

Har qanday jamiyatning katta boyligi inson salomatligidir. Bu sohada ilmfan turli sohalarining o'zaro hamkorligi juda muhim. Chunki mehnat va turmush sharoitlarini eng maqbul sog'lom holatga keltirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bo'sh vaqtni oqilona tashkil qilish lozim. Ya'ni, kasalliklarning oldini olish va davolashda ham ijtimoiy, ham tabiiy omillarni hisobga olish kerak. Inson salomatligi tabiatning sog'lomligi, atrof-muhitning musaffoligi bilan uzviy bog'liqdir.

Inson adaptatsiyasi, uning salomatligi va xastaliklariga "biologik" yoki "biologik-ijtimoiy" hodisa sifatida yondashishning boshqacha shakllari ham mavjud. Bunday yondashuv mavjudotning quyi shaklidan yuqori ijtimoiy shakl tomon harakatini inkor qiladi.

Inson xastaliklari ekologiyasi va patogenezi o'zgarishi, ba'zi xastaliklarning yo'qolib ketishi yoxud ko'payib ketishi yoki boshqalarining yuzaga kelishi o'z xolicha yuz beradigan jarayon emas. Bu hodisalarning barchasi ijtimoiy sharoit taqozosidir. Olimlarning ta'kidlashicha, allergik xastaliklar ko'payib ketishining sababi behalovatlik, shoshmashosharlik va zo'riqishlar natijasida

vegetativ asab tizimining o'jizlanishi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarning ko'payganligi, shuningdek tashqi omillar ta'siri kuchayishidir.

Shaharlar havosini bulg'aydigan sanoat chiqindilari nafas olish yo'llariga shikast yetkazadi. Farmatsevtika sanoati yetkazib berayotgan dori-darmonlarni ko'p miqdorda ishlatish, ovqatlanishda tabiiy moddalari kamaygan konserva holdagi taomlarni ko'p yeyish, sun'iy achchiq-chuchuklardan foydalanish, hashoratlarga qarshi kurashishda zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash natijasida ular oziq-ovqat mahsulotlariga o'tib, turli xastaliklar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Inson omilining tabiatga ta'siri odamlar tanasida yuz berayotgan o'zgarishlardan juda ilgarilab ketgan. Natijada ijtimoiy-ekologik talablar bilan inson imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Bularning hammasi hozirgi davr kishilarining xastaliklarida namoyon bo'ladi. Turmushning yangi sharoitlari hozirgi davr kishisidagi nomaqbul o'zgarishlarning mohiyatiga ta'sir qiladi. O'tmishda patologiya mohiyati hali buzilgan tabiatning noqulay ta'siri bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi paytda insonning o'zi o'zgartirgan tabiiy sharoitlar ta'siri oqibatiga giriftor bo'layapti.

Endilikda "biosferaning moslashish mexazimlari" tugab bitish arafasida bo'lib, ba'zi hollarda muayyan chegaradan chiqmoqda. Shu asnoda, tuzatib bo'lmaydigan salbiy o'zgarishlar yuz berib, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, insoniyat uchun halokatli oqibatlarga olib kelmoqda. Demakki, inson organizmi atrof-muhitning tez sur'atlarda o'zgarishiga moslashmagan.

4.6. Fan-texnika taraqqiyoti rivojining inson ekologiyasiga ta'sir turlari va vujudga kelayotgan muammolarni yechish

Fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi tufayli yuzaga kelayotgan ko'plab omillar hozirgi davr fauna va florasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoatning rivojlanishi oqibatida yuzaga kelgan zararli unsurlar, biogeosenozlarni

o'zgartiruvchi ishlab chiqarish qoldiqlari, urbanizatsiyaning mukammallashuvi kabi jarayonlar insonning turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo'lmoqda.

Ekologik o'zgarishlar jadallashganda tirik organizmlarning faoliyati moslashish imkoniyatlari bilan inson mavjud bo'lgan va o'zgarayotgan muhit o'rtasida muayyan ziddiyatlar kelib chiqmoqda. Bu tananing biologik evolyutsiya taraqqiyoti davomida shakllangan o'lchovlari antogenetik o'ziga xosliklari bilan ekologik shart-sharoitda yuz berayotgan o'zgarishlarga mos tarzda ko'nikma olmasligi o'rtasida yuzaga kelgan nomuvofiqlik oqibatidir. Bu esa hozirgi insonlarning xastalanishiga juda katta ta'sir etmoqda. Aniqroq aytganda fan-texnika taraqqiyoti insoniyatga farovonlik keltirishi bilan birga, ayni chog'da o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarni o'z vaqtida va oqilona hal qilish ko'p jihatdan inson va tabiatning kelajagini, fan-texnika taraqqiyotining istiqbolini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan tadqiqotchilarning fan-texnika inqilobi bilan bog'liq ravishda "degumanizatsiya", "dezadaptatsiya" va "inson begonalashuvchi" haqidagi qator nazariyalari e'tiborga molikdir. Xorijiy olimlarning fikricha, XX asrning oxirida yuzaga kelgan "ijtimoiy dezadaptatsiya" nazariyasi shunday ta'limotlardan biridir. Bu ta'limot mualliflari g'arb tibbiyot va tibbiy sotsiologiyasi vakillaridir. Lekin bu ta'limot ko'plab muammolarni qamrab olgani uchun fanlar doirasiga sig'maydi. Ushbu nazariyaning qator yo'nalishlari yurak-qon tomir, asab xastaliklari, xavfli o'simtalar, ogir tan jarohatlari va patologiya kabi kasalliklarning yuzaga kelishi va jadal yoyilishining bosh sababi va sharti, ayni chog'da fan-texnika taraqqiyoti deb tushuniladi.

"Ijtimoiy dezadaptatsiya" nazariyasiga ko'ra, xastalik insonning uni o'rab turgan biologik va ijtimoiy muhitga ko'nikishida yuz bergan hodisadir. "Ijtimoiy dezadaptatsiya"ning asosiy sababi hozirgi davr kishisining yashash sharoitlari bilan zot sifatidagi shakllanish o'rtasida nomuvofiqlikning chuqurlashib ketganligi bilan bog'liq. Insonning tabiat qo'ynidan ajralib chiqishi u zot sifatida ega bo'lgan "tabiiy me'yorlar" bilan nomuvofiqlikka olib keladi va o'z navbatida fiziologik

buzilishlar va xastaliklar kuchayishiga sababchi bo'ladi. Yuqoridagi mualliflarning fikricha, ijtimoiy antiadaptatsiya shunday namoyon bo'ladiki, zamonaviy sivilizatsiya rivojlangan sayin ijtimoiy muhitning insoniyatga begonaligi yaqqol sezilmoqda.

Ilgari surilgan konsepsiyada ijtimoiy maromlarni bartaraf etish yoki chetlab o'tish zaruratiga asosiy urg'u berilgan. Aynan ijtimoiy me'yorlar, aniqrog'i, ularning tartibga tushmagan ekvivalentlari inson uchun nomaqbul hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, xastaliklar sabablarining konsepsiyasi namoyon bo'lib, unda me'yorlarning nomuvofiqligi asosiy omil hisoblanadi. Insonning tabiiy hayoti maromlari va madaniylashgan jamiyat yuzaga keltirgan yangi turmush tarzi me'yorlari o'rtasidagi nomuvofiqlik patologik holatlarning ko'p uchrovchi va umumiy ko'rinishidir.

Yangi davr xastaliklari, ijtimoiy dezadaptatsiya, degeneratsiya kabi nazariyalarni tanqidiy tahlil qilish zarur. Ularda inson faoliyatining ijtimoiy va biologik jihatlari obyektiv aks etgan.

Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish insonning ruhiy-jismoniy jihatlarni qayta tiklashning yangi o'lchovlarini ilgari suradi. Kompyuterlar va mikroprotsessolar, texnologik liniyalar va robototexnika, umuman fan-texnikaning so'ngi yutuqlari insoniyatdan o'z rivojlanishi sur'atlariga mos ruhiy-jismoniy faollikni talab etadi. Ma'lumki, inson salomatligi o'zgaruvchan jarayon bo'lib, uning sifat va miqdor jihatlari o'zi yashab turgan muhitga mos ravishda o'zgarib turadi.

Bobning qisqacha mazmuni

Fan-texnika taraqqiyoti inson mehnatining mazmuni va shakllariga mos o'zgarishlarga olib keladi.

Tor ixtisosli kasblar o'rnini boshqaruv, sozlash va mexanizatsiyalashgan tizimlarda xizmat ko'rsatish funksiyalarini o'zida uyg'unlashtiruvchi "keng tarmoqli" kasblar egallaydi.

Salomatlik imkoniyatlarini aniqlash hududlarning iqlimiy-geografik sharoitlari, rivojlanishdagi o'ziga xosliklar, aholi turmush tarzi, ilmiy-texnika inqilobi ustuvor sohalaridagi texnologik jarayon, ishlab chiqarish imkoniyatlarining texnik o'lchovlari insonning antropometrik va ruhiy-jismoniy imkoniyatlariga muvofiqligini hisobga olgan holda hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

FTT ni ishlab chiqarishda keng joriy qilishda mehnat jarayonini gigienik va ijtimoiy-ekologik maqbullashtirish bo'yicha asosiy omillar obyektiv va subektiv guruhlarga bo'linadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fan-texnika taraqqiyoti inson ongi, ruhiy va jismoniy holatiga qanday ta'sir ko'rstadi?
2. Mehnat jarayoni iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha qanday olib boriladi?
3. Insonning biologik va ijtimoiy moslashish tushunchasi nima?
4. Ishlab chiqarish va uning moslashuvi nima?
5. Inson xastaligining tabiiy-ijtimoiy sharoitga moslashish bilan bog'liqligi va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Hozirgi davrda taraqqiyot yaratayotgan ijtimoiy muammolar nimalardan iborat?
7. Urbanizatsiya ta'sirida qanday ekologik vaziyatlar sodir bo'ladi?
8. Yirik shaharlardagi mavjud qanday ekologik muammolarni bilasiz?
9. Aholi soni o'sishining atrof - muhit holatiga qanday ta'siri bor?
10. Urbanizatsiya jarayonining inson salomatligiga ta'siri qay tarzda namoyon bo'ladi?
11. Sanoat shaharlarida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so’zi. 2 yanvar, 2005 y.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T. O’zbekiston, 1997.
3. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Ekologiya. – T., 2004.
4. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. - T., 2004.
5. Abirqulov Q. N., Hojimatov A., Rajabov N. Atrof-muhit muhofazasi - T., 2004.
6. Банников А.Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. - М., 2000.
7. Гирусов Е. В. Экология и экономика природопользования. - М., 2002.
8. Макар С.В. Основы экономики природопользования. - М.: “ИМПЕ”, 2002.
9. Маврихов В.В. общая экология. Новое знание. 2005.
10. Доклад «первые десять лет» РКИК. ООН. 2004.
11. Рыночные методы управления окружающей среды. Уч. пос -М., 2002.
12. Степановских А.С. Прикладная экология. – М.: ЮНИТИ, 2003.

5-bob. Ijtimoiy ekologik muammolar turlari

5.1. Ijtimoiy-ekologik muammolar va ularga ta'sir etuvchi omillar

Ijtimoiy-ekologik muammolar umumbashariy, mintaqaviy va hududiy muammolarga bo'linadi.

Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolar mintaqaviy-ijtimoiy ekotizimlar elementlari va alohida mintaqalarni qamrab oluvchi muayyan chegaralarga ega.

Ekologiyaning mintaqaviy muammolarini o'rganish turli mintaqalarda insonning xo'jalik yuritish faoliyati natijasida yuzaga kelgan tabiiy va ijtimoiy sharoitlarni umumlashtirib baholash, noqulay ijtimoiy-ekologik muammolarning belgilarini aniqlash imkonini beradi. Bunday baholash uchun tabiiy muhit iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli mintaqadagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir xarita, statistika va ilmiy adabiyotlardan foydalaniladi.

Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolarga baho berishga havo va suvning bulg'anganligi, belgilangan chegara konsentratsiyasi, tuproqeroziyashtiruvchi yaylovlarning ishdan chiqishi, o't-o'lanlar va yashil massaning kamayishi, daraxtlarni kesish singari me'zonlardan kelib chiqadi. Mintaqaga qarab alohida ijtimoiy-ekologik muammo mezonlari jiddiy farqlanishi mumkin.

Barcha ekologik muammolar olti guruhga bo'linadi:

1. Atmosferaga oid (havoning ifloslanishi).
2. Suvga oid (suvning ifloslanishi va kamayib ketishi).
3. Biologik (tashqi omillar ta'sirida o'rmonlarning yaroqsiz holga kelishi, daraxtlarni kesish, o'tloqlarning ishdan chiqishi va h.k.).
4. Tuproq-geomorfologik (eroziya, deflyatsiya, jarliklarning yuzaga kelishi, yer sho'rlanishi va h.k.).
5. Erga oid (yerning buzilishi va zaminning yaroqsiz holga kelishi, yerni ajratib qo'yish).
6. Landshaftga oid (tabiiy rekreatsiya xususiyatlarining yomonlashishi va boy berilishi, noyob tabiiy obyektlarni muhofaza qilish tarkibining buzilishi).

Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolar qoplanadigan, nisbatan qoplanadigan va qoplanmaydigan darajada bo'lishi mumkin. Tabiatni muhofaza qilish muammosi yoki ijtimoiy-ekologik vaziyat tabiiy ekotizimlar tiklanishi chegaradan chiqmagan bo'lsa, qoplovchi omillar tufayli ijtimoiy ekotizimlar to'la tiklanishi mumkin.

Ekologik omillarning asta-sekin kamayib borishi ijtimoiy ekotizimlar ijtimoiy rivojlanishida uyg'unlikni buzib, ularning tiklanish imkoniyatlarini ancha cheklashi mumkin. Bu hodisa tabiiy ekotizimlarning qisman qoplanadigan holati deyiladi.

Ekologik tizimlarning holati butkul izdan chiqib, ekotizim elementlari halokatiga va landshaftlarning vayron bo'lishiga olib keluvchi ekostaz buzilishi qoplanmaydigan ijtimoiy-ekologik muammolar deb ta'riflanadi.

Ijtimoiy-ekologik muammolar keltirib chiqaradiganiga ko'ra, uch guruhga bo'linadi:

- antropoekologik;
- ekologik-iqtisodiy;
- tabiiy landshaftga oid.

Noqulay ekologik vaziyatli areallar maydoni alohida tarzda qo'riqlanadigan maydonlar hajmidan kattadir. Shunisi ham borki, qo'riqlanadigan hududlarning ba'zilar ushbu areallar ta'siri doirasidadir.

Areallar miqdori va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolariga qarab murakkab, o'tish va oddiy toifalarga bo'linadi.

Murakkab areallar asosan sanoat markazlarining ifloslantiruvchi ta'siri, tabiiy resurslarning jadal ishga solinishi va yuksak aholi zichligi bilan ta'riflanadi. SHular jumlasiga Farg'ona vodiysi, Zarafshon va Xorazm, Qoraqalpog'iston va boshqa hududlarni kiritish mumkin.

Chala cho'l va cho'l mintaqalarida tabiatni muhofaza qilishning izdan chiqishi asosan yerlarni sug'orish va yaylovlarda mollarni ortiqcha boqish bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy-ekologik muammolar tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq yangi muammolarning keltirib chiqaradi.

Barcha mintaqalarda tabiatni muhofaza qilishning asosiy masalasi o'rmonni ortiqcha kesishdir. Bu ko'kat, buta resurslarini kamaytirib, botqoqliklarni ko'paytiradi. Foydali ma'danlarni qazib olish ham tabiatga juda katta zarar yetkazadi. Shu tariqa o'rmonlar mintaqasida dehqonchilik urbanizatsiyasi va o'rmon kesish bilan bog'liq muammolar keskinlashdi.

O'rmon va o'rmon dasht landshaftlari yerning o'zlashtirilishi tuproqning yuvilib ketishi, jarliklar hosil bo'lishi natijasida yer hosildorligining boy berilishi bilan ta'riflanadi. O'tloqlarda mollar ortiqcha boqilishi esa o'tloqlarning izdan chiqishi va tiklanmasligiga olib keladi.

Shunday qilib, ijtimoiy-ekologik muammolar ba'zi mintaqalarda tabiat resurslaridan foydalanishga intensiv yondashish, landshaftning o'ziga xosligini inobatga olmaslik, uning antropogen ta'sirlarga chidamliligi va potentsialini hisobga olmaslik natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, agar keng miqyosda tadbir ko'rilmasa, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq yangi muammolarni keltirib chiqaradi hamda mavjud ijtimoiy muammolar ko'lamini yanada kengaytiradi.

Mamlakatimiz aholisining taxminan uchdan ikki qismi qishloq joylarda yashaydi. Demografik ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamizda har 100 kishiga nisbatan tug'ilish 27,3 %, o'lganlar soni 6,2 %, tabiiy o'sish esa 21,1 % ni tashkil etadi. Tug'ilish miqdorining bunday yuqoriligi aholining tez ko'payishini ta'minlaydi.

5.2 O'zbekistonning orografik tuzilishi

O'zbekiston respublikasi cho'llar hamda qor va muzliklar bilan qoplangan tog'lardan iborat mintaqadir. Suvga serob daryolar tog'lardan boshlanib, hayqirib

oqadi va tekislikda joylashgan vohalar – qishloq va sanoat shaharlarini obi hayot bilan ta'minlaydi.

Orografik jihatdan O'zbekiston respublikasi ikki qismga bo'linadi: g'arbiy qismi tekisliklardan iborat, sharqiy qismini esa Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalari egallagan. G'arbdagi tekisliklarning anchagina qismi okean sathidan pastdir. Masalan, Qoraqumdagi Oqchaqay chuqurligining eng past nuqtasi 81m, Mang'ishloqdagi Qoragiyo chuqurligining quyi nuqtasi esa 132m dan quyiroqdadir.

Tog'larning tuzilishidagi o'ziga xoslik shundaki, bu yerda uzoq davr mobaynida jadal tektonik jarayonlar tufayli ko'tarilishga nisbatan denudatsiya ustun kelishi oqibatida yuzaga kelgan tog' tekisliklari mavjud. Ushbu mintaqa tog'lari uchun uvoq tog' jinrlarining yuqoridan pastga tushib turishi xarakterlidir. Tog' cho'qqilarida bunday ko'chish kuchli yomg'ir va ko'klamgi qor erishi paytida qum, tosh aralash suv oqimlari yordamida sodir bo'ladi. Tog'-yon bag'irlariga esa toshu-harsanglarning o'pirilib tushishi va zilzilalar tufayli bahaybat qoyalarning qulashi hosdir. Yonbag'irlar bo'ylab qoldiq tog' jinrlarining qulashi ko'pincha halokatli tus oladi. Muzliklarda keyingi vaqt mobaynida yuz bergan bahaybat o'pirilishlarni Tyan-Shan va Pomir tog'larida uchratish mumkin. Tik o'pirilishlarning katta qismi kuchli zilzilalar, sel va daryo qirg'oqlari yuvilishi bilan bog'liq.

O'zbekiston tog'larining aksariyat qismi 8-9 balli zilzila bo'ladigan mintaqaga mansubdir. Zilzilalarning o'chog'i yer qa'rida 8-25 km, ba'zan 40 km chuqurlikda joylashgan. SHuning uchun ham ularning aks-sadosini yer qobig'ining ustki qismida sodir bo'layotgan tektonik jarayonlardan izlash kerak.

G'arbiy Tyan-Shan bioxilma-xilligini asrash bo'yicha Markaziy Osiyo chegaralararo loyihasi O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarida amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun jahon banki tomonidan 15 million AQSh dollari miqdoridagi mablag' ajratildi. Bu mablag'

O'zbekistondagi Chotqol, Qirg'izistondagi Sarichelak va Beshorol, Qozoqistondagi Oqsu-Jobog'li qo'riqxonalariga sarflanmoqda.

Tektonik harakatlar faollashgan makon yer qimirlash ehtimoli yuqori hudud hisoblanadi. Ularga tog' oldi tekisliklarining ko'tarilayotgan qismlari, shuningdek hozirgi paytda izchil ko'tarilayotgan mintaqalarga mansub hududlar kiradi.

5.3. Iqlim va o'simliklar xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida asosiy iqlim hosil qiluvchi omillarning o'zaro ta'siri – yer iqlimining qurg'oqchilikning yuzaga kelishi haroratning ko'tarilishi yohud keskin o'zgarishiga olib keladi, har yili va deyarli barcha iqlimdagi o'zgaruvchanlikni belgilab beradi. Eng sovuq va eng issiq oylar o'rtasida o'rtacha harorat farqi 30 darajaga etadi. Yog'ingarchilik miqdori ba'zi oylarda ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichlardan 2-4 marta ko'p yoki aksincha ham bo'lishi mumkin. Mamlakatimizning geografik tuzilishi janubdan va janubiy sharqdan to'sib turadigan tog' tizmalarining mavjudligi, shimolda esa hech qanday g'ovning yo'qligi shunga olib keladiki, shimoldan kelgan sovuq havo hech bir to'siqqa uchramay pasttekisliklarga yoyiladi va janubga o'tolmasdan tog' etaklarida turib qoladi. Mamlakatimiz janubi, Eron va Afg'oniston shimolidagi haroratdan deyarli farq qilmaydi. Respublikamizda qish odatda Eron va Afg'onistonning chegara viloyatlaridan ko'ra sovuqroq. Mamlakatimiz hududining shimoliy chegaralarida har santimetrga 120 kkal va janubiy chegarada 160 kkal radiatsiya oladi. Issiqlikning bunday yuqoriligi avvalo tushki paytda quyoshning uzoq muddatda tik turishi, shuningdek, yozning issiq pallasida bulutlarning kam bo'lishi bilan izohlanadi. Pasttekisliklarda ochiq havo ehtimoli 90-95 % ni tashkil etadi.

Issiq mavsumda respublikamizning tekis joylarida radiatsiya balansi va uning jadalligi kenglik bo'yicha kam o'zgaradi va asosan, yuza qatlami holatiga bog'liq. Chunonchi, iyulda radiatsiya balansi o'rtacha 7-11 kkal/sm² ga teng. Qoraqumda iyun-iyul oylarida tush payti radiatsiya balansi minutiga 0,65-0,80

kkal/sm² ga teng bo'ladi, yilning issiq mavsumida radiatsiya balansi tog'li o'lkalarda ham jiddiy o'zgaradi, pasttekisliklarda esa nisbatan barqarordir. Yilning sovuq pallasida radiatsiya balansi miqdori qor qoplaminig mavjudligi va holatiga qarab o'zgaradi. Markaziy Osiyo hududida oy davomida manfiy radiatsiya balansi deyarli kuzatilmaydi, eng sovuq oylarda uning o'rtacha miqdori shimoliy chegarada 0 ga yaqin, janubda esa 1 kkal/sm² dan oshadi.

Iqlim shakllanishida muhim omillardan yana biri atmosfera havosining aylanib turishidir. Turli aylanish jarayonlari natijasida hududimiz uzra yuzaga keladigan har xil havo oqimlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- siklon va antisiklon ko'rinishida g'arbdan va sharqdan havo oqimlarining kirib kelishi;

- shimol va janubdan havo oqimlarining kirib kelishi.

Muqim tur havo oqimlarining juda sekin ko'chishidan iborat bo'lib, quyosh radiatsiyasi va yuza qoplama qobiq ta'sirida ularning meteorologik xususiyatlari jadal o'zgaradi. Yilning turli fasllarida bunday havo almashishlari har xil tarzda takrorlanadi.

Mamlakatimizda eng sovuq oy yanvardir. Qish mintaqamizda asosan yumshoq, mo''tadil sovuq, yanvarda janubiy chegaralarda o'rtacha harorat -2-8 daraja, tog'li viloyatlarda -15, -23 darajagacha yetadi. Quyoshdan tushadigan issiqlik miqdori ko'p bo'lishiga qaramay yanvarda eng past harorat kuzatiladi. Hatto tekisliklarning eng janubiy qismida -25 -30 daraja, shimoliy qismida esa 30 darajadan ko'proq, tog' cho'qqilarida -50 darajagacha sovuq qayd etiladi. Lekin bu kuchli izg'irinlar uzoq saqlanmaydi. Mamlakatimizning barcha hududlarida yillik o'rtacha harorat 15-20, tog'larda 5-10 darajagacha ko'tarilishi mumkin. Aksariyat hududlarda eng issiq oy tekisliklarda iyul, tog'larda iyul-avgustdir. O'zbekistonda eng yuqori harorat Termez va Sherobod tumanlarida kuzatilgan. O'zbekistonning janubida deyarli har yili iyul oyida 40 darajadan oshadi. Tog' etaklarida esa eng yuqori harorat 30-35 darajadan oshmaydi. Barqaror issiq havoga qaramasdan ba'zi

hollarda yoz paytlari ham kuchli chang to'zonlar bilan birga sovuq havo kirib kelish ehtimoli ham bor.

Suv tarmoqlarining o'ziga xosligi shundaki, daryolar tog'larda va tekisliklarda bir tekis joylashmagan. Tog'larda jami 10-12 mingta daryo va irmoqchalar mavjud bo'lib, ular o'zaro qo'shilib, asosiy suv tarmoqlari – Sirdaryo va Amudaryoni obi hayot bilan ta'minlaydi. Tog'li o'lkaning suv tarmoqlariga xos yana bir xususiyati shundaki, suv chetga chiqib ketmaydi. O'zbekistonning daryolari Orol dengizi havzasiga mansub. Daryolarning suvi MDH chegaralarida shakllanadigan va Eron hamda Afg'onistondan keladigan suvlardan tashkil topadi. Daryolar orqali keluvchi suvdan tashqari Markaziy Osiyo tekisliklariga yer tagidan ham suvlar chiqadi. Baland tog' cho'qqilarida daryolarning muzliklardan chiqish joylarida suv harorati 0 darajaga yaqin. Pastga tushgan sayin harorat osha borib, tog'larni tark etishda 10-12 darajaga ko'tariladi.

O'rtacha eng ko'p oylik harorat iyulda, ba'zan avgustda barqarorlashadi. Ba'zi daryolardagi suv iyunda yoki may oyida eng yuqori haroratda isiydi. Muzliklar va tog' cho'qqilaridagi qorlarning suvlari 10-12% dan oshmaydi. Tog' tizmalarida yuz beradigan yog'ingarchilik tufayli tushadigan yillik suv hajmining 1% dan ko'prog'ini tashkil etadi.

O'rta tog' mintaqalarida daryolarning asosiy suv manbai mavsumiy qorlarning erishi tufayli hosil bo'lgan suvlardir. Yomg'ir yillik suv hajmining 3-5% ini beradi. Faqat markaziy Tyan-shan va sharqiy Pomir tog'laridan yomg'ir suvlari 10%, hatto undan ham ko'proq miqdorda suv beradi. Yer osti suvlari ba'zi daryolarni 40% gacha taxminlaydi. O'zbekistonda ko'llar soni ko'p bo'lib ularning 80% i tekisliklarda joylashgan. Tekis joylardagi ko'llar asosan o'zanlarning o'zgarish jarayoni bilan bog'liq. Sug'orish tarmoqlari bilan bog'liq ko'llar esa sun'iy ravishda yoki chuqur joylarga suv to'lishi natijasida hosil bo'lgan. Tog'lardagi ko'llarning hosil bo'lishi tekisliklardagi ko'llarning paydo bo'lishidan farq qilib, rang-barangdir. Bunga tektonik ko'llar, qoyalarning o'pirilishi yoki

tog' vodiylaridagi qadimgi muzliklarning qoldiqlari bilan to'silishi natijasida yuzaga kelgan to'g'on turidagi ko'llar misol bo'lishi mumkin.

O'zbekiston hududini gidrologik jihatdan tog'li, tog' oldi va tekislik regionlarga bo'lish mumkin. Tog'li rayonlar qor va yomg'ir suvlari to'planadigan joylar bo'lib, yer osti suvlarining manbai hisoblanadi, tekisliklarda esa allyuvial va platformalarga bo'linadi.

Keskin kontinentallik, umumiy qurg'oqchilik, yillik o'rtacha haroratning yuqori ekanligi vegetatsiya mavsumining ikki xilligi: nisbatan qisqa namli va issiq hamda uzoq va quruq bo'lishi bilan bog'liq. Bu ayniqsa, yangi yerlarni o'zlashtirish, shaharlar qurish, yirik inshootlar bunyod etishda juda asqotadi.

Mamlakatimiz iqlimining xususiyatlari tuproq hosil bo'lishi omilidir. Bu, hududning aksariyat qismini o'z tabiatiga ko'ra, keng miqyosida Eron-Arab fatsiasi deb qarashga imkon beradi. Mamlakatimizning tekislik qismida keng tarqalgan tuproqlarga kulrang qizg'ish cho'l, taqir holatida va cho'l qum ko'rinishidagi tuproqlar kiradi. Tarkibi va kelib chiqishi turlicha bo'lgan kulrang qizg'ish cho'l tuproqlari yoshi eng katta tekisliklarga xos bo'lib, o'zida hozirgi iqlimiy ta'sirlarni hamda o'tmishdagi paleogeografik sharoitlarni ham aks ettiradi.

Mamlakatimiz tog' etaklari va tog'larning tuproq qatlami vertikal poyas qonuniga bo'ysunadi va ayrim hududlarning potentsiali o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Bundan tashqari tog'larda tuproq qatlami orografik sharoitlar bilan murakkablashgan.

O'lkamizning o'simliklar olamiga ta'sir qiluvchi tabiiy muhitining barcha omillari ichida gidrotermik holat eng ko'p ahamiyatga ega. Hidrotermik holat bu erda yil mavsumlari bo'yicha keskin o'zgarib qolmasdan, joyning geografik o'rniga ham bog'liq. O'simliklar olami tarkibida turli biologik shakllarni ko'rish mumkin. Bular bir yillik va ko'p yillik o't-o'lanlar, yarimbuta ko'rinishdagi ekinlar, butalar, po'stloqli ekinlar, shuningdek, mox, lishayniklar va tuproq o'tlaridir. Cho'l o'simliklari olami tashqi rang-barangligi, tarkibida u yoki bu biologik guruhdagi yohud bir necha biologik guruhlardagi o'simliklarning o'zaro

birikishi asosida yuzaga keladi. Har ikki holatda ham o'simliklar qatlami tuzilishi o'zgarib qolmasdan, tuproq-zamin sharoitlari ham o'zgaradi.

Tog'lardagi o'simliklar olamining tarkibi cho'l tekisliklari va yaylovlardan bog'lardagiga nisbatan ancha rang-barangdir.

Haroratga bog'liq holda dengiz sathidan ko'tarilgan sayin o'zgarib turadigan o'simlik turlari juda ko'p. Bir tomonda tog'larda uzum, anor, anjir kabi issiqsevar ekinlar, ikkinchi tomonda ancha past haroratga moslashgan ekinlar uchraydi.

O'zbekistonda cho'l hayvonlari keng tarqalgan. Tekisliklar hayvonlar guruhlarining tog' hayvonlari o'rtasidagi keskin almashinuv tog' etagida yuz beradi. Ushbu chegarada tekisliklar tomon turli endemik turlar va zotlardan iborat cho'l hayvonlari tarqalgan.

Tog'lar faunasining o'zagini Galarktika zoogeografik regionning mamlakatimizga xos bo'lgan turlari tashkil etadi. Mamlakatimizda iqlimiy-geografik xususiyatlar inson, jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatlari jarayoniga, ekotizimlar shakllanishi va rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy muhitning asosiy buzilishlari xo'jalik faoliyati, ishlab chiqaruvchi kuchlarni ekstensiv rivojlantirish bilan bog'liq. Biosferaning ulkan ekologik resurslari, uning inson o'zgartirgan yangi sharoitlardagi evolyutsiyasi cheksiz bo'lishiga qaramay, ko'pgina antropogen ta'sirlar hozircha anchagina salbiy oqibatlar tug'dirdiki, mintaqaning biotsenozlari bu oqibatlarni amalda bartaraf qila olmaydi. Orolbo'yi ekologik falokat mintaqasiga aylandi. Markaziy Osiyo bo'yicha uglerod, oltingugurt, uglevodorodlar, qattiq moddalar, azot qoldiqlari yetakchi o'rinda turadi. Uglerod oksidi emissiyasi umumiy miqdorning 39% ini tashkil etib, keyingi o'rinlarda turgan oltingugurt gazi, uglevodorodlardan ikki hissa ko'pdir.

Bir kecha-kunduzda atmosferaga chiqadigan zararli moddalar miqdori har kilometrga 165 kg ni, aholi istiqomat qiladigan joylarda esa 236 kg ni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyatida bir kecha-kunduzda bu ko'rsatkichlar 18,7 va 39,9 kg/km²ga yetdi. Ancha yillardan buyon Farg'ona vodiysi atmosferasiga zaharli birikmalar o'zining zararli ta'sirini o'tkazmoqda, ba'zi xo'jaliklar va

shaharchalarda mevali daraxtlar, g'oz barglarining Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidan chiqayotgan oltingugurt qoldiqlari ta'sirida nobud bo'lishi kuzatildi. Bundan tashqari sanoat chiqindilari va avtotransportdan yuzaga kelayotgan ifloslantiruvchi moddalarning ob-havoga qo'shilishi atmosfera tarkibini buzmoqda, noqulay sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

5.4. Ijtimoiy-ekologik muammolarning paydo bo'lish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonunni bajarish yuzasidan dastlabki qadamlar 1999 yilda boshlangan edi. Hukumatimiz atrof-muhit muhofazasi bo'yicha 1999-2005 yillarga mo'ljallangan dastur qabul qildi.

I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» degan mavzusidagi ma'ruzasi 1999-2005 yillarda aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi yanada ortishi lozimligiga asoslangan. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun asosida 2003 yilda Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan «O'zbekiston Respublikasida 2003-2005 yillarga mo'ljallangan atrof-muhit muhofazasi bo'yicha nazorat dasturi» qabul qilindi.

BMTning rivojlanish dasturida axborot berilishicha, mamlakatni qo'llab-quvvatlash bilan birga o'zlarining indekatorini aniqlash hamda nazorat o'rnatish ko'zda tutilgan.

Har bir davlatning ichki va tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati natijasida shakllanayotgan jamiyat hayotining ijtimoiy muhiti “makroiijtimoiy muhit” deb yuritiladi. Tabiat inson uchun yagona makon, u odamni turli oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zaruriy buyumlar bilan ta'minlaydi. Aholining ekologik ongi tabiat muhofazasini muntazam amalga oshirishda asosiy ijrochi omil hisoblanadi. U har doim ham yuqori bo'lishi, vaqti-vaqti bilan taqabalgarga bo'linishi mumkin. Aholining barcha qatlamlari bog'cha yoshidagi

bolalardan tortib, mo'ysafid otaxon va onaxonlargacha atrof-muhitga yakdil, ijobiy fikrda bo'lishlari, unga ziyon-zahmat yetkazmaslik ruhida tarbiyalanishlari darskor.

Mamalakatimizda ekologiyani yorituvchi yagona gazeta "Tabiat xabarnomasi" Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va MFSA (Orolni qutqarish xalqaro fondi)ning Qoraqalpog'iston filiali bilan hamkorlikda oyiga 500 nusxada chop etiladi.

Yagona ekologik jurnal "O'zbekiston ekologik xabarnomasi" O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan har ikki oyda 1500 nusxada chiqaradi. ("Yangi kun") "Новый день" gazetasi ekologik gazeta bo'lmasada, uning tashkilotchisi "Xalqaro Orolni qutqarish fondi" hisoblanadi va gazetaning har bir sonida ekologik mavzuga oid materiallar berib boriladi.

Xullas, inson yashab turgan muhitni barqaror vaziyatda asrash odamzot bioijtimoiy, tadrijiy rivojlanish jarayonini me'yoriy holatda saqlab qolishga qaratilgan.

Bobning qisqacha mazmuni

Ijtimoiy-ekologik muammolar umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy shakllarga bo'linadi. Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolar keng miqiyosli muammolardan farqli ravishda ayni bir hududiy mintaqaviy-ijtimoiy ekotizimlarini qamrab oladi. Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolarga baho berishning mezonlari havo va suvning ifloslanganligi, belgilangan chegaradagi chiqindilar to'plami, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi va h.k.

Ijtimoiy-ekologik muammolar oqibatiga ko'ra, uch guruhga bo'linadi: antropoekologik; ekologik-iqtisodiy; tabiiy landshaftga oid. Ijtimoiy-ekologik muammolar ba'zi mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanishga intensiv yondashish va imkoniyatini mensimaslik natijasida yuzaga keldi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mintaqaviy ijtimoiy muammolarga nimalar kiradi?

2. Ijtimoiy-ekologik muammolar qanday oqibatlarga olib keladi?
3. O'zbekistonning orografik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi va u ijtimoiy-ekologik vaziyatga qanday ta'sir etadi?
4. O'zbekistondagi mavjud ijtimoiy-ekologik muammolarni aytib o'ting.
5. O'zbekiston mintaqasining iqlim resurslari nimalardan iborat va ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda qanday ahamiyatga ega?
6. Jahon ekologik tuzilishining inqirozi nechta tarkibiy qismga bo'linadi?
7. Yer resurslarining degradatsiyalashuvi nima bilan bog'langan?
8. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida ekologik muommolarning chuqurlashishi qanday jarayonlar bilan belgilanmoqda?
9. O'zbekistonda "Ekologik tanglik" vaziyati mavjud hududlarni ayting.
10. Markaziy osiyo mintaqasida "Ekologik tanglik" vaziyati mavjud xududlarni sanab o'ting.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni. Toshkent oqshomi. 6 oktabr 2005.
2. Abirqulov q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov SH. Ijtimoiy ekologiya' - T., 2004.
3. Гирусов Э. В. Экология и экономика природопользования. М. 2002.
4. Макаp C. В. Основы экономики природопользования. М.: "ИМПЭ", 2002.
5. Рыночные методы управления окружающей среды. Уч. пос -М., 2002.

6 - bob. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-ekologik holatiga iqtisodiyot asosiy tarmoqlarining ta'siri

6.1. Sanoatning ta'siri

Ishlab chiqarish o'sgan sayin atmosferaga zararli chiqindilar tashlab
darajasi ancha oshdi, oqava suvlar hajmi ham o'sib bormoqda. Biosferaga
sanoatning ta'siri tadqiq etilar ekan, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish
hamda rejali tarzda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanishda muhim ahamiyatga
ega bo'lgan ishlab chiqarishni hududiy jihatdan maqbul ravishda tashkil etish kabi
o'zak masalalarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Ekologik oqibatlar ilmiy va loyihalar
tashkilotlarining tavsiyalarini hisobga olmasdan o'z bilganicha ish tutishi ishlab
chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishda, tarmoqlar ichida va hududiy jihatdan jiddiy
nomutanosibliklarga hamda aholi salomatligining yomonlashuviga olib keladi.
Barcha cheklovlarga qaramasdan Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida,
Toshkent shahrida sanoat jadal rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil
etish masalalari yetarli o'rganilmaganligi sababli Toshkent shahrining
rivojlanishiga izchil yondashish ta'minlanmayapti. Holbuki, Toshkent aholisi
keyingi 10 yil ichida 24% ga o'sib ketdi. Chirchiq, Olmaliq, Ohangaron, Angren,
Farg'ona-Marg'ilon, Navoiy va O'zbekistonning boshqa qator mintaqalarida
kimyoviy, neft-kimyoviy va mikrobiologik tarmoq korxonalari, ko'p quvvat va suv
talab qiladigan boshqa ishlab chiqarish vositalarining ko'pligi tufayli ekologik
vaziyat keskinlashmoqda.

Sanoatning ta'sir dinamikasi

Ko'rsatkichlar	1970 y	1976 y	1985 y	1996 y	2003 y
1. Asosiy i/ch fondlari (mlrd so'm)	13,6	27,5	84,9	109,8	117,5
2. Yalpi mahsulot qiymati	18,1	28210,1	46387	57633	61521
3. Tashlanayotgan chiqindi suvlar hajmi (mlrd m ³) shu jumla iflos-n	20611	25831	25881	28501	30341
4. Atmosferaga chiqayotgan zararli moddalar (ming tonna)	1508	1525	1539	1335	2250,3

Tojikistonning Tursunzoda shahrida joylashgan Alyuminiy zavodining salbiy ta'siri yildan-yilga oshib bormoqda. Zavod quvvati ortishi bilan asta-sekin atmosferaga chiqayotgan zararli moddalarning (ftor birikmalari) salbiy ta'sir chegarasi ham kengaymoqda. Surxandaryoning Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlari hududi uning ta'siriga tushib qolgan. Bu ta'sir doirasining kengligi 4-25 chaqirimgacha yetadi. Hozirgacha zarar ko'rgan umumiy maydon 25-30 ming gektarni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan tumanlarning ba'zi xo'jaliklarida pomidor, bodring, karam va uzum hosildorligi kamaygan.

Tojikiston alyuminiy zavodi Sariosiyo tumaniga yonma-yon bo'lgan hududda joylashgan bo'lib zavodning atmosferaga chiqaradigan zaharli birikmalari havo oqimi bilan Saraosiyo tumaniga o'tadi. Bu holat eng avvalo bolalar va onalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'simliklar, hayvonot do'nyosi, tuproq qatlami kuchli darajada zararlangan. Madaniy o'simliklar 10-15 yillardan beri kam hosil beradi, ayrimlari esa umuman hosil bermaydi. Tumanda keyingi yillarda jigar kasalliklari bilan kasallanish holatlari ko'paymoqda, ayniqsa jigar sirrozi bilan og'rish sezilarli ortgan. Organizmdagi yod o'rnini unga nisbatan

faolroq bo'lgan galogenlardan biri fluor egallamoqda. Natijada tanada yod o'rini fluor egallab, bo'yoq kasalliklari ko'paymoqda.

Bu muammoni bartaraf etish borasida amaliy ishlar qilinmas ekan, kelajakda bu vohani cho'lga aylanishi davom etaveradi. Pilla yetishtirish pasaydi. Shuningdek, anor va xurmoning hosildorligi va sifati pasayib ketdi. Aholining salomatligi yomonlashdi. 1999 yilga kelib fluorli vodorod chiqindilari 56,7 ming tonnaga ko'paydi. Holbuki, 1982 yili bu ko'rsatkich 24,5 ming tonna edi. Natijada ahvol yanada murakkablashdi.

2- jadval

Tojikiston alyuminiy zavodining atmosferaga chiqarayotgan moddalar miqdori

Yillar	jami (ming tonna)	shu jumladan					
		Qattiq	fluorli vodorod	Azot ikki oksidi	uglerod oksidi	Oltin gugurt ikki oksidi	uglevod dorod
1995	30284,5	3965,1	150,2	128,5	25246,6	794,1	-
1996	29239,1	3075,1	147,1	189,1	24967,5	860,3	-
1997	24368,8	2431,1	119,0	174,6	20922,0	721,1	-
1998	23207,6	2370,3	122,0	209,5	20831,1	674,7	-
1999	23875,6	2397,3	121,6	215,5	20460,8	680,4	-
2000	24543,5	2452,0	120,2	201,3	21048,6	700,2	21,2
2001	22250,7	2379,9	119,8	205,5	18823,0	700,5	22,0
2002	21899,1	2416,8	120,7	197,0	18441,5	700,8	22,3
2003	21613,3	2027,3	119,4	212,6	18539,4	692,6	22,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1995 yilga nisbatan 2003 yilda 30 t kam miqdorda inson organizmi uchun zararli bo'lgan fluorli vodorod atmosferaga chiqarilgan.

Tabiatga sanoat ta'sirining yanada kuchayishi bunday sharoitda kuzatilayotgan ijtimoiy-gigienik, ekologik oqibatlarni oldindan hisoblab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiatni muhofaza qilishga oid loyihalashtirilayotgan tadbirlar va atrof-muhitni antropogen jihatdan zo'riqtirishni pasaytirishga qaratilgan qo'shimcha tavsiyalar ishlab chiqish samaradorligini baholash ham mintaqa ekologik istiqbolini belgilash jarayonidagi muhim vazifadir. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida sanoat ishlab chiqarish imkoniyatini jadal rivojlantirish mintaqaning tabiatga antropogen ta'sirini ancha oshiradi va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid samarali tadbirlarni taqozo etadi.

O'zbekistonda atmosfera havosiga chiqarilayotgan turli chiqindilar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalariga nisbatan kamayish yo'nalishida bo'lishiga qaramasdan hali ham yuqori ko'rsatkichlarga ega.

3- jadval

O'zbekistonda atmosfera havosiga chiqarilayotgan turli chiqindilar.

Yil	1985 y	1994 y	2001 y
Jami chiqindi miqdori	4,2 mln/t	1,8 mln/t	2,25 mln/t

Bu jihatdan sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar 1,5 mln/t dan 0,9 mln/t gacha qisqardi. Transport vositalaridan chiqqan ifloslovchi moddalar esa 2,7 dan 1,4 mln/t ga kamaydi. Bunga chiqindilar kamroq chiqarilishi, korxonada dudbo'ronlariga turli konstruksiyadagi gaz va changni ushlab qoluvchi hamda tozalovchi moslamalar o'rnatilishi va mavjudlarining samaradorligini oshirish sabab bo'ldi.

O'zbekiston shaharlarida atmosferani ifloslanish darajasi (IZA¹)

SHAHARLAR	1999 Y	2000 Y	2001 Y	2002 Y	2003 Y	2004 Y
CHIIRCHIQ	4,40	3,47	3,35	3,58	3,84	3,30
FARG'ONA	5,00	5,94	5,84	5,06	4,98	4,70
TOSHKENT	6,48	5,92	5,95	6,68	6,36	5,50
SARIOSIYO	1,85	2,16	2,50	2,76	2,72	2,80
SAMARQAND	3,30	3,51	3,77	3,06	3,02	3,06
OLMALIQ	4,75	5,52	5,08	4,83	4,67	4,46
NUKUS	4,27	5,06	5,04	3,62	5,18	4,60
NAMANGAN	3,54	4,13	2,67	2,67	1,91	1,80
NAVOIY	7,77	7,62	7,09	6,6	7,85	5,30
QO'QON	4,65	4,60	4,64	4,37	4,72	5,30
GULISTON	3,57	3,44	2,95	3,06	2,45	2,26
BUXORO	4,71	4,48	4,09	3,56	3,22	3,04
BEKOBOD	2,30	2,30	2,49	2,93	2,91	2,20
ANDIJON	4,01	2,99	3,22	2,94	2,34	7,11
ANGREN	4,00	3,63	4,20	4,60	5,13	5,30

Atmosferani ifloslantirish indeksi (AII) dinamikasi ma'lumotlarga asosan respublikaning ko'pgina shaharlarida qaraladi, biroq ayrim shaharlarda, chunonchi, Nukus, Olmaliq, Toshkent, Farg'onada (5-6), Navoiy shahrida ancha yuqoriligi (7,62) kuzatilgan.

Respublika tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasning malumotlariga ko'ra, 2005 yilda atmosferaga chiqarilayotgan moddalar miqdori 0,3 tonnaga kamaygan.

¹ IZA >14: хавонинг ифлосланиши ута юкори;
7 < IZA < 14: ифлосланиш юкори;

5 ≤ IZA ≤ 6: ифлосланиш нисбатан юкори;
IZA < 5: хавонинг ифлосланиши паст;

Atmosfera havosida mavjud bo'lgan ayrim moddalarning ruxsat etilgan miqdori. (REM)

Moddalar	REM har mg-da m ³	
	bir marta eng ko'p	o'rtacha sutkalik
Azot qo'sh oksidi	0,085	0,085
Azot ishqori	0,4	0,4
Ammiak	0,2	0,2
Atseton	0,35	0,35
Benzol	1,5	0,8
Geksaxlorotsiklogeksan	0,03	0,03
Kapralaktam(bug'lar,aerozol)	0,06	0,06
Karbofos	0,2	0,2
Metafos	0,008	-
Mish'yak	-	0,003
Simob metalli	0,15	0,05
Qo'rg'oshin	-	0,008
Oltinugurt qo'sh oksidi	0,008	0,008
Oltinugurt vodorodi	0,03	0,005
Uglirod oksidi	3	1
Fenol	0,01	0,01
Formaldegid	0,035	0,012
Ftoridlar	0,02	0,005
Xlor	0,1	0,03
Xlorofos	0,04	0,02

Ushbu jadvalda havodagi zararli gazlar, bug'lar, aerozellarning aholi yashash hududlaridagi (REM) ruxsat etilgan miqdori ko'rsatilgan.

Ma'lumotlar to'risida Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, va O'zbekiston gidrometeorologik markazi, shuningdek, iqtisodiy tizimlar: Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat yer-geodeziya kadastri qo'mitasi, Davlat geologiya qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi kabi tegishli tashkilot va muassasalarga jo'natilgan.

Atrof-muhit muhofazasi BMT dasturida 12 ta SOZ lar zararli kimyoviy moddalarning dastlabki ro'yxatiga kiritilgan. Ularni sayyoraviy miqyosda yo'q qilish ko'zda tutilgan. Bular qatoriga pestitsidlar-aldrin, xlor, DDT, geksaxlor, geksaxlorbenzol kabi moddalar va sanoatni kimyoviy chiqindilari ham kiritilgan.

Qaraqalpoqistonda homilador ayollar tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda, ularning qoni tarkibida xlorpestitsidlarning miqdori yuqori ekanligi aniqlangan.

Ayrim shaharlarda sanitariya-gigiyena normasining ruxsat etilgan me'yori (REM) o'rtacha (1 dan to 3,5) kunlik normadan oshganligini ko'rish mumkin. Olmaliqda, Buxoro, Guliston, Qarshi, Qo'qon, Navoi, Nukus, Samarqand, Toshkent shaharlarida havodagi chang;

Olmaliqda oltingugurt oksidi ;

Olmaliq, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Marg'ilon, Termizda azot oksidi;

Angren, Navoi, Farg'onada fenol;

Andijon, Navoi, Chirchiq, Toshkentda ammiakning miqdori ancha yuqori.

Respublika bo'yicha tabiiy muhiti eng ifloslangan shahar Navoiy hisoblanadi. Doimiy manbalar atmosferaga 150 xil turdan ziyod ifloslantiruvchi moddalar chiqaradi. Hududiy miqyosda 90% chiqindi moddalar Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Doimiy ishlatiladigan manbalardan chiqadigan chiqindi moddalar ulushi sanoat korxonalarini bo'yicha olib qaralsa 34,1% i energetikaga, 31,9%i "Uzbekneftgaz" MKK tizimidagi korxonalar hissasiga , 16,5%i metallurgiyaga, 3,8%i qurilish sanoatiga, 3,6%i esa maishiy xo'jalikka, 2,6%i kimyo sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Boshqa tarmoqlarning salmog'i esa 7,4% dan oshmaydi.

6.2. Transportning ta'siri

Avtomobil transporti eng yirik ifloslantiruvchi manbadir. 2001 yilda respublikamiz bo'yicha jami gaz chiqindilarining 67,8% i yoki 1,54 mln t si transport hissasiga to'g'ri keldi. Transport ta'sirining oshib borish ko'rsatkichlari keyingi 15 yil ichida O'zbekistonda avtomobil yo'llari tig'izligi deyarli 2 marta oshganligini ko'rsatadi. Avtomobillar sonining oshishi atmosferaning yerga yaqin qatlamlarida azot gazlari, qo'rg'oshin birikmalari, oltingugurt gazlari, uglerod gazlari, uglevodorodning yonmagan qoldiqlari, zaharli benziprin va boshqa moddalar miqdori oshishiga olib kelmoqda. Buning xavfi shundaki, birinchidan biosferaning faol zonasiga ta'sir qiladi, ikkinchidan, tarkibida barcha tirik jonzotlar uchun juda zaharli bo'lgan qo'rg'oshin birikmalari bor. Uchinchidan, avtomobil gaz chiqindilari atmosferaning yerga yaqin qatlami, inson nafas oladigan sathiga tushadi. Tahlil natijasiga ko'ra Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro kabi yirik shaharlarda hudud atmosferasiga tushadigan zaharli gazlarning va moddalarning 80% i avtomobillar hissasiga to'g'ri keladi. Bu chiqindilarning miqdori 300 ming t dan ko'proqdir. Xavfli jihati, avtomobillarning aksariyat qismi shaharlarda jamlangan bo'lib, ularning gaz chiqindilari bevosita insonlarga ta'sir qilmoqda.

Yo'llar ko'pligi, shaharlardagi ko'chalarda yo'l belgilari, svetofozlarning seroblighi issiq iqlim sharoitida vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Yo'llar holatining qoniqarsiz bo'lgan sharoitda havoning ifloslanishi me'yordagidan 6-8 marta oshadi. Bu muammoni bartaraf etishning samarali yo'li avtotransportlarni gaz pasaytirish, zararsizlantirish vositalari bilan ta'minlashdan iborat. Avtomobillar ta'sirida atmosfera bulg'anishini kamaytirish, ularning zaharli gaz chiqarishini nazorat qilish va hattoki, avtotransport korxonalarida nazorat-sozlash punktlarini tashkil qilishgina emas, balki ekologik jihatdan puxta o'ylangan holada tizimni rejalashtirish lozim. Bunda mintaqa iqtisodiyotining ehtiyojlari avtotransportga qo'yiladigan ekologik talablar bo'yicha avtotransport bilan yuk tashish miqdori va sifati e'tiborga olinadi.

Tabiatga, inson ekologiyasiga transportning ta'sirini yanada kamaytirish masalasini maqbul tarzda hal etish uchun zarari kam yonilg'i vositalarini yaratish va dvigatellarni takomillashtirishga fan-texnika yutuqlarini jadal joriy qilish zarur. Bu esa transport vositalarini to'la elektr quvvati bilan ishlashga o'tkazish, avtobuslarni trolleybuslar bilan almashtirish va avtomobillardan elektromobillarga o'tish zaruratini yuzaga keltiradi. Yoqilg'i balansida etillashtirilmagan benzin hissasini oshirish kerak. Mutaxassislarning fikricha, atmosfera havosi avtotransport gaz chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olishda motor holatining sozligi va karbyurator ishlashini puxta nazorat qilish muhim omildir.

Mamlakatimizda avtomobil parklarining texnika holatini baholash shuni ko'rsatadiki, zaharli gaz chiqindilari belgisi bo'yicha avtomobillarning faqat 10% l gina soz holatdadir. Transport ta'sirining oqibatlarini aniq-puxta bilish mintaqadagi barcha manfaatdor tashkilotlarning o'zaro muvaffaqiyatli harakatiga bog'liq. Chunki bu muammo nafaqat bir respublika, hatto butun mintaqaga tegishli. Avtotransport muhitni ifloslantiradigan eng yirik manbalardan biri bo'lishiga qaramay, avtomobil gaz chiqindilarining biosferaga salbiy ta'sirini kamaytirish yuzasidan tadbirlar yetarli ishlab chiqilgani yo'q. Mintaqada tabiiy muhitga transport zug'umi ortib borayotgan hozirgi davrda bu muammo yanada dolzarblik kasb etib, kechiktirib bo'lmaydigan qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

6.3. Qishloq xo'jaligining ta'siri

Bu insonning faol agrar-sanoat faoliyati bilan bog'liq va umuman, biogeotsenoz va ekotizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ekologik omillar majmuidir. Fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari bilan qurollangan inson tabiatni jadal o'zlashtirmoqda. Erga ishlov berishda bahaybat mashina va mexanizmlar ishlatilmoqda, natjada qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan kimyoviy vositalar tirik mavjudotga salbiy ta'sir qilayotir. Keyingi yillarda O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi ancha faollashdi. qishloq xo'jalik ekin

maydonlari ko'paydi. Tuproqqa solinayotgan o'g'itlar miqdori jadal oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish guruhlari (binolar va inshootlardan tashqari) keyingi 15 yil ichida 13,9% ga oshdi. Noorganik o'g'itlar, zaharli kimyoviy moddalarning keng qo'llanilishi tuproqda va keyinchalik o'simliklar va hayvonlardan olinadigan mahsulotlarda kadmiy, qo'rg'oshin, simob, fluor va tabiiy radionukleidlarning miqdorining oshishiga olib keldi. Sho'rolar davrida sug'oriladigan yer maydonlarini ko'paytirish siyosati, respublikamizda ekologik sharoitning juda murakkablashuviga olib keldi. Millionlab gektar yerlar sho'rlandi va suv tagida qoldi, oqava suvlarning ko'payishi sho'r ko'llarni yuzaga keltirdi. Amudaryo va Sirdaryodan doimiy suv olish ekologik halokatga – Orol dengizining qurishiga olib keldi va Orol bo'yida ijtimoiy-ekologik vaziyati keskinlashdi.

6.4. Kimyo sanoatining ta'siri

Yaqin paytlargacha pestitsid muammosiga sof qishloq xo'jalik masalasi deb qaralardi. Endi ayonki, u keng miqyosli butunjahon ekologik muammolar qatoridan joy oldi. Negaki, qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi ayni paytda salomatlikni muhofaza qilish, hayvonot va nabotot dunyosini qo'riqlash, umuman, biosferaning uyg'un evolyutsiyasi bilan bog'liqdir. Bu ayni chog'da siyosiy masala hamdir. Mamlakatimizda salbiy ijtimoiy-ekologik sharoitning asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalarni haddan ortiq ishlatish, texnologik intizomning pastligi va inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan kimyoviy dorivorlardan foydalanishning doimiy nazoratga olinmaganligidir. Respublikamizda yiliga 1,3-1,4 mln tonna mineral o'g'it va 80-85 ming tonna har xil pestitsid ishlatildi. Shundan yarmiga yaqini defoliantlarga to'g'ri keladi. O'rtacha har bir gektar sug'oriladigan maydonga 300-350 kg mineral o'g'it va 20-25 kg pestitsid ishlatiladi. Ba'zi viloyatlarda pestitsid gektariga 40 kilogrammga yetadi. "Uzagrokimyota'minot" tizimidagi korxonalarining omborlarida muddati o'tib ketgan va qo'llanilishi man qilingan 12 ming tonna kimyoviy moddalar

to'planib qoldi. Bu moddalarni ko'mib zararsizlantirish masalalari qoniqarsiz hal etildi. Qayd etilgan miqdordan atigi 3 ming tonnasi ko'mib zararsizlantirildi. Ushbu ish ekologik talablar, qurilish qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzilgan holda amalga oshirildi. Ba'zi viloyatlarda esa nazorat va hisob-kitobga e'tibor qilinmaganligi bois ko'milgan pestitsidning miqdori va xavflilik darajasi belgilanmagan, zaharli moddalar ko'milgan joylar va ekologik sharoit ustidan nazorat qilinmayapti. Respublikada mavjud zaharli moddalarning 993ta omborxonasidan atigi 336 tasi yoki bor-yo'g'i 40% talablar darajasidadir. 1995-1999 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi pestitsid bilan kuchli zaharlanish bo'yicha 13ta holatni qayd etgan. Aniqrog'i 245 kishi kasallanib, ulardan 13 nafari vafot etdi. Har yili surunkali zaharlanish bo'yicha 35-50 holat aniqlanmoqda. Keyingi 20-25 yil mobaynida paxtachilik mintaqalarida pestitsidni qo'llash yuzasidan umumlashtirilgan ma'lumotlar uning qishloq joylarida bolalar o'limining o'sishi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatdi. Pestitsid saqlanadigan 512 omborxona sanitariya va tabiatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydi. Bu omborlarda kimyoviy moddalar mos kelmaydigan joylarda, ba'zan umuman ochiq holatda saqlanadi.

Qishloq xo'jaligida pestitsidning keng qo'llanilishi natijasida kishilar zaharli kimyoviy moddalar bilan ishladi. Bunday holatlarda ruhiy buzilishlar (85%), asab va his-tuyg'u a'zolari xastaliklari, (109%) nafas olish xastaliklari (108%) ortishi ko'zga tashlanadi.

Pestitsid ommaviy ravishda qo'llaniladigan mintaqalarda ishlaydigan aholi o'rtasida boshqa tumanlardagiga nisbatan ko'p ziyon ko'rish va xastalanish hollari muntazam kuzatuvlar davomida aniqlangan.

Tabiatda turli ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishiga baho berish borasida bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan diqqatga sazovori stress-indeks deb yuritiladigan tizimni ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tabiatdagi har xil toifadagi ifloslantiruvchi moddalarning stress-
indekslari.**

№	Ifloslantiruvchi moddalar	Stress-indeksi
1.	Pestitsid	140
2.	Og'ir metallar	90
3.	Oltinugurt gazi va uning hosil bo'ladigan mahsulotlar	72
4.	Uglerod gazi	75
5.	To'kilgan neft	48
6.	Sanoat korxonalarini chiqindi suvlari	48
7.	Kimyoviy o'g'itlar	30
8.	Qattiq chiqindilar	35
9.	Organik chiqindilar	24
10.	Azot gazi	24
11.	Radioaktiv chiqindilar	20
12.	Shahar chiqindilari	16
13.	Havo uglevodorodlari	10
14.	Issiq chiqindilar	5
15.	Shahar shovqun-suroni	4
16.	Uglerod gazi	9
17.	Fotokimyoviy oksidlari	12

Mutaxassislar taklif qilgan stress-indekslarining ko'rsatishicha, atrof-muhit uchun eng xavfli ifloslantiruvchi modda pestitsiddir.

Lekin mualliflarning fikricha, kelajakda hozir ushbu ro'yxatda 2-o'rinni egallab turgan og'ir metallar, eng xavfli moddalar bo'lishi mumkin. Hozirgi paytga kelib bu ko'rsatkich mahalliy o'q'itlardan foydalanish hisobiga ancha kamaygan.

Tahlil hisobotlari shuni ko'rsatadiki respublikamizda saqlanayotgan eskirgan pestitsitlar miqdori 1432,7 tonnani, shundan: turg'un organik pestitsid 118 tonnani tashkil etadi, ya'ni 15 ming tonnaga yaqin pestitsid bo'lib, ular maxsus qabristonlarda saqlanadi. Respublikamizda bunday qabristonlar 13 tani tashkil qiladi.

Turg'un organik zaharlovchi moddalarni xalqaro huquqiy mexanizmi, Stokgolm Konvensiyasi hisoblanib, maqsadi SOZ lardan atrof-muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilishdir. 2004 yil 17 may oyidan bu Konvensiya kuchga kirdi va bu Konvensiya 151 ta mamlakatda imzolandi, 59 ta davlat esa ratifikatsiya qilindi. Maqsad – 12 ta zararli turg'un organik moddalardan foydalanishni to'xtatish va ishlab chiqarmaslik.

Mamlakatimizda o'tgan asrning 80-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar homiladorlik va tug'ish paytidagi murakkabliklar, o'lik tug'ilishlar, chaqaloqlardagi nuqsonlar pestitsid ishlatish miqdoriga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu narsa aniqlandiki, pestitsid ko'p ishlatiladigan rayonlarda salomatlik ko'rsatkichlari juda yomon ahvolda. Mutaxasislarning fikricha, "Pestitsidlar ayrim kimyoviy dorivor radiatsiya kabi, hatto undan ham kuchliroq ta'sir qilishi munosabati bilan tashvishlanishga yetarli asoslar mavjud. Ko'p ishlatiladigan qator kimyoviy moddalar ayrim organizmlarda irsiy nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Atrof-muhitni ifloslantiruvchi kimyoviy moddalarning mutagen imkoniyatini aniqlashning ba'zi usullarini ko'p olimlar o'rganib chiqishgan. Kimyoviy mutagen oqibatlarini o'rganish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab e'tiborni jalb qila boshladi. Keyinchalik adabiyotlarda "supermutagenlar" tushunchasi qaror topdi. U beqiyos mutagenlikka ega bo'lgan holda organizmlar va hujayralarning hayoti faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydigan moddalarni bildiradi. Supermutagenlar radiatsiyaga nisbatan o'nlab va yuzlab mutagen faollikka ega. Atrof-muhitning pestitsid, gerbitsidlar, defoliantlar va hokazolar bilan ifloslanishi oqibatlarini o'rganish hozir eng muhim ekologik muammo bo'lib turibdi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda sof pestitsidlar, shuningdek, inson va jonivorlar uchun xavfli

gorivorlarni qo'llash hajmlarini imkon boricha kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan yaqin vaqtlarda pestitsid bilan ifloslanishga qarshi zudlik bilan choralar ko'rilishini taqozo etadigan tumanlar va viloyatlarni aniqlash kerak. Buning uchun esa pestitsid qoldiqlari bilan alohida mintaqalarning ifloslanishini aniqlaydigan uslubiyotchilar zarur.

O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida inson iste'mol qiladigan suv miqdori ortadi. Suv bilan inson tanasiga har xil zararli moddalar ko'p miqdorda kirishi tufayli ular yanada ko'payishi mumkin.

O'tgan asrning 90 yillariga qadar paxtachilikda agroximikatlar ishlatilish darajasining o'sib borishi o'tkir oshqozon-ichak kassaliklarini keltirib chiqardi.

Tabiatga agrokimyoviy ta'sirlarning oqibatlarini o'rganish vaziyatga baho berishda muhim ko'rsatkichdir. Mutaxassislar mintaqa tog'laridagi daraxt barglarida, o't-o'lanlarda va tuproqda pestitsidlar uzoq muddat saqlanib qolishini aniqlagan. Shuningdek, Oltingugurt gazi ustida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'simliklar gazni sul'fatga aylantirib qolmasdan, oltingugurtni vorod holatiga qaytarar ekan. Binobarin, gaz to'liqini o'tganidan so'ng ayni shu gaz havoni ikki marta ifloslantiradi.

O'tgan asrda mineral o'g'itlarning keng qo'llanishi mintaqada muhim muammo – o'g'itlar bahosining arzonligi va aksariyat aholining ortiqcha o'g'it solish zararini bilmasligi ba'zan hosildorlikni oshirish o'rniga uni pasayishiga olib keladi. O'g'itlardagi azot tuproqda va organizmlarda nitratlarga va ularga nisbatan 20 marta zaharli xatarli moddalarga aylanadi. Suvda, yem-xashakda ularning mavjudligi juda o'tkir oshqozon-ichak buzulishi, zaharlanishlar va surunkali kasalliklar uyg'otadi. Nitratlar gemoglobindagi 2 valentli temirni uch valentli qilib metgemoglobinga, nitratlarni nitrogemoglobinga aylantiradi. Gemoglobin tarkibida ular 20%ga yetsa, kislorod yetishmasligi yuzaga keladi, 80% yetsa bu fojeadir.

AQSh, Frantsiya va Germaniyada ichimlik suvining har litrida 64-860 milligram nitrat mavjudligidan bolalar xastaliklari kelib chiqqan. Chili va AQShda rak bilan xastalanish ichimlik suvidagi nitratlar miqdoriga bog'liqligi aniqlangan.

Ichaklardagi mikroblar juda xavfli nitrozminlarni yuzaga keltiradi. Sog'liqli saqlash Butunjahon jamiyati belgilagan me'yor bo'yicha oziq-ovqat, ichimlik bilan birga azot birikmalarini bir kecha-kunduzdagi iste'mol me'yori quyidagicha: azotli nitratlari 200 mm.gr; nitratlar 10mm. gr ga to'g'ri kelishi lozim. Issiq iqlimli mamlakatlarda bu me'yor 500 mm.gr gacha, AQSHda 700 mm.gr gacha oshirilgan.

Bizning issiq iqlim sharoitimizda azot o'g'itlaridan ko'p miqdorda foydalanishga ruju qo'yib bo'lmaydi. Zero, AQSHda va Yevropada yog'ingarchilik ko'p bo'lib, tuproq yuvilib turgani bois bu o'g'itdan ko'p foydalanilgan.

Azot o'g'itlarini ishlatish texnologiyasining buzilishi xatarli oqibatlariga olib keladi. Holbuki, har yili azot o'g'itlarining ishlatilishi hajman ortib bormoqda. Chunonchi, 1990 yili 593,4 tonna ishlatilgan bo'lsa, 1995 yilga kelib bu ko'rsatkich 760 ming tonnaga yetdi. Hozir ham bu miqdorlar saqlanib qolmoqda. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, azotli o'g'itlar samaradorligi 40-45%ni tashkil qiladi, qolgan qismi yer osti va yer usti suvlariga o'tib, ularni nitrat bilan ifloslantiradi. Bu ifloslanishning oldini olish borasida O'zFA "Biolog" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi qator amaliy ishlarni amalga oshirmoqda. Bu boradagi sa'y harakatlarni yanada jadallashtirish lozim. Xususan, azot o'g'itlarini qo'llash maxsus dasturni taqozo etadi. U quyidagilarni qamrab olishi kerak:

- tuproq, suv va havoda azotning mahalliy to'planishini hisobga olish;
- sekin yuvilib ketadigan va ekinlar sekin o'zlashtiradigan shakllarni tanlash va boshqa oziq moddalar bilan azotning maqbul tarzda uyg'unlashishiga erishish;
- ekinlarga me'yorida mineral o'g'itlar solish va almashlab ekish monitoringini tashkil qilish;
- o'g'itlarni, zararkunandalarni, hosil sifatini aniqlash tizimini tashkil etish;
- mineral o'g'itlarni mevali va boshqa ekinlarga solish nazoratini tashkil etish va boshqalar inobatga olish lozim.

Markaziy Osiyoda suvdan foydalanish, suvni chiqarish va to'liq foydalanish
(mln. kub. m.)

Suvdan foydalanish turi	Qazog' -iston	Qirg'iz-iston	Tojik-iston	Turkman -iston	O'zbek-iston	Markaziy osiyo
Jami suv resurslari	67500	28500	28300	30400	75100	229800
Shundan:						
Yer usti suvlari	57300	20800	2250	27100	68300	19600
Yer osti suvlari	10200	7700	5800	3300	6800	33800
Suvdan foydalanish jami	45420	12330	13940	26650	65510	163850
Shundan:						
Qishloq xo'jaligida	34620	11420	12900	24420	57870	141240
Sanoat va energetikada	8100	690	670	1910	5780	17150
Kommunal xo'jaligida	2700	220	370	310	1860	5460
Qaytgan suvlar (jami)	16400	2260	6810	7060	25710	58240
Shundan:						
Oqava suvlar	4800	330	850	1330	3850	11160
Zovur suvlari	11600	1930	5960	5730	21860	47080
To'liq foydalanilgan suvlar	29020	10070	7130	19590	39800	105610

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan foydalanish limit bo'yicha amalga oshiriladi.

Suv tanqis bo'lgan qurg'oqchilik yillari esa suvdan foydalanishni muvofiqlashtirish Davlatlararo komissiyasi tomonidan suv taqsimlanadi.

Bobning qisqacha mazmuni

Biosferaga sanoatning ta'sirini o'rganayotib ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rejali tarzda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarishni hududiy jihatdan maqbul ravishda tashkil etish kabi o'zak masalalarni chetlab o'tib bo'lmaydi.

Avtomobil chiqindilari, shunisi bilan xavfliki, birinchidan, ular biosferaning faol zonasiga ta'sir qiladi, ikkinchidan, ularda barcha tirik jonzorlar uchun juda zaharli bo'lgan qo'rg'oshin birikmalari mavjud.

Transport ta'sirining oqibatlarini aniq-puxta bilish mintaqadagi barcha manfaatdor tashkilotlarning o'zaro hamkorligiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligida pestitsidning keng qo'llanilishi zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlaydigan kishilarning zaharlanish sonini ko'paytiradi.

Tabiatga agrokimyoviy ta'sirlarning oqibatlarini o'rganish vaziyatga baho berishda muhim ko'rsatkichdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy-ekologik holatga sanoat qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Ijtimoiy-ekologik holatga transportning ta'siri qanday?
3. Ijtimoiy-ekologik holatga qishloq xo'jaligining ta'siri qay darajada?
4. Ijtimoiy-ekologik holatga kimyolashtirishning ta'siri qanday?
5. O'zbekistonda qanday ijtimoiy-ekologik muammolar bor?
6. Ijtimoiy-ekologik holatga atmosferaning ta'siri qanday?
7. Ijtimoiy-ekologik holatga suvdan foydalanishning ta'siri qay darajada?
8. Ijtimoiy-ekologik holatga pestitsitlar foydalanish qay darajada ta'sir qiladi?

9. Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv resurslaridan qanday tartibda foydalaniladi?
10. Ijtimoiy-ekologik holatni yaxshilashning qanday yo'llarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar, 2005 y.
3. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov SH. Ijtimoiy ekologiya. - T. 2004.
4. Abirqulov Q. N., Xojimatov A., Rajabov N., Atrof-muhit muhofazasi. - T., 2004.
5. Гирусов Э. В. Экология и экономика природопользования. М. 2002.
6. Степановских А.С. Прикладная экология. – М.: ЮНИТИ, 2003.
7. Tog'li hududdagi ko'lanka. "Ma'rifat" gazetasi. 10 sentabr 2005.
8. Национальный доклад. Chinor ENK. 2005. 20, 22, 46-б.
9. Abirqulov Q. N., Xojimatov A. Ekologiya. T., 2004 y., 51-b.

7 - bob. Orol va orol bo'yida ijtimoiy-ekologik vaziyatning keskinlashuvi

7.1.Orol dengizining qurib borish sababari

Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo darajasiga ko'tarildi. Orol dengizi muammosi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo so'nggi o'n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo'ylab sug'orish tizimlarining rivojlanishi ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdagi fojia - Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi.

Yaqin-yaqinlargacha cho'lu sahrolardan o'zlashtirilgan sug'oriladigan yangi yerlar haqida dabdaba bilan tilga olinadi. Ayni chog'da ana shu suv Oroidan tortib olinganligi, uni "jonsizlantirib qo'yganligi" xayolga kelmasdi. Endilikda Orol bo'yi ekologik kulfat hududiga aylandi. Bu muammo insoniyat tarixidagi yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta'sirida qoldi. Biz mana 20-25 yildirki, jahondagi eng yirik yopiq havzalardan birining yo'qolib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biroq bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz halok bo'lgan hol hali ro'y bergan emasdi. 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 km^3 ni, yuzasi 66000 km^2 va minerallashuv darajasi 1 litr suvda 10-11 gr ni tashkil etgandi.

Dengiz transporti, baliq xo'jaligi, iqlimning shakllanishi sharoiti jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan, unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 km^3 suv kelib quyilar edi. 1994 yilga kelib, Orol dengizidagi suvning sathi - 32,5 metrga, suv hajmi 400 km^3 dan kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 32,5 ming km^2 ga tushib qoldi, suvning minerallashuvi 2 barobarga ortdi. Orol dengizi suv sathining 20 metr pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki 2 ta qoldiq ko'lga aylanib qoldi. Uning sohillari 80-100 km ga chekindi. Amudaryo bilan Sirdaryoning deltalari jadal sur'atlar bilan buzilib bormoqda. Dengizning suv

qochgan tubi 4mln ga dan ortiqroq maydonda ko'rinib qoldi. Natijada yana bitta "qo'lbola" qumli - sho'rxok sahroga ega bo'ldik. Shamol Orol dengizining qurib qolgan tubidan tuz va chang-to'zoni yuzlab km ga uchirib ketmoqda.

7.2. Orol dengizi va uning atrofidagi bugungi ijtimoiy-ekologik vaziyat

Orolning qurib qolgan tubidan chang bo'ronlari 1975 yildayoq kosmik tadqiqotlar natijasida aniqlangan edi. O'tgan asrning 80-yillari boshlaridan buyon bunday to'fonlar bir yilda 90 kun davomida kuzatilmoqda. Chang bo'ronlarining ta'sir doirasi esa 300 kilometrgacha yetmoqda. Mutaxassislar bergan ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda har yili atmosferaga 15-75 million tonna chang ko'tariladi. Bularning hammasi Orol bo'yi iqlimining o'zgarishiga olib keldi. 1983 yildan boshlab Orol dengizi baliq ovlashga yaroqsiz bo'lib qoldi. Sohilning hozirgi chizig'idan yiroqlarda baliqchilarning qachonlardir qudratli bo'lgan flotiliyasi zang bosgan qoldiqlarini, vayronaga aylangan baliqchilar posyolkalarini uchratish mumkin. Bo'zko'l, Oltinko'l, Qaratma ko'rfazlari yo'qoldi. Akpetki arxipelagi quruqlik bilan qo'shilib ketdi. Yaylovlar va o'tloqlar yo'qolib bormoqda. Hudud botqoqqa aylanmoqda. Suvning tobora taqchillashib borayotganligi va sifati yomonlashayotganligi tuproq va o'simlik qatlamining buzilishiga, o'simlik va hayvonot dunyosida o'zgarishlar yuz berishiga, shuningdek, sug'orma dehq'onchilik samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Orol dengizining qurib borishi tufayli Orolbo'yi mintaqasida tabiiy muhitning buzilishi ekologik fojia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo'ronlarining paydo bo'lishi, faqat Orol bo'yida emas, balki dengizdan ancha yiroqdagi bepoyon hududlarda yerlarning cho'lga aylanishi, iqlim va landshaftlarning o'zgarishi – bular ana shu fojia oqibatlaridir.

Orol fojiasini o'tgan asrning 70-80 yillarda dengizning sathi unchalik pasaymagan bir paytda idora qilish mumkin edi. Hozirgi vaqtda esa bu jarayon yana ham mushkullashgan. Natijada Orol dengizi atrofida, ayniqsa,

Qoraqalpog'iston Respublikasida, Xorazm viloyatida aholi salomatligi uchun xavfli og'ir ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik vaziyat vujudga keldi. Kasalga chalinish darajasi, ayniqsa, ayollar va bolalar o'rtasida ko'tarildi, o'lim ham ko'paydi.

Boz ustiga Orolbo'yi aholisi salomatligining yomonlashuviga ekologik omillardan tashqari, tibbiyot tizimidagi kamchiliklar, bir qator aholi istiqomat qiladigan joylarda markazlashgan vodoprovod tizimining yo'qligi ham sabab bo'lmoqda. Masalan, Qoraqalpog'istonda shahar joylarning bor-yo'g'i 11%i vodoprovod tizimi bilan ta'minlangan xolos, qishloqda esa bunday tizim butunlay yo'q.

Qishloq xo'jaligini kimyolashtirishni kuchaytirish va boshqa ko'rinishdagi salbiy antropogen ta'sir mintaqa ekologik tizimida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

Nazoratsizlik va hech qanday sarf – xarajatsiz suvdan foydalanish, shuningdek, almashlab ekishlarning yo'qligi suvdan samarasiz foydalanishga olib keldi.

Orol bo'yida dengizning qurib borishi munosabati bilan halqaro ahamiyatga molik bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi. Bunday muammolarni hal etish hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ancha murakkab bo'lishiga qaramasdan, respublikada bu borada bir muncha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Orolni sog'lomlashtirish, uni suv bilan ta'minlash, dengiz atrofidagi ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan ibratli ishlar boshlandi.

7.3. Orol dengizini qutqarish uchun harakat chora-tadbirlar

Orol dengizining qurib borishi va mintaqaning cho'lga aylanishi bilan bog'liq ekologik fojia bu havzada yashayotgan barcha halqlar boshiga tushgan mudhish hodisa. Suv resurslari bilan bog'liq bo'lgan muammolar majmuasi keng ko'lamlı yondashuvni, mintaqadagi davlatlar bilan Halqaro hamjamiyat o'rtasida

hamkorlikni rivojlantirishni talab qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1993 yil mart oyida Qizilo'rdada bo'lib o'tgan uchrashuvi ana shu muammolarni hal qilish yo'lidagi turtki bo'ldi. Bu uchrashuvda Orol dengizidagi vaziyatni hal etish yuzasidan birgalikda harakat qilish to'g'risida bitim imzolandi. Dengiz muammolari bo'yicha Davlatlararo kengash va uning ishchi organi Ijroiya qo'mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish halqaro fondi tashkil etildi. Markaziy Osiyo respublikalari davlat rahbarlarining 1994 yil yanvarida Nukus shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvda Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin uch-besh yilga mo'ljallangan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi. 1994 yil mart oyida Toshhovuzda bo'lgan uchinchi uchrashuvda Davlatlararo kengashining ushbu dasturi bajarilishi haqidagi hisbot tinglandi.

1997 yil fevralda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining BMT, Jahon banki va boshqa halqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida Almata shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda Orol dengizi muammosini hal etish bo'yicha tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Orolni qutqarish halqaro fondining ishchan tarkibi va uning negizida Harakatdagi ijroiya qo'mitasi tuzildi.

Orol muammosining keskinligini, uni saqlab qolish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish zarurligini tushungan holda, Markaziy Osiyo davlatlarining mutaxassislari va mintaqaning ilmiy jamoatchiligi 1995 yil 20 – sentabrda Nukus shahrida Orol dengizi havzasini barqaror, rivojlantirish muammolari bo'yicha Deklaratsiyasini qabul qildilar. Deklaratsiya barqaror rivojlanish qoidalariga qat'iy amal qilishni nazarda tutadi va e'tiborni quyidagi g'oyat muhim muammolarni hal qilishga qaratadi:

- qishloq va o'rmon xo'jaligi rivojining muvozanatli va ilmiy asoslangan tizimiga o'tish;
- suv resurslaridan foydalanishning tejamliligi usullarini ishlab chiqish, sug'orishda va atrof-muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni

qo'llash, sug'orish tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, bozor munosabatlariga o'tishda suvdan foydalanganlik uchun haq to'lash masalasini ham joriy qilish;

- mintaqaning tabiiy resurslaridan foydalanishni kompleks boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari;

- Orol muammosini hal qilish, bu mintaqada yashayotgan odamlarning turmush darajasi pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, kelajakda yosh avlod uchun munosib turmush sharoitini ta'minlash uchun uzoq muddatga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish.

8-jadval

Orol dengizi havzasida sug'oriladigan yerlar, suv olish va kollektor-zovur oqimining o'sishi

Yillar	Davr oxiriga			O'rtacha (1.ga.da ming kub. m.)	kollektor- zovur oqimi, (km3.)
	maydon (ming ga.)	suv olish (km. kub.)	mineral- lashganligi (l l da gr.)		
1900-1915	3246, shundan 2000 nomuntazam	10-15	0,3-0,4	2-6	-
1916-1931	3071	20	0,3-0,5	5,3	-
1941-1950	4545	32,1	0,3-0,6	7,1	1-2
1951-1960	4982	40,4	0,3-0,7	8,2	5-6
1961-1970	5129	50,3	0,5-1,0	9,8	10-12
1971-1980	6127	65,8	0,7-1,0	10,7	29-30
1981-1985	6930	86,0	1-2,5	12,4	32-34
2000-2005	7350	89,0	1-2,5	13,3	36-37

Ushbu jadvaldan ko'riib turibdiki, 2005 yilda suv olish 89 km³ ni tashkil etgan.

Orol havzasidagi aholi sonining muntazam ortib borishi sug'oriladigan dehqonchilikni muntazam rivojlantirish zarurati yuzaga keltiradi. Natijada daryolar suvidan ko'plab suv olishni taqozo qiladi.

Asr oxirida kosmik suratlar va maxsus ekspeditsiyalar – axborotlar manbai hisoblanadi. 2000 yilda aerofoto suratlari shuni ko'rsatadiki, Orol dengizidagi uch mingdan ortiq ko'llardan O'zbekiston hududida 770 tasi joylashgan bo'lib, ularning 500 tachasi Amudaryo havzasida, qolganlari esa Sirdaryo havzasidadir. Ularning umumiy maydoni (Oroldan tashqari) 6,6 ming km². tashkil etadi. Bu ko'llar asosan kichik suv havzalari bo'lib, suv maydoni 1km². dan kichikdir. Mamlakatimiz ko'llarining 95 % zi shunday kichik ko'llardan iborat bo'lib, dengiz suvi hajmning atigi 3 % ida to'g'ri keladi. Ko'l suvlarining asosiy qismi Orol dengiziga, Haydarko'lga, Sariqamish va Dengizko'lga to'g'ri keladi.

Yerning sun'iy yo'ldoshi orqali olingan aerofoto suratlar shuni ko'rsatadiki, dengiz uch qismga bo'linib qolgan. 2005 yilda Orol dengizi suv hajmining beshdan to'rt qismida, yuza maydonining uchdan ikki qismida, suv sathi 22 metrga tushgan, suvning sho'rliigi esa 6-12 martaga oshgan. Dengiz o'z qirg'og'idan 100-150 km gacha chekinib, ortida 45 ming km². qurigan maydon qoldirgan. 2003 yildan boshlab oldingi yillarga nisbatan suv ko'p tushgan.

Bobning qisqacha mazmuni

Hozirgi kunda Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo'lib qoldi. Bu muammo so'nggi o'n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Endilikda Orolbo'yi ijtimoiy-ekologik kulfat hududiga aylandi. Orol dengizining qurib qolgan tubidan har yili atmosferaga 15-75 mln. tonna tuz va chang to'zoni ko'tariladi.

Orol bo'yida dengizning qurib borishi munosabati bilan halqaro ahamiyatga molik bo'lgan keng ko'lamli ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Orol dengizining qurib borish sabablarini ko'rsating.
2. Orol dengizining hozirgi holati qanday?
3. Orol dengizini saqlab qolish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni aytib o'ting.
4. Orol dengizini saqlab qolish yuzasidan halqaro tashkilotlar qay tarzda amaliy ishlarga qo'l uryapti?
5. Orol dengizi va uning atrofidagi ijtimoiy-ekologik vaziyat qanday?
6. Orol dengizi qurigan qismining tabiiy sharoiti to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Orol dengizi inqirozidan qutilishning qanday yo'llarini belgilash mumkin?
8. Orol bo'yi aholisini ichimlik suvi, tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanishi qay darajada?
9. Orol bo'yidagi vaziyatni o'simlik va hayvonot do'nyosiga ta'sirini tushuntiring.
10. Orol dengizi qurishidan kelib chiqadigan ekologik saboqlar haqidagi tushunchangiz.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston – XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari. – T., O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar. 2005 y.
3. Rafiqov A.A. Orol taqdiri. – T., 1990.
4. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. – T., 1997.

5. Национальный доклад. О состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов. РУз. –Т., 2002.
6. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Ekologiya; –Т., 2004.
7. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov SH. Ijtimoiy ekologiya, – Т., 2004.
8. Abirqulov Q. N., Hojimatov A., Rajabov N. Atrof – muxit muhofazasi. –Т., 2004.
9. Банников А. Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. М. 2000.

8- bob. Ijtimoiy ekologiyaning siyosiy jabhalari

8.1. Ekologik siyosat – ijtimoiy–iqtisodiy siyosatning bir ko‘rinishi

Insoniyat rivojining hozirgi bosqichida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar halqaro tashkilotlar, hukumatlar, jahon jamoatchiligi e‘tiborini tobora ko‘proq o‘ziga tortmoqda. Bu fan texnika taraqqiyotining ekologik oqibatlarga keng ko‘lamli ijtimoiy yondashuv zarurati bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda, fan-texnika taraqqiyoti yaqin istiqbolda har xil ijtimoiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, fan-texnika inqilobining oqibatlari ko‘p jihatdan barcha mamlakatlar uchun umumiy ahamiyatga ega. Atrof-muhitni muhofazalash vazifasi, shuningdek ilmiy asoslangan ekologiya siyosatini ishlab chiqish muammolarini hal etishga umuminsoniy yondashuvni talab qiladi.

Ekologik siyosat deyilganda davlatning “Tabiat-jamiyat” tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solish vazifasini eng qulay va samarali amalga oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatni tushunmoq lozim. Turli ijtimoiy tizimlarda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarining qonuniyatlari, sharoitlari va shakllanishi, shuningdek, o‘zaro aloqalarni qulaylashtirish hamda ularni boshqarishni o‘rganadigan siyosiy ekologiya bunday siyosatning ilmiy-uslubiy bazasi hisoblanadi. Ekologik siyosatni ishlab chiqishda hozirgi zamon ilmiy majmuasi vakillarining qatnashishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur siyosat davlat boshqaruviga doir qarorlarida umumiy ifodasini topadi.

Hozirgi vaqtda ekologik siyosatni ishlab chiqishda dunyoda muayyan tajriba to‘plangan. Davlatning joylardagi markaziy va mahalliy organlari, ishlab chiqarish, jamoat va boshqa tashkilotlarning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu jamiyatning atrof tabiiy muhit bilan o‘zaro aloqalariga daxldordir:

– birinchidan, bu go‘yo tabiatni “konservativ” muhofaza qilish, ya‘ni qo‘riqxonalar hududlari, milliy bog‘lar va o‘rmonlar, biosfera qo‘riqxonalari hamda xo‘jalik muomulasidan chiqarilgan tabiatni muhofazalash obyektlarini,

shuningdek, o'simliklar va hayvonot olamini tabiiy holatda saqlashning tashkiliy-huquqiy choralarini ishlab chiqish;

– ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatdagi ekologik muvozanatni hisobga olib, hududlarni, xom-ashyoning energiya manbalaridan foydalanish rasamadini xaritalashtirish, foydali qazilmalarni qazib olishni tartibga solish va boshqalar;

– uchinchidan, suv, havo va yerni muhofaza qilish, shovqin-suron va radiatsiyaga qarshi kurash, chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish, aholi dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratish va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, ekologik siyosat jamiyat va tabiatning o'zaro aloqalarini tabiiy holatida boshqarishning murakkab va majmuaviy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida inson huquqlarining mutlaqo yangi tarkibiy qismi – ekologik huquq oldingi o'ringa chiqarilmoqda. Rivojlangan davlatlarda fuqarolarning qulay atrof-muhitga, ekologik muvozanatni saqlashga bo'lgan huquqi masalalariga juda jiddiy yondashilyapti. Bu mamlakatlarning konstitutsiyasida ham bevosita yoki bilvosita yozib qo'yilgan va u tegishli iqtisodiy jihatlar bilan ta'minlanadi. Respublikamiz Konstitutsiyasining bir qator moddalarida tabiat muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni kelajak avlod uchun saqlash masalalari qayd etilgan. Jumladan, bosh qomusimizning 50-moddasida qayd etilganidek: "Fuqoralar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar". Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummiliy boyliklar hisoblanadi, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir 12-bobning 55-moddasida shu tarzda jamiyatning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari huquqiy tizimga kiritilgan.

8.2. Ekologik siyosatning tuzilmasi

Ekologik siyosatni ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ko'rinishlaridan biri deb izohlash mumkin. U tegishli ishlab chiqarish turi, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy shakllari va shaxs omillariga asoslangan, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tanlash va amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ekologik siyosat strategik maqsadni ham ko'zlaydi, ya'ni jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda odamlar turmushini, mehnatning qulay tabiiy sharoitlarini, shuningdek, tabiatdan foydalanishning u yoki bu yo'nalishlarini takomillashtirish masalalarini qamrab oladi.

Ekologik siyosat olimlar va mutaxassislar, davlat va jamoat tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqiladi va qonunlar hamda me'yoriy hujjatlarda mujassamlashadi.

Ekologik siyosatni ishlab chiqish muayyan qonun-qoidalar majmuiga asoslanadi. Bu jamiyatni rivojlantirishning aniq, ichki va tashqi omillarini va uning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, inson va tabiatning o'zaro ta'siri jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning belgilovchilik ahamiyati, jamiyat hayotining ekologik va boshqa jihatlari birligi, ekologik vazifalarning xo'jalikni oqilona yuritish imkoniyatlarini ta'minlash, uzluksiz rivojlanish zarurati kabilaridan iboratdir.

Shubhasiz, ekologik vaziyatning keskinlashuvida fan va texnika ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash bilan birga kelgusida bu vazifa yaxshilanishida ham uning roli katta ekanligini e'tiborga olish lozim. Ammo bu holat muayyan jamiyat doirasida mazkur jamiyat muassasalari amalga oshiradigan siyosat va bu siyosatni amalga oshirish uslublari, ko'zlangan aniq maqsadlar doirasida yuzaga chiqadi.

Har qanday siyosat kabi ekologik siyosat ham aniq-ravshandir. U obyekt (ijtimoiy-ekologik tizim) ning o'rganganlik darajasi, davlat rivojining ichki va tashqi shart-sharoitlari, bunday siyosatni amalga oshirish uchun jamiyat ega bo'lgan moddiy imkoniyatlar bilan izohlanadi.

O'tgan asrning 30-yillari boshlarida tabiatni muhofazalash yo'lidan chekinish ro'y bera boshladi. Tabiatni o'zgartirish g'oyasi ustun tus oldiki, bu amalda tabiiy jarayonlarning jiddiy ravishda buzilishiga olib keladi. 30-50 yillar mobaynida ijtimoiy ongda tabiatga iste'molchilik munosabatlari mustahkamlandi, tabiat boyliklarining bitmas-tuganmasligi to'g'risidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Inson va tabiatning o'zaro munosabatlari muammosiga ilmiy yondashishga urinish sanoat va qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish afzalligidan kelib chiqqan ma'muriy qarorlarga to'qnash keldi. Ekologik siyosat muayyan bosqichlarga bo'linadi. Quyida biz ushbu bosqichlarni ko'rib chiqamiz.

1.3. Ekologiya siyosatning bosqichlari

Ekologik siyosat bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Taxminan o'tish davriga to'g'ri keladi. U davlatning mamlakatda tabiatdan foydalanishning tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy shakllarini tartibga solishga qaratilgan faol qonunchilik faoliyati bilan tavsiflanadi. 1917 yildan 1936 yilgacha bo'lgan davrda bu borada umumdavlat ahamiyatiga molik 25 ta yirik hujjat qabul qilingan. Ular orasida Halq Komissarlari Kengashining "Er osti to'g'risida"gi dekreti (1922 yil, 30 aprel), "O'rmon xo'jaligini tashkil etish" (1939 yil, 31 iyul), "Baliq ovlashni tartibga solish va baliq resurslarini muhofaza qilish" (1935 yil, 25 sentabr) to'g'risidagi qarorlari va boshqa hujjatlar bor. Ayni bir vaqtda moddiy mablag'larning yetishmasligi oqibatida mamlakatda tabiatdan foydalanishni takomillashtirish sohasida umumdavlat ahamiyatiga molik yirik amaliy tadbirlar hayotga tatbiq qilinmadi.

2-bosqich. Taxminan o'tgan asrning 30-yillari o'rtalarida boshlanadi. U tabiatdan foydalanishni tartibga solishdagi sustkashlikdan tabiatni o'zgartirishning ulkan miqyosli faol ishlariga o'tish (qudratli gidrostansiyalar, kemalar qatnaydigan

va sug'orish kanallari qurilishi, o'rmonlar barpo etish, qo'riq yerlarni shudgorlik bilan tavsiflanadi.

30 yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga olgan bu bosqich murakkab va ziddiyatli ekologik muhitni yuzaga keltirgan. Odamlarning madaniy faoliyati ko'p hollarda insonning tabiat ustidan hukmronligi degan teskari talqinli g'oyaga asoslandi. Shu boisdan bu faoliyat ko'pincha to'ridan-to'g'ri tabiatni bo'ysundirishga yo'naltirildi. Ko'p jihatdan adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularning kuchaya borishi tufayli bunday xatti-harakatlarning oqibatlari bir necha o'n yillardan keyin sezilib qoldi. Lekin, tabiatdan foydalanish muammolariga davlat organlarining e'tibori susayib ketdi. 1937 yildan 1960 yilgacha bu ishni tartibga solish bo'yicha bor-yo'g'i 11 ta yirik hujjat qabul qilindi, ya'ni qonunchilik faolligi bir necha marta sustlashadi.

Tabiatdan foydalanish jabhasidagi ahvol ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda yanada murakkablashdi, sababi halq xo'jaligini tiklash uchun g'oyat katta mablag' sarflashga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy-ekologik siyosatdagi qiyinchiliklar, tabiatdan nuqul manfaatparastlik bilan foydalanish va uni muhofaza qilishga yetarli e'tibor bermaslik qator salbiy oqibatlarga olib keldi: atmosferaning ifloslanishiga, bio-resurslardan nooqilona foydalanishga, ichki suvlarning kamayishi va ekologiyaning buzilishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi ekinzorlari eroziyasi jarayonlari kuchaydi, qazilma boyliklar konlaridan oqilona foydalanilmaslik hollari paydo bo'ldi va boshqalar.

Hozirgi taraqqiyot, rivojlanish, vaziyatning o'zi, ekologik siyosatni o'zgartirish, kerak bo'lsa uning yangi bosqichiga o'tishni taqozo etadi.

3-bosqich. 1967 yildan 1991 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr davlatning qonun chiqaruvchilik faoliyati kuchayishi, tabiatni muhofaza qilish sohasiga mablag' ajratishni faollashtirish, tabiatdan foydalanishni boshqarishning markazlashgan tizimi shakllanishi bilan tavsiflanadi. Shu yillar mobaynida tabiatdan foydalanishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi 70 ta umumdavlat

hujjatlari qabul qilindi. Bu davrda tabiatni muhofaza qilish sohasiga markazlashgan kapital mablag' sarflash hajmi o'sdi. Hukumatning 1972 yil 29 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilishni kuchaytirish va tabiat boyliklaridan foydalanishni yaxshilash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish davlat rejasiga tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga bag'ishlangan maxsus bo'lim kiritildi. Davlat rejalashtirish qo'mitasi huzurida esa Tabiatni muhofaza qilish bo'limi tuzildi. Sobiq ittifoqning ba'zi bir respublikalarda tabiatni muhofazalashga mas'ul vazirliklar va qo'mitalar tashkil etildi.

4-bosqich. Respublikamizda tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq tashkil etildi va ekologik siyosatni amalga oshirish yuzasidan jadal faoliyatini boshladi.

Lekin ayni paytda tabiatni o'zgartirishning ulkan loyihalarini amalga oshirishga intilishga, aniq ijtimoiy ehtiyojlarga va qilinayotgan ishlarning ekologik oqibatlariga kam e'tibor berildi. Bunda Orol dengizining qurishi natijasida ko'kka sovurilgan pullar va halokat sari borayotgan nodir tabiiy obyekt yorqin misoldir.

Zararli chiqindilarni atrof-muhitga chiqarib tashlashni cheklashlarning joriy etilishi tabiiy muhit sifatini ilmiy va texnikaviy jihatdan asoslangan holda boshqarish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ammo bu tadbirlar tegishli hajmdagi kapital mablag'lar va belgilangan pudrat bilan mustahkamlanadi; ularni bajarishda qurilish va montaj qilish tashkilotlari manfaatdorligini ta'minlovchi moddiy rag'batlar haqida o'ylab ko'rilmadi.

8.4. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati, davlat dasturi va uni amalga oshirish bosqichlari

Ekologik siyosat umumdavlat miqyosida amalga oshirilsa atrof-muhitni yaxshilashning belgilangan chora-tadbirlari samarali bo'ladi. O'zbekistonda bu masalaga mustaqillikka erishilgandan keyin alohida e'tibor berila boshlandi.

Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikni tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1997) asarida ekologiya muammolari boshqa davlat ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, tashqi siyosat tarkibida atroflicha tahlil qilinib, amalga oshiriladigan vazifalar aniq-ravshan belgilab berilgan. Asarda respublikada yaqin kelajakda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishning taktika va strategiyasiga asoslangan.

Ekologik siyosat tuzilmasi ancha murakkab va mazmunan boy. Bunda ekologik javobgarlik, oqilona makroiqtisodiy va tarmoq siyosatini tadbir etish, atrof-muhit sifatining andozalari va vazifalarini aniqlash, sanoat va transportning tabiiy muhitni ifloslantirish darajasini tartibga solish borasida iqtisodiy mexanizmni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishda qonunchilikni rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tuzilmasini takomillashtirish, monitoring va ekspertiza vazifalarini yanada takomillashtirish, ekologik madaniyatni oshirish bu borada ta'lim-tarbiyani yanada yaxshilash hamda samaradorligini oshirish kabi jihatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Ulardan ba'zilarini tahlil qilamiz.

Qishloq xo'jaligida ekologik muammolarni hal qilish ko'p omillarga bog'liq. Tarmoq siyosati, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida katta iqtisodiy va ekologik samara beradi. Bozor munosabati bilan joriy qilinayotgan xususiyashtirish tadbirlari qishloqda inqilobiy xususiyatga ega. Chunki davlat buyurtmasini sekin-asta yo'qota borish, dehqonlarni o'zlari ekin turlarini aniqlashi, dotatsiyadan qutulish, savdoni davlat tasarrufidan chiqarish kabi tadbirlar resurslardan to'g'ri foydalanish siyosatini amalga oshirishga katta imkoniyatlar beradi. Bu siyosat quyidagilarni nazarda tutadi:

a) yerga bo'lgan egalik munosabatini tubdan o'zgartirish. Bu muammoni ijobiy hal qilish dehqonlarni sug'orma va lalmi yerlarga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi, dehqon o'ziga ajratib berilgan yer maydonidan manfaatdor. Chunki, u endi yerga o'z mulkidek munosabatda bo'lib, uning mahsuldorligini muttasil oshirib borishga harakat qiladi, turli tabiiy-antropogen jarayonlar ta'siridan saqlash

uchun muntazam kurashadi, uning har bir qarichidan maksimal foydalanishga intiladi. Bozorda talab va taklifni o'rganib eng xaridorgir ekin mahsulotlarini sifatli qilib yetishtirish harakatida bo'ladi;

b) yerdan foydalanishni isloh qilish natijasida ekologik masalalarni e'tiborga olish birinchi darajali amaliy ahamiyat kasb etadi. Dehqon xo'jaligi, fermerlar, paychilar, oila pudratchilari yerning mahsuldorligini saqlab qolish va uni yanada yaxshilash maqsadida mavjud tuproqni muhofaza qiluvchi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish hamda yangi muhandislik, o'rmon-meliorativ va agromeliorativ tadbirlarni rejalashtirishga intiladilar. Chunki, bozor raqobati dehqonni o'z uchastkasida sifatli mahsulot yetishtirish ilinjida barcha choralarni qo'llash bilan har yili xaridorgir xom-ashyo va tayyor mahsulot yetishtirishni taqozo qiladi. Bu bilan ishlab chiqarishning asosiy vositasi sug'orma yerdan oqilona foydalanadi. Bu jihatdan dehqon yoki fermer xo'jaligi kolxoz, sovxoz ishlab chiqarishidan tubdan farq qilishi aniq. Zahmatkash xalqimizda «Sen yerni boqsang, yer seni boqadi» degan naql borki, u amalda necha asrlardan beri sinalib kelinmoqda. Shu ma'noda har bir qarich yerdan oqilona foydalanish va yerning hosildorligini tobora ko'tarib borish tamoyilida mehnat qilish, yerga sidqidildan to'g'ri munosabatda bo'lish natijasidagina amalga oshirilishi mumkin. Bu bilan nafaqat dehqon xo'jaligi, shuningdek tabiat muhofazasi borasida davlat ham manfaatdor. Chunki, yer muomaladan chiqib ketmaydi;

v) davlat sug'orma yerlarini uzoq muddatda oilaviy pudrat, fermer xo'jaligi, paychilik xo'jaliklariga berilishi yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq mexanizmini takomillashtirish va chuqurlashtirish, yer va suvdan foydalanishni yaxshilash imkonini beradi;

g) turli turdagi tuproq va har xil mahsuldorlikdagi sug'orma yerlarda yetishtirilgan mahsulotlar bahosini aniqlash hamda soliq siyosatining optimal bo'lishiga erishish mexanizmlari yaratiladi.

Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" mavzuida qilgan ma'ruzasida ham tabiat muhofazasiga oid yangi

vazifalarni belgilab berdi. Chunonchi, 2005 yilga qadar qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash 85 % ga, tabiiy gaz bilan ta'minlash 82% ga yetkazilishi kerak edi. Bundan, shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak, qishloq aholisining katta qismi toza ichimlik suvi bilan ta'minlansa ular orasidagi turli kasalliklar kamayadi, tabiiy gaz bilan qishloqlar ta'minlanishi o'sib turgan daraxtlarni o'tin qilib yoqishning oldini oladi. Binobarin, o'rmonzor maydonlarning kengayishi jadallashadi. Bu davlat miqyosidagi ekologik siyosatdir.

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'risida"gi qonun belgilab berdi. Mazkur qonunga muvofiq respublikada tabiatni muhofaza qilishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish Oliy Majlisning zimmasiga yuklatilgan. Bularga tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat ekologik siyosatini belgilash, davlat tabiatni muhofaza qilish davlat dasturlarini tasdiqlash, shu sohaga oid respublika qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish, tabiatni muhofaza qilishga taalluqli qonunlar ijrosini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish va boshqa vazifalar kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish ishlariga umumiy rahbarlik Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Qonunning 8-moddasida «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlat boshqaruvi tizimi» quyidagicha belgilangan: «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, Davlat boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar». Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Oliy Majlisga bo'ysinadi hamda ushbu sohadagi davlat nazoratini amalga oshiradi. Qo'mitaning o'z tarkibiy doirasida qabul qilgan qarorlari davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun ham tegishlidir.

«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda aholining ushbu sohadagi huquq va majburiyatlari, atrof-muhit sifatini me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solish, ekologik nazorat, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va boshqa xususiyatlar belgilab berilgan. Qonunda atrof-muhit monitoringi Davlat ekologik muhit holatini kuzatib borish xizmatiga yuklatiladi.

O'zbekistonda ekologik siyosat yuqorida aytib o'tilganidek bir qator qabul qilingan qonunlar, «Yer to'g'risida»gi (20 iyun 1990 y.), «Qazilma boyliklar to'g'risida»gi (22 sentabr 1994y.), «Suv va suvdan foydalanish» (6 may 1993 y.), «O'simlik olamini muhofaza qilish va foydalanish to'risida» (26 dekabr 1997 y.), «Hayvonot olamini muhofaza qilish va foydalanish to'risida» (26 dekabr 1997 y.), «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida» (7 may 1993 y.), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'risida» (27 dekabr 1996 y.), «Davlat kadastri to'g'risida»gi (30 avgust 2000 y.), «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi (15 dekabr 2000 y.) qonunlar va shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tamonidan qabul qilingan bir qator qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Respublikada ekologik siyosatni hayotga tadbiq etish va vaziyatni sog'lomlashtirish, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, tabiatni muhofaza qilish muammolarini bosqichma-bosqich hal etish maqsadida Davlat dasturlari ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikada yetarli tajriba to'plangan. Davlat dasturlari davlatlararo, yoki, hududiy bo'lishi mumkin.

Davlat ekologik dasturi ilk bor 1986 yilda «O'zbekistonda atrof-muhitni 1986-1990 yillar va 2006 yilga qadar muhofaza qilish majmualii ilmiy-texnik dasturi» ishlab chiqildi. Ushbu dasturda mo'ljallangan tadbirlar to'la amalga oshirilmagan bo'lsada, har holda amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Dasturda belgilangan texnologik va texnik tadbirlarning bir qismining hayotga tadbiq qilinishi ijobiy natijalar berdi. 1986-1989 yillarda ifloslangan oqava suvlarni havzalarga tashlash, atmosfera havosiga chiqarilayotgan chiqindilarning miqdor jihatdan kamayishiga erishildi.

Yuqoridagi dastur tuzish tajribasi 1989 yilda respublikaning 1994-1995 yillar va istiqbolda 2005 yilga qadar tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish Davlat dasturini ishlab chiqishda asqotdi. Mazkur dasturda tabiatni muhofaza qilish va muhitni saqlash tadbirlarida tabiiy muhitning aniqlangan sifat me'yorlari hisobga olingan edi. Shuningdek, ekologik-iqtisodiy samaradorlik nazarda tutilgan. Bu dastur doirasida uzoq muddatli strategik vazifalarning asosiy hamda bosh ustuvor yo'nalishlari, ularning bajarilishi respublika tabiiy muhitining yaxshilanishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Ushbu dastur asosida 1991-1994 yillar mobaynida mamlakatda tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni sog'lomlashtirish faoliyatlari amalga oshirildi. Ammo o'sha vaqtlardagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar mazkur dasturni takomillashtirishni talab etar edi.

1994 yildan boshlab Fan va Texnika Davlat qo'mitasi 15-ilmiy-texnik dasturi "Atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning ilmiy asoslangan yondoshuvlari va muammolari yechimini ishlab chiqish" doirasida bir necha yirik ilmiy va ilmiy-loyiha tashkilotlarining (Fanlar Akademiyasi institutlari, O'zbekiston gidrometeorologiya instituti, Qishloq xo'jaligi Akademiyasi, O'rta Osiyo irrigatsiya instituti va b.) 38 topshiriq va mavzularni bajarishi amalga oshirila boshlandi. Bu respublikada to'planib qolgan turli ekologik muammolarni ijobiy hal qilish, turli tabiat muhofazasi tadbirlarini ilmiy asoslash, atrof muhitni sog'lomlashtirish kabi masalalarning joylardagi yechimini tezlatishga yordam berdi.

1997-1999 yillar mobaynida mamlakatning 2000-2005 yillar va uzoq istiqbolda 2010 yillargacha mo'ljallangan yangi "Atrof – muhitni muhofaza qilish bo'yicha milliy harakat rejasi" ishlab chiqildi. Uni tayyorlashda yetuk mutaxassislar, olimlar va tabiat muhofazasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hamda chet ellik ekspertlar o'z hissalarini qo'shdilar. Yangi dastur tabiat muhofazasi bo'yicha keng qamrovliligi, dunyo andozalariga javob berishi, aniq ma'lumotlar bilan hozirgi mavjud ekovaziyatni haqqoniy baholagani, ma'lum

yillar mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlar ko'lamini atroflicha asoslab berilgani bilan farqlanadi. Unda asosiy ekologik muammolar, ustuvor harakatlar, tabiatni muhofaza qilish sohasida siyosatni ishlab chiqish va institutsional ramkalar, harakat dasturi, ilovalar, qo'shimchalar, chizmalar, jadvallar, sxemalar berilgan. Shubhasiz, bu jamlanma milliy harakat rejasi – dasturi respublikada tabiatni muhofaza qilish borasida katta ishlarni amalga oshirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Bobning qisqacha mazmuni

Ekologik siyosat deyilganda davlatlarning “tabiat-jamiyat” tizimidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishni eng qulay va samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tushunmoq lozim.

Hozirgi davrda ekologik siyosatni ishlab chiqishda mamlakatimizda muayyan tajriba to'plangan. Ekologik siyosat jamiyat va tabiatni rang-barang o'zaro aloqalar holatida boshqarishning murakkab usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida inson huquqlarining mutlaqo yangi tarkibiy qismi – ekologik huquqni oldingi o'ringa chiqarmoqda. Ekologik siyosat olimlar va mutaxassislar, davlat va jamoat tashkilotlarining tafakkuri bilan ishlab chiqiladi va qonunlar hamda me'yoriy hujjatlarda mujassamlashadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ekologik siyosatga ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bir ko'rinishi sifatida ta'rif bering.
2. Ekologik siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan yaxlitligi.
3. Ekologik siyosat tuzilmalarini aytib bering.
4. Ekologik siyosatning asosiy bosqichlarini ta'riflang.
5. Ekologik siyosatning birinchi bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?
6. Ekologik siyosatning ikkinchi bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?
7. Ekologik siyosatning uchinchi bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?
8. Ekologik siyosatning turtinchi bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?

9. Ijtimoiy ekologik siyosatni tartibga soluvchi hujjatlarni bilasizmi?

10. Ijtimoiy-ekologik siyosatning qanday mexanizmlarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari. – T., O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar. 2005 y.
3. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A. N. Ekologiya. – T.: 2004.
4. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. – T. 2004.
5. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A. N. Atrof – muxit muhofazasi. – T. 2004.
6. Гирусов Э. В. Экология и экономика природопользования. М., 2002.
7. Макара С. В. Основы экономики природопользования. – М.: ИМПЭ, 2002.
8. Рыночные методы управления окружающей среды. Уч. пос – М., 2002.
9. Степановских А.С. Прикладная экология. – М., ЮНИТИ, 2003.
10. Atrof muhit muhofazasi, Adolat 2000 y. 170, 218, 219 – betlar.

9 - bob. Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik

9.1. Ijtimoiy-ekologik tafakkurning ahamiyati

Ekologik tafakkur nazariy va amaliy faoliyatda, ijtimoiy-ekologik jarayonlarni boshqarishda, tabiatni muhofaza qilish muammolarini hal etishda dunyo miqyosida umuminsoniy nuqtai nazardan yondashish qonun-qoidalariga amal qilish, demakdir. Har xil miqyosdagi tadbirlarning ekologik yo'naltirilganligi ekologiya muammolarining baynalminal xarakterini chuqur tushunish zaruratini ham o'z ichiga oladi. Ekologiya muammolarining milliy chegarasi yo'q, u tobora ko'proq mintaqalarni qamrab olmoqda. Mazkur muammolarni hal etish uchun barcha halqlar va millatlarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish zarur. Tabiatni muhofaza qilish faoliyatida ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida keskin burilish zarurligini tushunib yetish, davlatlar ichki siyosatining ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganligi eng muhim bosqichdir. Mahalliy boshqaruv tashkilotlarining faoliyatida ana shunday yo'naltirilganlik ro'y bermayotganligi tashvishli hol. Amaliyotning ko'rsatishicha, mavjud ijtimoiy tuzilmalar ijtimoiy-ekologik muammolarni hal etish masalasida sustkashlik qilmoqdalar.

Ijtimoiy-ekologiya muammolariga eng muhim soha deb qarash, tabiatni muhofaza qilish muammolarini oldindan bilish va to'g'ri hal etish ro'y berishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-ekologik ziddiyatlarning oldini olish uchun shart-sharoitlar yaratish ekologik siyosatning muhim yo'nalishidir.

Jamiyatning ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganligi, ya'ni, keng ko'lamli ekologik jarayonlarga rahbarlik qilish va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish; inson, jamiyat va tabiat munosabatlarini muvozanatlashtirish muammolarini hal etishni talab etadi. Ekologik yo'naltirilganlik bir-biri bilan bog'liq ikki darajaga egadir. Birinchi daraja – ekologik madaniyat ko'rsatkichi bo'lmish ekologik tafakkur, ikkinchisi – tabiatni muhofazalash jarayonlarini barcha darajalarda umumdavlat darajasidan tortib alohida korxonagacha bevosita amaliy boshqarish ko'nikmalari bilan bog'liq. Bular orasidagi bog'liqlik shundaki, birinchisi

ikkinchisi uchun uslubiy negizdir, ikkinchisi birinchisiga qaytarma faol ta'sir ko'rsatadi.

9.2. Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik darajalari

Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik dastavval jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlarini, ularning koevolyutsiyasini chuqur bilishni nazarda tutadi. Bunday bilish inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ilmiy asoslangan yo'nalishlari bilan tanishish natijasida shakllanadi. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida ham ijtimoiy, ham tabiatning rivojlanishning obyektiv qonunlarini umumiy birlikda, ziddiyatli va o'zaro bog'liq holatda o'rganish lozim. Pirovardida, amaliy hayotda ijtimoiy-ekologik rivojlanish muammolariga bir tomonlama texnokratik yondashish, eskicha tafakkur qilish, o'zboshimchalik, subyektivizm va ekologik nuqtai nazardan asoslanmagan qarorlar qabul qilishdan halos qiladi.

9.3. Ekologik siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilganligi

Mamlakat hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish rejalari tayyorlanayotgan jarayonda rahbarlar, mutaxassislar va loyihalovchilar oldida bir qator jiddiy masalalar turadi. Shulardan biri taklif etilayotgan korxonalar, bino, yoxud boshqa texnik loyihani qurish yoki amalga oshirishdan oldin u atrof – muhitga qanchalik salbiy ta'sir etadi? degan savolga javob berishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham davlat va jamoatchilik ekspertizalarining ahamiyati 80-yillardan e'tiboran tobora oshib bormoqda. Atrof – muhitni ifloslantiruvchi manbalar bo'yicha muntazam ekologik monitoring amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan barcha tadbirlar mavjud ekologik sharoit va vaziyat (muvozanat)ga mos kelishi, uning buzmasligi va ifloslantirmasligi, u bilan uyg'unlashib, tabiatning ajralmas bir qismiga aylanishi maqsadga muvofiq. Aks holda, tabiiy muhit buzilib, insonning yashashi va hayot

kechirishi uchun xavfli bo'lib boradi. Odatda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi ingredient moddalarning ta'sir kuchining ko'rsatkichi inson organizmiga nisbatan olinadi. Buni ruxsat etilgan me'yor (REM) yoki ruxsat etilgan konsentratsiya (REK) deb ataladi. Ifloslanish darajasi belgilangan me'yordan ortib borishi insonga salbiy ta'sir eta boshlaydi, ya'ni uning organizmida turli kasalliklar paydo bo'ladi. REM ni aniqlashda, shuningdek, inson organizmidan tashqari chorva mollari va yovvoyi hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar hamda tabiiy komplekslarga ham ta'siri hisobga olinadi.

Hozirgacha havodagi zararli gazlar, bug'lar, aerozollarning 445 tasi va aholi punktlarining havosida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan 109 ta moddalarning REMi aniqlangan. (14-jadval). Bu me'yorlar inson organizmi uchun zararli emas, lekin bu ko'rsatkichlarning ortib borishi xavfning o'sishiga ta'sir etadi.

Demak, ekologik me'yorlar ishlab chiqarilishining inson hayotiga asoslanishi tabiat muhofazasi sohasida siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilganligidan darak beradi. Tabiiy muhitdagi har bir o'zgarish, komponentlar sifatining buzilishiga olib keladi, ya'ni, miqdor hamda sifat o'zgarishlari inson organizmining me'yoriy zararlanishiga nisbatan olinadi. Bu mezon boshqa tirik mavjudot (o'simlik, hayvonot dunyosi) va umuman landshaft miqyosida qaraladi. Inson tabiiy muhitda markaziy o'rinni egallagani holda, uning barcha me'yoriy ko'rsatkichlari va boshqa tabiiy komponentlarga nisbatan andoza sifatida qaraladi. Bunday ekologik siyosat aslida butun borliqqa nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilganligidan xabar beradi.

Bozor munosabatlarida inson ekologik huquqining mazmuni va shakli ham o'zgarib boradi. Aholining musaffo havo va toza suv, yashash sharoitlarining qulayligi (komfort darajasi)ni ta'minlash mahalliy hokimiyat va davlat rahbariyatining asosiy vazifalaridan biriga aylanadi. Aholining turmush tarzini belgilovchi omillar orasida ekologik sharoit birinchi darajali ahamiyat kasb eta boshlaydi. Respublika Prezidentining dastlabki farmonlaridan biri 1990 yil 28 iyulda qabul qilingan bo'lib, u "O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisini

ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida" deb ataladi. Keyin 1996 yil 21 mayda Vazirlar Mahkamasining "2000 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori chiqdi. Bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlarda qishloq aholisining turmush tarzini tubdan yaxshilash bilan birga ichimlik suvi va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishga xizmat qiladi. Aholini toza ichimlik suvga bo'lgan talabini yanada to'laroq qondirish masalasi Oliy Majlisning 1-chaqiriq XIV sessiyasida (14 aprel 1999 y.) keng muhokama qilindi. Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzuidagi ma'ruzasida 1999-2005 yillarda aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasining yana ortishi belgilangan. Bularning hammasi ekologik siyosatning yorqin namunasi, insonning ekologik huquqini hurmatlash, uning hayot kechirish tarzini yaxshilashga qaratilgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, qishloq aholisini tabiiy gaz bilan ta'minlanish natijasida daraxt va butalarning qirqilishi ham qisqarib boradi. Bundan faqat tabiat va jamiyat manfaatdor bo'ladi.

9.4. Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik muammolari

Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik muammolari orasida bozor munosabatlarini nazarda tutgan holda ekologik rivojlanishni rejalashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish o'rinli. Bunday rejalashtirish hali ko'pchilik korxonalar va tashkilotlarda amaliy ishga aylanmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish zarurligi ijtimoiy-ekologik rejalashtirishga yangicha mazmun baxsh etadi. Gap ijtimoiy rivojlantirish rejalariga ekologiya siyosati vazifalarining butun majmuini kiritish, rejalarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari va hokazolarni ishga solish to'g'risida bormoqda.

Ijtimoiy-ekologik rejalashtirishning har bir jabhasida mehnat jamoasidan tortib umumdavlat darajasigacha aholi salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish,

insonning har tomonlama va muvozanatli faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy o'rinni egallashi kerak. Muammoning har bir jihatini qamrab olish, aniqlik, reallik ijtimoiy-ekologik rejalashtirishning asosiy qonun-qoidalariga bo'lishi lozim. Ayni paytda moddiy boyliklar va boshqa jihatlar hisobga olinishi kerak.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizning 70% aholisi mehnat jamoalariga birlashgan.

Shunday ekan, mehnat jamoalari, shaxs hayotining eng ko'p qismi o'tadigan joy bo'lib, inson shaxsini kamol toptirishda yetakchi rol' o'ynaydi. Mehnat jamoalari unda ishlab yurgan har bir kishiga mehribonlik ko'rsatib, uning tinchligi va farovonligi to'g'risida qayg'urishi shart. O'z navbatida, har bir jamoa a'zosi ham butun jamoaning taqdiri ustida bosh qotirishi lozim. Insoniyat tarixiy rivojlanish jarayonida orttirgan eng katta boylik o'zaro munosabatga kirisha olishlikdir. Bu, asosan, mehnat jamoalarida amalga oshiriladi. Mehnat jamoalarida kishi nafaqat ishlab chiqarish munosabatlarida, balki ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda ham bo'ladi. Mehnat jamoalaridagi ruhiy va ijtimoiy muhitlarning sog'lomligi birinchi navbatda ma'muriyatning o'z qo'l ostidagilarga ularni boshqarish maqsadida qilgan munosabatiga bog'liq. Mehnat jamoalarining rahbariyati o'z xizmatchi va ishchilariga tazyiq o'tkazmasa, bunday jamoada sog'lom ijtimoiy muhit bo'lishi mumkin. Ya'ni amaldor, unga ishonib topshirilgan korxonalar yoki muassasani boshqarish chog'ida, har bir masala ustida bir to'xtamga kelishdan avval jamoa a'zolari bilan maslahatlashib, qarshi va tarafdorlar fikrini o'rganadi. Shu asosda tegishli xulosalar chiqarib korxonalarining iqtisodiy rivojlanishi uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'rib chiqishi lozim.

Bobning qisqacha mazmuni

Ekologik tafakkur nazariy va amaliy faoliyatda, ijtimoiy-ekologik jarayonlarni boshqarishda, tabiatni muhofaza qilish muammolarini hal etishda dunyo miqyosidagi umuminsoniy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yondashish qonun-qoidalariga amal qilish demakdir.

Ekologik yo'naltirilganlik bir-biri bilan bog'liq ikki darajaga ega. Birinchi daraja – ekologik madaniyat ko'rsatkichi bo'lgan ekologik tafakkur, ikkinchisi – tabiatni muhofazalash jarayonlarining barcha darajalarida – umumdavlat darajasidan tortib alohida korxonada miqyosida ham bevosita amaliy boshqarilish ko'nikmalari bilan bog'liq.

Ijtimoiy-ekologik rejalashtirishning har bir darajasida aholi salomatligi, insonning har tomonlama va muvozanatli rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish asosiy o'rinni egallashi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ekologik tafakkurning ahamiyati nimada?
2. Ekologik yo'naltirilganlik nima?
3. Ijtimoiy-ekologik yo'naltirilganlik siyosati deganda nimani tushunasiz?
4. Urbanizatsiya va uning ekologik vaziyatga ta'siri?
5. Urbanizatsiya va inson salomatligi.
6. Sanoat shaharlarida ekologik vaziyatni yaxshilash yo'nalishlarini ayting.
7. Mehnat jamoalaridagi ekologik ahvol qanday bo'lishi kerak?
8. Ijtimoiy ekologik rejalashtirish nima?
9. Mehnat jamoalaridagi ruhiy va ijtimoiy muhit nimalarga bog'liq?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston – XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari. – T., O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar. 2005 y.
3. Abirqulov Q. N., Xojimatov A., Rajabov N., Atrof – muxit muhofazasi. – T. 2004.

4. Банников А. Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. М. 2000.
5. Макар С. В. Основы экономики природопользования. — М.: ИМПЭ, 2002.
6. Рыночные методы управления окружающей среды. Уч. пос — М. 2002.
7. Степановских А.С. Прикладная экология. — М. ЮНИТИ, 2003.
8. Экономика и экология (под. ред. Н. Н. Агапова). М.: Российская Экономическая академия, 2004.
9. Коробкин В.И. Экология. М, 2003.
10. Павлов А.Н. Основы экологической культуры.- Политехника 2004.

10 - bob. Ekologik qayta qurish kontsepsiyasi

10.1. Ijtimoiy-ekologik vaziyatning yomonlashuvi sabablari

Har qanday ekologik siyosat yirik miqyosli dasturlar, muayyan kontsepsiyalarga suyanishi kerak. Ekologik muammolar negizida obyektiv ravishda mavjud bo'lgan asosiy ziddiyatlarni hal etish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan kontsepsiya ishlab chiqilishi lozim. Bunday kontsepsiya xo'jalik yuritishning an'anaviy usuli bilan uyg'unlashgan ekologik cheklashlarga ega biosfera o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Masalan, qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar, pestitsidni o'rinsiz ishlatish go'yo melioratsiya nuqtai nazaridan foydalidek, madaniy o'simliklar hosildorligi ortadi, dehqonchilik barqarorligi ta'minlanadi. Lekin ekologiya nuqtai nazaridan esa bu zararlidir. Chunki buning zararidan ko'pgina o'simlik va hayvonlar yo'qoladi, atrof-muhit sifati yomonlashadi, aholi salomatligi taxlika ostida qoladi. Albatta, ekologik vaziyatning yomonlashuviga faqat qishloq xo'jaligi emas, balki transport, sanoat va xo'jalik faoliyatining boshqa turlari ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiatga antropogen ta'sir o'tkazish biosferaning ekologik muvozanati ifloslanishiga, atrof-muhit bulg'anishiga, inson atrofidagi muhitning izdan chiqishiga olib keladi. Ekologik-iqtisodiy ziddiyatning ta'siri shundaki, an'anaviy vositalar bilan erishilgan iqtisodiy o'sish juda qimmatga tushadi – ekologik orqaga ketish ro'y beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, keyinchalik industriyaning rivojlanishi tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shunday qoidalariga asoslanganki, ekologik muvozanatning buzilishi, atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishi muqarrar.

10.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy-ekologik qayta qurishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Hozirgi ekologik muammolarni tashkil etuvchi hammasi tabiatdan foydalanishning “neolit” qonun-qoidalari hosilasidirki, vaqt o'tib borgani, ijtimoiy ishlab chiqarish miqyoslari va sur'atlari o'sgani sari bu jarayon tabiiy muhitni tobora tanazzulga yetaklaydi. Bularni muttasil yaqinlashib kelayotgan “sudraluvchi” ekologiya bo'xroni mexanizmlari deb tavsiflash mumkin. Qayd etilgan sabablar va ekologik jihatdan salbiy omillarni bartaraf etish, zarur xo'jalikni yuritishni “neometik” qonun-qoidalarining hozirgi zamondagi ma'muriy shakliga, ya'ni ekologik muammolarni tubdan hal etadigan shakliga aylantirish zarur. Ko'pgina olim va siyosatchilar: “Agar jamiyat rivojining jadallashuvi zarur ekologik shart-sharoitlarni ta'minlamas ekan, u holda rivojlanish ma'lum vaqtdan keyin muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi, ijtimoiy hayot hatto to'xtab ham qolishi mumkin”, deb hisoblaydilar. Shu boisdan islohotlar strategiyasi atrofda tabiiy muhitning shart-sharoitlari va omillarini “tashqi tarzda” hisobga olmay, balki uni ijtimoiy-iqtisodiy jabha bilan chambarchas bog'langan juda muhim tarkibiy ekologik qism sifatida qamrab olish zarur. Ijtimoiy soha va biosferaning muvofiqlashish-moslashish imkoniyatlari hamda mexanizmlaridan foydalanish muhimdir. Insonning tabiatga xo'jalik maqsadlarida daxl qilishi tabiatdan foydalanish “neometik” qonun-qoidalarining formatsiyalardan formatsiyaga o'tishi, biosferada moddalarning aylanishi negizida yotuvchi oziq-ovqat zanjirlarining buzilishiga, evolyutsiya natijasida shakllangan biogeotsonezning bir butunligi va barqarorligi vayron bo'lishiga olib keladi. Bu ziddiyatni hal etish ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada rivojlantirish imkoniyatini ochadi. Pirovardida insoniyatning uzluksiz tarraqiyotini ta'minlaydi. Buning uchun esa tabiatdan uzluksiz tarraqiyotni talab qiladi.

10.3. Ekologik qayta qurish kontsepsiyasi

Ekologik muammolarni hal etish tizimli-kompleks yondashishdan iboratdir. Bunday yondashish iqtisodiyot va ekologiyani bir butun tizimda bog'laydi. Bunda har tomonlama intensiv rivojlanish yo'liga o'tish eng muhim omil bo'ladi. Rivojlanishning har tomonlama intensiv yo'lga o'tishi, uning iqtisodiy rag'balantirishni shakllantirish, bunday rivojlanishning sifat omillari va manbalarini ishga solish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga, aholining barcha oqilona ehtiyojlarini qondirishga olib keladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, korxonlarni maqsadli joylashtirish, iqtisodiyotning istiqbol rejalari va ularni amalga oshirishning uzoq muddatli yo'nalishlari, sanoat va qishloq xo'jaligining texnologik jarayonlarini ustun rivojlantirishni ko'zda tutish zarurligi ekologik qayta qurishning muhim xususiyatidir.

Koevolyutsiya sharoitlarida intensivlash ijtimoiy taraqqiyotning ekologik qayta qurish bilan qo'shilishi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik faoliyatning oqilona strategiyasi eng kam zarurat, atrof-muhit ichida eng kam ehtiyojni qanoatlantirishga, chiqitsiz yoki kam chiqitli texnologiyalarni ishlab chiqarishning atrof-muhit musaffoligini saqlash imkonini beradigan har xil biqiq ekologik davrlarini joriy etishga yo'naltiriladi.

Bobning qisqacha mazmuni

Ekologik siyosat, uzoqqa mo'ljallangan va yirik miqyosli dasturlar muayyan uslubiy kontsepsiyalarga suyanishi kerak.

Jamiyat rivojining jadallashuvi zarur ekologik shart-sharoitlarni ta'minlamas ekan, u holda rivojlanish ma'lum vaqtdan keyin muqarrar ravishda inqiroz bilan almashadi, ijtimoiy hayot hatto to'xtab ham qolishi mumkin.

Ekologik-iqtisodiy ziddiyatning ta'siri shundaki, an'anaviy vositalar bilan erishilgan iqtisodiy o'sish juda qimmatga tushadi, ekologik orqaga ketish ro'yi beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Hozirgi izchil ekologik siyosat yuritishning ahamiyati nimada?
2. O'zbekistonda ekologiyaga oid qanday qonunlar qabul qilingan?
3. Ekologik me'yorlar nima?
4. Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy-ekologik qayta qurishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. Ekologik qayta qurish kontsepsiyasi nima?
6. Ekologik barqaror rivojlantirish yo'llarini ayting.
7. Davlat ekologik dasturining mazmuni va mohiyatini bilasizmi?
8. Ekologik kontsepsiyani qayta qurishning zarurati nimada deb bilasiz?
9. Barqaror rivojlanishga erishish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi lozim?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish, yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 29 yanvar. 2005 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafotlari. –T., O'zbekiston, 1997.
3. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N. Ekologiya. –T., 2004.
4. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. - T., 2004.
5. Акимова Т.А., Хаскин В.В. и др. Макроэкология и Основы экоразвитии. Изд. РУДН 2005.
6. Макара С. В. Основы экономики природопользования. – М., ИМПЭ,

2002.

7. Банников А. Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. – М., 2000.
8. Гиросов Э. В. Экология и экономика природопользования. – М., 2002.
9. Rafiqov A., Abirqulov Q.N., Hojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. – T., 2004.
10. Рыночные методы управления окружающей среды. Уч. пос – М., 2002.
11. Степановских А.С. Прикладная экология. – М., ЮНИТИ, 2003.

11 - bob. Ekologiyaning ijtimoiy-iqtisodiy aspekti

11.1. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ahamiyati

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida "Er, yer osti boyliklari, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boyliklardir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", – deb ko'rsatilgan.

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga rioya etish va ekologik halokatlarning oldini olish ekologik siyosatning asosiga aylangan. Chunki, ushbu muammoning ortida butun mustaqil davlatimiz, millatning taqdiri mujassam.

Yurtboshimizning: "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir", - deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas va bu hammamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Respublika mustaqilligi davrida Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish", "Suv va suvdan foydalanish", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar", "Er osti boyliklari", "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish", "Er kodeksi", "Er kadastr", "O'rmon to'g'risida" gi kodeks va qonunlar ushbu muammolarni hal etishga qaratilgandir.

Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik rivojlanmoqda va takomillashmoqda, genofondning barqaror rivojlanishini saqlab qolishni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan hamda fuqarolarning maqbul atrof-muhitga bo'lgan huquqini kafolatlaydigan halqaro konventsiyalar, shartnoma va bitimlarga qo'shilish jarayoni davom etmoqda.

11.2. Suv resurslaridan foydalanish

O'zbekiston Respublikasida "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Suvga doir munosabatlarni tartibga solish, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suvga zararli ta'sirning oldini olish va uni bartaraf qilish, suv havzalarining holatini yaxshilash, shuningdek, muassasalar va tashkilotlar, dehqon-fermer xo'jaliklari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish ana shu qonunlarning vazifasidir.

O'zbekiston suv fondi va unga egalik masalasi qonunchilikda qanday hal etilgan?

Bu holat bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunida batafsil bayon etilgan. Qonunning 4-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlari, yer osti suvlari, muzliklardan iboratdir.

Davlatlararo daryolar—Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa daryolarning suvlaridan foydalanish davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi.

Suv — O'zbekiston Respublikasining davlat mulki—umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo'lib, u davlat tomonidan qo'riqlanadi.

11.3. Yer resurslaridan oqilona foydalanish

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer bilan bog'liq masalalar 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi" asosida yoritib berilgan.

"Yer kodeksi"da uning maqsadi hamda vazifalari, asosiy printsiplar yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi Vazirlar Mahkamasining, viloyatlar,

Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimiyati vakolatlari, yer resurslari manbalari, yer uchastkalari, yer tuzishning vazifalari va mazmuni, yer monitoringi, davlat yer kadastri tushunchalari bilan ham tanishish mumkin. Ushbu kodeksda, respublikamizda yerga bo'lgan mulkchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari, yerning ijarasi, bino va inshootlarni qurishda yerdan foydalanish tartibi, yer uchun haq to'lash, yer uchastkalari berish va davlat ro'yxatiga olish tartibi, yerga bo'lgan huquqlarni bekor qilish holatlari va yer bilan bo'liq bo'lgan huquqiy kafolatlarga ham e'tibor berilgan. Shu bilan birga, yerni muhofaza qilish, ekologik talablar, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlantirish, muhofaza ustidan davlat nazoratini olib borish tartibi, yerdan foydalanuvchi va yer egalari yetkazilgan zarar o'rnini qoplash hamda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari ham yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Er kodeksi" ning 28-moddasiga ko'ra, yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi. O'z tasarrufida yer uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun har yili to'lanadigan yer solig'i shaklida olinadigan haq to'laydilar. Uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Olinadigan haq oldindan belgilanadi.

Er solig'ining hajmi, uni hisoblash va to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Er ijara berilganda yer uchun haq ijara haqi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Erdan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda uning uchun haq yer solig'i stavkasining bir baravari miqdorida belgilanadi.

Er ostidan foydalanganlik uchun soliq to'lash va uning tartibi masalalariga O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi" da alohida e'tibor berilgan, uning III bo'limi aynan ana shu masalaga bag'ishlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi 1997 yil 15 dekabrda qabul qilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 29 yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan "Er ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida" gi yo'riqnoma hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 1998 yil 3 martdagi "Er ostidan foydalanganlik uchun soliq stavkalari to'g'risida" gi nizom ham masalaga oydinlik kirituvchi hujjatlar sirasiga kiradi. Masalan: "Er ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida" gi yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi" ga muvofiq ishlab chiqilgan va yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibini belgilaydi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun "Soliq solish" masalasi O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" talabi asosida va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

"Soliq kodeksi" ning 16-moddasiga ko'ra, o'z faoliyatida bevosita suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar deyilgan.

Bobning qisqacha mazmuni

Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga rioya etish, ekologik halokatlarning oldini olishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratiladi.

Respublikamiz mustaqilligidan keyin qabul qilingan "Tabiat resurslarini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va qonun osti hujjatlari yuqoridagi bu boradagi muammolarni hal etishga qaratilgan.

Suv – O'zbekiston Respublikasining davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan qo'riqlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tabiatdan oqilona foydalanish zarurati nimadan kelib chiqadi?
2. Bugungi kunda suv resurslaridan foydalanish holati qanday?
3. Er resurslaridan qanday foydalanilmoqda?
4. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lash masalalarining mohiyati nimadan iborat?
5. Muhofaza qilinadigan hududlarni ayting.
6. Suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
7. Er resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
8. Atmosfera havosini muhofaza qilish qonunining mohiyatini ayting.
9. Yer kodeksi qachon qabul qilingan va uning mohiyati nimalardan iborat?
10. Shaharsozlik kodeksining mohiyati nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokrattlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2 yanvar. 2005 y.
2. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. – T., 2004.
3. Abirqulov Q. N., Xojimatov A., Rajabov N. Atrof – muxit muhofazasi, – T., 2004.
4. Банников А. Г. и др. Основы экологии и охрана окружающей среды. – М., 2000.
5. Гирусов Э. В. Экология и экономика природопользования. – М., 2002.
6. Макара С. В. Основы экономики природопользования. – М., “ИМПЭ”, 2002.
7. Степановских А.С. Прикладная экология. – М., ЮНИТИ, 2003.
8. Коробкин В.И. Экология. – М., 2003.

12 - bob. Ijtimoiy ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikaning o'рни

12.1. Ijtimoiy-ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari

Hozirgi davrda ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikadan foydalanish O'zbekiston Respublikasida muayyan darajada rivoj topdi.

Respublikamizning ilmiy markazlari tomonidan sanoat ishlab chiqarishi, qishloq va kommunal xo'jaligi doiralarida tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofazalash bo'yicha eng muhim muammolarni hal etishning turli mexanizmlari ishlab chiqildi. Bunda respublikadagi ilmiy-texnikaviy va tabiiy-iqtisodiy kuch-qudratning real imkoniyatlari hisobga olindi.

Respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'rganish Kengashi tomonidan, atrof-muhit ifloslanishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularni kamaytirish choralari aniqlandi. Tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun sarflanadigan kapital mablag'larga bo'lgan ehtiyojlar hisob-kitob qilindi. Atmosfera havosini bulg'ash natijasida yetkazilgan iqtisodiy zararni aniqlash bo'yicha mintaqaviy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgani e'tiborga molik. Bu sa'y-harakatlar tabiiy boyliklarga nisbatan xususiy mulkchilik munosabatlari, tabiiy boyliklar va atrof-muhitdan oqilona foydalanish ishida korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning huquqlari va mas'uliyatlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish imkonini berdi.

Shuningdek, Fanlar Akademiyasining Tuproqshunoslik va agrokimyo institutida tuproqlar hosildorligini oshirish va ularni yemirilishdan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar majmui ishlab chiqildi. Tuproqshunoslik va agrokimyo instituti bilan bir qatorda bu sohada respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi ilmiy muassasalari va o'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti ham muayyan ishlar olib bordi. O'zbekiston g'arbidagi tuproq va tuproq qoplamasi evolyutsiyasini kompleks o'rganish amalga oshirildi. Ya'ni bu hududda

asosiy sabablari aniqlanib, Orol dengizining qurigan tubini fotomelioratsiyalash usullari ishlab chiqilmoqda.

Ekologiyaning barcha muammolari bevosita yoki bilvosita Orolga daxldordir. Shu bois bu muammolarni butun Orol dengizi havzasi bo'yicha kompleks ravishda qarab chiqish zarur. Bu havzaga Markaziy Osiyo respublikalari va Afg'oniston Respublikasining bir qismi kiradi.

Ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikadan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan atrof-muhitni muhofaza qilishga yondashishning hamjihatligi bir butunligiga bog'liq. Bunday yondashish davlat miqyosidagi fan-texnika dasturlarini ishlab chiqish vazifasining qanchalik zarur ekanligini oydinlashtiradi. Ularni amalga oshirish, tabiatdan foydalanishni qulaylashtirish uchun quyidagi talablarni bajarish lozim:

- tezligi yuqori, ekologik jihatdan toza transport;
- ekologik jihatdan toza energetika;
- metallurgiya va kimyoviy boyliklarni tejoychi, ekologik jihatdan toza ishlab chiqarish jarayoni;
- istiqbolli materiallar va boshqalar.
- ekologik muammolar bo'yicha Davlat fan-texnika dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu to'rt yo'nalishdan iborat dastur ijrosini to'la ta'minladi:
- tabiatdan samarali foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari;
- ekologik me'yorlashtirish;
- tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan foydalanish tizimini va uni takomillashtirish;
- atrof-muhitni muhofazalash va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni ilmiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash.

12.2. Tabiatdan foydalanish va ijtimoiy-ekologik munosabatlarni rivojlantirish

Tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni qulaylashtirish sohasida asosli va amaliy-ilmiy tadqiqotlarni muntazam rivojlantirmay turib, noosferani, inson va jamiyatning tabiatga bo'lgan oqilona munosabatini ta'minlab bo'lmaydi. Ammo bunday tadqiqotlarga hali yetarlicha e'tibor berilmayotir.

Tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofazalashning ilmiy asoslangan, muvozanatlashgan taraqqiyotini ishlab chiqish o'ta muhim ahamiyatga molik. Bunday rejalashtirishni shakllantirish tegishli nazariy ishlanmalarni rivojlantirishni talab qiladi. E'tiborni ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratish muhimdir. Ekologik bo'xronlar va halokatlarning oldini olish uchun bu boradagi chuqur bilimga ega bo'lish, ekotizimning buzilgan munosabatlarini tiklash tadbirlari talab etiladi.

Biosfera jarayonlarini o'rganish va tabiatni muhofazalashning ilmiy tavsiyalarini ishlab chiqish uchun fanlararo majmuaviy masalalar tarixini o'z ichiga olgan tadqiqotlar, ayniqsa, muhimdir. Hozirgi davrda ekologik muammolarning keskinlashuvi, chiqindilarni zararsizlantirish mexanizmlari quvvatini oshirishdan chiqindisiz texnologiya jarayonlariga, chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish mas'uliyatini yuklaydi.

Aksar hollarda tabiat boyliklaridan xo'jasizlarcha foydalanish, chiqindilarni ko'p hosil qiladigan ishlab chiqarish keng yoyilgan edi. O'tgan asrning 90-yillari boshida sobiq ittifoqda ishlab chiqarilgan bir so'mlik mahsulot hisobiga 35 kg dan ortiq chiqindi, shu jumladan, 0,12 kg gazsimon, 24 kg suyuq va 11 kg qattiq moddalar to'g'ri kelgan.

Ba'zi hollarda aksariyat tarmoq ishlanmalari o'z ishlab chiqarishini "oppoq" ya'ni ekologik xavfsiz qilib ko'rsatishga, ishlab chiqarish chiqitlari zararsizligini isbotlashga, tabiatni asrab avaylash texnologiyasining texnik-iqtisodiy jihatdan samarasizligini isbotlashga qaratilgan.

12.3. Tabiatni muhofazalashda tarmoqlararo majmuaviy ishlanmalarni yo'naltirish

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan tabiatni muhofazalash me'yorlari majmui yetarli darajada mukammal emas. Bu me'yorlarni ishlab chiquvchilardan ko'pchiligining faoliyati kelishilgan uslubiy asosga ega emas va muvofiqlashtirib turilmaydi. Tabiatni muhofazalash me'yorlari va qoidalari 800 dan ziyod hujjatlarda ifoda etilgan. Ulardan 80% dan ortig'i tavsiya xarakteridadir. Ularning aksariyati o'tgan asrning 90-yillardagi sanitariya-gigiyena tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ko'pgina aniqliklarni talab qiladi.

Tabiatdan foydalanishi va uni muhofazalash sohalari bo'yicha tugallangan ilmiy-texnika ishlanmalari bo'lishiga qaramay, ular amaliyotga juda sust joriy qilinmoqda. Tabiatdan foydalanishni boshqarishning iqtisodiy omillari hali ishlab chiqilmagani bois kam chiqitli ilg'or texnologiya jarayonlarini joriy etishda hamon korxonalarining tashabbusi sustligi bu sohadagi ishlar tez sur'atlar bilan rivojlanishiga to'sqinliq qilmoqda.

Hozirgi kunda fan va texnika yutuqlariga tayanib, yangi xalq xo'jaligi obyektlarini texnologik loyihalashtirish va qurish uchun me'yorlashning bazasi nochor ahvolda ekani, mavjud ishlanmalarni joriy etishga to'g'anoq bo'lyapti.

Shu o'rinda tabiatdan foydalanish va uni muhofazalash bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarning ba'zi bir yo'nalishlarida ishlar g'oyat jadal olib borilayotganligini ham qayd etish joiz. Ishlab chiqarishda uchraydigan halokatlar va murakkab texnologiyalarining joriy etilishi texnika vositasi va texnologiya jarayonlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlarning yangi yo'nalishlari rivojlanishiga olib keldi. Tavakkalchilikni tahlil qilishning xulosaviy ma'lumotlari asoslangan qarorlar qabul qilish va ishlab chiqarish obyektlari joylashtiriladigan yerlarni aniqlashda, shuningdek, ekologik nuqtai nazardan xavfli moddalar va ashyolarni tashish hamda saqlashni tashkil etishda katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda mineral resurslardan foydalanishda keng qamrovlilik alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu qiyin boyitiladigan

ma'danlarni qayta ishlashning yangi usullarini yaratishni talab etdi. Qo'shimcha kimyoviy metallurgiya usullarini eng istiqbolli kashfiyotlar sirasiga kiritish lozim. Masalan, gidrometallurgiyada suyuq vannada eritish, kislorod-alangali eritish texnologiyalari ishlab chiqilgan. Ma'dan xom ashyosini qayta ishlashning sulfat ma'danlarni magnitlashtirib pishirish, sulfatli temir va kabelni magnitli separatsiya qilish va boshqa ilg'or usullari yaratilgan.

Qishloq xo'jaligida ekologiya talablarini hisobga olish borasida amaliy tadqiqotlar rivojlanmoqda. Masalan, qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunanda va kasalliklardan muhofaza qilishning biologik usullarini qo'llash 1988 yilda yanada rivoj topdiki, bu o'simlik va hayvonot dunyosi, inson salomatligi uchun zararli pestitsid qo'llashni kamaytirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda biolaboratoriyalar keng miqyosda qo'llanib kelinmoqda. Trixogramma zotidan bo'lgan entomofaglar o'simliklarni muhofazalash biologik usullar orqali muhofaza qilinadigan maydonlarning 70-80% da qo'llaniladi. Trixogramma don va sabzovot ekinlari, ko'p yillik o'tlarni qiyratadigan tangacha qanotlilarga, shuningdek, bog'lar va uzumzorlarda olma qurtlari va barglar bujmayishiga qarshi kurashda qo'llaniladi. Mamlakatda g'alla kuyasi tuxumlarida trixogrammalarning bir qancha turlarini yetishtiruvchi 750 ta mexanik liniyalar ishlab turibdi. Boshqa tabiiy substratlar ham tadqiq etilmoqda. Trixogrammalarni o'z vaqtida qo'llash hosil ko'payishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda atmosfera tarkibidagi azon, uning harakati va kelib chiqishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Xlor, fluor, freonlar, azot oksidlari, suv bug'lari va boshqa moddalarning azonga bo'lgan ta'siri o'rganildi. Bu moddalar 20-40 km balandlikda azon qatlami buzilishini tezlashtiruvchi katalizatorlar hisoblanadi yoki stratosferada shunday katalizatorlar paydo bo'lishiga olib keladi. E'tiborli jihati olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida Antarktida tepasida "azon tuynugi" hosil bo'lish mexanizmini o'rganishga muayyan hissa qo'shildi.

Biosfera qo'riqxonalarining nazariy asoslari va ularni amalda barpo etish katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ularda atrof-muhitning ahvolini o'rganish, hayvonlar va o'simliklarning genofondini saqlash, majmuaviy sharoit monitoringi uchun texnika vositalari, ilmiy va texnikaviy asoslar hamda tizimlarni takomillashtirish, yer ustidagi stansiyalar, aerokosmik kuzatishlar va xaritalashtirish ma'lumotlari asosida atrof-muhit holatini o'rganish ta'minlanadi.

Bobning qisqacha mazmuni

Respublikamizning ilmiy markazlari tomonidan sanoat ishlab chiqarishi, qishloq va kommunal xo'jaligi doiralarida tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofazalash bilan bog'liq eng muhim muammolarni hal etish imkoniyatini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikadan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan atrof-muhitni muhofaza qilishga yondashish va bu yondashuvning bir butun bo'lishiga bog'liqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fan-texnika inqilobi nima?
2. Hozirgi zamon kishisiga fan-texnika inqilobi nimalar beradi?
3. Fan-texnika inqilobi qanday salbiy oqibatlarini keltirib chiqargan?
4. Ekologik muammolarni hal etishda fan va texnika imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. Tabiatdan foydalanish va ijtimoiy-ekologik munosabatlar rivojlanishining mohiyatini ochib bering.
6. Tabiatni muhofaza qilishda tarmoqlararo majmuaviy ishlanmalarni bilasizmi?
7. Ijtimoiy-ekologik muammolarni hal etishda fan va texnikaning o'rni qay darajada?

8. Biosfera qo'riqxonalarining ijtimoiy-ekologik muammolarni yechishda qanday ahamiyati bor?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari. – T., O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish, yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 29 yanvar. 2005.
3. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov SH. Ijtimoiy ekologiya. – T., 2004.
4. Abirqulov Q. N., Hojimatov A., Rajabov N., Atrof – muxit muhofazasi. – T., 2004.
5. Rafiqov A., Abirqulov Q.N., Hojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. – T. 2004.
6. Степановских А.С. Прикладная экология. – М., ЮНИТИ, 2003.
7. Экономика и экология (под. ред. Н. Н. Агапова). – М., Российская Экономическая академия, 2001.
8. Atrof – muhitni muhofaza qilish. (qonunlar va normativ hujjatlar). – T., Adolat, 2002.
9. Воронков Н.А. Экология общая, социальная, прикладная. М., 2002.

Glossariy (atamalar izohi)

1. Abiotik omillar – anorganik muhitning fizik va ximiyaviy sharoitlari.
2. Adaptatsiya – evolyucion tarzda vujudga kelgan organizmlarning tabiiy muhitga moslashishi.
3. Antropogen – yerda insonning yashash davri (1dan 5 mln yilgacha davrni oʻz ichiga oladi).
4. Antropogen taʼsir – insonning xoʻjalik faoliyati natijasida tabiatga, atrof-muhitga taʼsiri.
5. Biologik tenglik – tabiiy majmualarni bir meʼyorda saqlash.
6. Bioekologik monitoring – atrof-muhitning ifloslanishi va uning eng avvalo inson salomatligiga taʼsirini kuzatish.
7. Geoekologik monitoring – hududda havo, suv, tuproq, oʻsimlik, hayvonot dunyosi, inson sogʻligiga salbiy taʼsir qiluvchi omillar va manbalarni kuzatish.
8. Atmosfera havosi – a) yer evolyutsiyasi davomida gazlarning tabiiy aralashuvi; b) Ishlab chiqarish korxonalarini va yashas obyektlaridan tashqaridagi havo.
9. Ekologiyalashtirish – ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarishning ilmiy, texnik-texnologik sohalarida ekologik talablarni joriy etish jarayoni.
10. Yer tuzish – erdan toʻla va unumli foydalanish, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish uchun qulay sharoit yaratish, yerni muhofaza qilish, yer toʻgʻrisidagi davlat organlari qarorlarini hayotga tatbiq etish yuzasidan davlat yoʻli bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi.
11. Yer egaligi – yerga xususiy mulk sifatida yoki ijara yoʻli bilan egalik qilish.
12. Yer huquqi – yerdan unumli foydalanish maqsadida yer munosabatlarini tartibga soladigan, yerdan foydalanuvchi shaxs va tashkilotlarning

huquqlarini himoya qiladigan, yer munosabatlarida qonunchilikni mustahkamlaydigan huquqshunoslik sohasi.

13. Rekreatsiya (lotincha “rekreatio” – tiklash, hordiq) - kishilarning mehnatdan charchog'ini qondirish, kuch-quvvatini tiklash, hordiq chiqarish.
14. Eroziya – tog' jinslari va tuproqlarni oqar suvlar yuvib, oqizib va shamol uchirib ketishi.
15. Irrigatsiya (lotincha “irrigatio”- sug'orish) – tuproqda o'simliklarda suv ta'minotini yaxshilash uchun erni sug'orish, tuproqlar sho'rini yuvish ishlari.
16. Suv sho'rliги – 1 litr suv tarkibidagi tuz miqdori. Suv sho'rliги promille (‰), ya'ni mingdan bir hisobda o'lchanadi.
17. Biotik salohiyat – tur populyatsiyalari ko'payishining nazariy jihatdan maksimal tezligi.
18. Evolyutsiya – jonli tabiatning tarixiy rivojlanishi.
19. Ekologik omil – tirik organizm moslashuviga javob bera oladigan tashqi muhitning unsuri.
20. Favqulodda ekologik vaziyatlar hududi – xo'jalik va boshqa faoliyat natijasida inson salomatligiga, ekotizimga, taktik fondga xavf keltiruvchi joylar.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997, - 328 bet.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000, - 352 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 8 dekabr, 1992 y.
4. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 9 dekabr 1992 yil.
5. Abirqulov Q.N., Hojimatov A.N. Ekologiya. /O'quv qo'llanma./ - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
6. Abirqulov Q.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. /O'quv qo'llanma./ - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
7. Abirqulov Q. N., Xojimatov A., Rajabov N., Atrof-muhit muhofazasi. /O'quv qo'llanma./ - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
8. Алимов Т.А., Хаскин В.В. Экология. /Учеб. пособие./ - М., 1998.
9. Демина Т.А. Экология, природопользование, охрана окружающей среды. --М.:Аспект Пресс,1999.
10. Jumaev T. Ekologiya iqtisodiyoti. /Darslik./ - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
11. Jumaev T. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyotini strategik rejalashtirish. /O'quv qo'llanma./ - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
12. Национальный доклад. – Т.: “Чинор ЕНК”, 2005.
13. Макара С.В. Основы экономики природопользования. - М.ИМПЕ, 1998.
14. Нестеров П.М., Нестеров А.П. Экономика природопользования и рынок. - М., 2001.

15. Rafiqov A.A., Abirqulov Q. N., Hojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. / O'quv qo'llanma./ - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
16. Tursunov X. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.- T.: O'zbekiston, 1997.
17. To'xtaev A.S. Ekologiya - . T.: O'qituvchi, 1998.
18. Сухорукова С.М. Экономика и экология. - М.: Высшая школа, 1998.
19. Тухлиев Н., Таксанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. - Т.: "Укитувчи" 2000. - 368 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jumaev T. Ekologik ekspertiza, O'quv qo'llanma - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
2. Jumaev T.J. Ikkilamchi resurslardan foydalanish iqtisodiyoti. /O'quv qo'llanma./: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti. – T., 2004.
3. Национальный доклад. О состоянии окружающей среды и использовании ресурсов в Республике Узбекистан (2001). – Т., Чинар ENK, 2002.
4. Hojimatov A.N. Ekologik monitoring. O'quv qo'llanma. – T., 2004.
5. Новые законы Узбекистана – Т., 2002.
6. Проблемы питьевого водоснабжения и экологии, – Т., Университет, 2002.
7. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish. (qonunlar va normativ hujjatlar), – Т., Adolat, 2002.
8. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2003y. 3-soni 63 bet.
9. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2003y. 8-9-sonlari 56 bet.

Internet saytlari

1. <http://www.intccc.int/> Секретариат рыночной конференции ООН об

изменении климата.

2. <http://www.unep.org/> Программа ООН по окружающей среде.
3. <http://www.undp.org/> Программа развития ООН.
4. <http://www.epa.gov/> Агентство США по охране окружающей среды.
5. <http://www.wwt.ru/> Российское отделение Всемирного фонда дикой природы.
6. <http://www.usaid.gov/> Агентство США по международному развитию.
7. <http://ecopress.iorton.com/> Общественное объединение “Экологический прессцентр”
8. <http://www.climate.uz/> Проект UNER Узбекистана по статье 6 РККООН.

Hakimov Nazar, Abdulqosimov Abdurashid,
Hamdamov Shokir

IJTIMOIIY EKOLOGIYA

(O'quv qo'llanma)

Мухаррир: Рахимова Х.

Техник мухаррир: Арипов И.М.

Компьютерда саҳафаловчи ва дизайн: Хақбердиев Б.Ў.

МСНҲ "RAM-S" босмаҳонасида босилди.

700096, Тошкент ш., Муқимий кўчаси, 178-уй.

Шартли босма табоғи – 21,5

Адади 500 нусха